

VAZIRLAR MAHKAMASINING
DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH DEPARTAMENTI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI

Hamidulla DADABOYEV, Hamid YODGOROV

O‘ZBEK HARBIY TERMINOLOGIYASI

O‘quv qo‘llanma



SAHHOF
2021

**Mas'ul muharrir**

*Sh. Sirojiddinov – filologiya fanlari doktori, professor,
ToshDO'TAU rektori.*

Mazkur o'quv qo'llanma "O'zbek harbiy terminologiyasi" fanining mazmun-mohiyatini yoritish maqsadida tuzilgan bo'lib, u o'zbek tili harbiy terminlar tizimi, taraqqiyot bosqichlari va hozirgi takomillashish davridagi fonetik, leksik-semantik va grammatik xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan. Qo'llanma harbiy terminologiyaga oid adabiyotlar, lug'atlar va o'zbek adabiy tili rivojlanish dinamikasini o'zida mujassam etgan ilmiy, tarixiy va badiiy asarlarda qayd etilgan ashyoviy materiallar bazasida tuzilgan bo'lib, fanning asosiy masalalarini qamrab olgan.

O'quv qo'llanma matni O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Lotin alifbosiga asoslangan o'zbek tilidagi o'quv adabiyotlarini yaratish to'g'risida"gi 2004-yil 23-yanvar 20-sonli buyrug'iga asosan tayyorlandi.

O'quv qo'llanma "Temurbeklar maktabi", harbiy bilim yurtlari talabalari, O'zbekiston Qurolli Kuchlari akademiyasi tinglovchilari, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar va o'zbek tili harbiy terminologiyasi bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

*R. S. Samarov – falsafa fanlari doktori, professor, polkovnik,
O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi boshlig'ining o'rinbosari.
U. A. Muysinaliyev – harbiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,
O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi Ilmiy-tadqiqotlar instituti
bo'limi boshlig'i.*

*O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
akademiyasi Ilmiy kengashining 2021-yil 10-maydagi 11-sonli majlisi
bayonnomasiga binoan nashrga tavsiya etilgan.*

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan
chop etildi.*

ISBN: 978-9943-7280-0-4

© H. Dadaboyev, H. Yodgorov, 2021
© SAHHOF, 2021

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining ishlab chiqilgan Mudofaa Doktrinasida milliy armiyaning faqat mudofaa maqsadlariga xizmat qilishi qat'iy belgilangan. Mustaqillik yillarida malakali harbiy mutaxassislar tayyorlash, ularning ma'naviy barkamolligi, zamonaviy bilimlarini yuksaltirish, aqliy salohiyatini takomillashtirishga alohida diqqat qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish", "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", 2021-yil 12-yanvar kuni o'tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida harbiy kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda harbiy ilmni rivojlantirish borasida Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni tomonidan qo'yilgan harbiy mojarolar va zamonaviy jang amaliyotlari, shuningdek, milliy harbiy san'at tarixini chuqur o'rganish, qo'shinlarning tayyorgarlik usul va uslublarini yanada takomillashtirishga oid vazifalardan kelib chiqqan holda, o'zbek harbiy terminologiyasining predmeti, maqsadi va vazifasini yoritish, fan doirasida o'rganiladigan bosh masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, talabalar va tinglovchilarda harbiy terminologiyaning



maxsus ilmiy-texnikaviy ma'nolarini ifodalovchi termin yoki so'z birikmalari tizimi, uning muayyan adabiy til so'z boyligida, albatta mavjudligi, umumiy so'z boyligining ajralmas bir qismi ekanligi, uning voqelanish jarayoni uzoq davrlarga borib taqalishi, harbiy terminlar shakllanishida intralingvistik va ekstralingvistik omillarning roli, harbiy terminlarning struktur-grammatik qurilishi, qatlamlari, hosil bo'lish yo'llari, terminlar tarkibidagi leksik-semantik jarayonlar, harbiy terminlarni tartibga solish, muvofiqlashtirish borasida ma'lumot berish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Fanning maqsad va vazifalari. "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi Farmonda ta'kidlanganidek: "Eng avvalo, ona tilimizning qo'llanish doirasini kengaytirish, uning tarixiy ildizlarini chuqur o'rganish va ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish bugungi kunda o'ta dolzarb masalaga aylanmoqda. Bu haqda gapirganda, birinchi navbatda, fundamental fanlar, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, sanoat, bank-moliya tizimi, yurisprudensiya, diplomatiya, harbiy ish va shu kabi o'ta muhim tarmoqlarda o'zbek tili o'zining haqiqiy o'rnini egallashiga erishish, shu maqsadda zamonaviy darsliklar, etimologik va qiyosiy lug'atlar yaratish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish oldimizda muhim vazifa bo'lib turganini qayd etish lozim". Mazkur vazifalardan kelib chiqqan holda, fanni o'qitishning maqsadi harbiy terminologiya sohasining predmeti, obyekti va vazifalarini yoritish, fan doirasida o'rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, o'zbek harbiy terminologiyasining sulolaviy shakllanish va taraqqiyot bosqichlari, xususan, Ko'k turk xoqonligi, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Temuriylar, Shayboniylar, O'rta Osiyo xonliklari, chorizm, sobiq sho'rolar va Mustaqillik davri o'zbek tili harbiy terminologiyasining shakl-



lanish va rivojlanishiga tu'rтки bo'lgan ijtimoiy shart-sharoit va omillar, harbiy terminlar tizimining taraqqiy etishida o'zbek tili qatori boshqa tillarning salmoqli o'rni, istiqloq yillari o'zbek harbiy terminologiyasida yuz bergan jarayonlar haqida ma'lumot berishdan iborat.

Fanni o'qitishda "O'zbek harbiy terminologiyasi" fanining vujudga kelishi va rivojlanishi bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish va mustahkamlash, talabalar va tinglovchilarda o'zbek harbiy terminologiyasi bo'yicha boshlang'ich bilim ko'nikmalarini hosil qilish, harbiy qurilishda ro'y beradigan har qanday o'zgarishlarning terminologiyada yaqqol ifodasini topish, o'zbek harbiy terminologiyasi tizimining dastlab qadimgi turkiy til (VII-X) bitiklarida ko'zga tashlanishi, uning eski turkiy til (XI-XIV) va eski o'zbek adabiy tilida (XV-XIX) miqdor va sifat jihatdan o'sib borishi, hozirgi o'zbek adabiy tilida tub o'zgarishlarga uchragani, uning sof turkiy (o'zbekcha) hamda o'zlashma (arabcha, forsha, mo'g'ulcha, ruscha-baynalmilal) qatlamlardan iboratligi, terminlarning ma'noviy qurilishi, tizimda qo'llanayotgan o'zlashma terminlarni asl o'zbek(turk)cha muqobillari bilan almashtirish yoxud o'zbek tilining so'z yasash imkoniyatlaridan unumli foydalanib, mavjud tushunchalarni ifodalashga qodir terminlar hosil qilish haqida bilim berish singari vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi.

Ushbu o'quv qo'llanma harbiy terminologiya sohasida nafaqat respublika, balki chet el tilshunoslari tomonidan yaratilgan lug'atlar, monografiyalar, qo'llanmalar, yoqlangan dissertatsiyalar asosida tayyorlangan bo'lib, terminshunoslikka oid bilim va ko'nikmalarni egallashga qaratilgan. Mavzularni xronologik izchillik va tartib bilan joylashtirishda talaba va tinglovchilarning malakasi hamda fikrlash qobiliyatlari e'tiborga olingan.

O'quv qo'llanmada berilgan savol va topshiriqlar, testlar mavzularni interfaol metodlar hamda innovatsion texnologiya-



lar yordamida mustahkamlash uchun mo'ljallangan. Bo'limlar oxirida keltirilgan "Asosiy tushunchalar so'zligi", ya'ni glossariy o'zbek harbiy terminologiyasi tizimining shakllanish va rivojlanish bosqichlarida qo'llanishda bo'lgan istilohlar va ularning ma'no-mohiyati xususida tasavvur berishga qaratilgan.

Filologiya fanlari doktori, professor H.Dadaboyev va filologiya fanlari nomzodi, dotsent H. Yodgorov tomonidan tayyorlangan ushbu o'quv qo'llanma o'zbek harbiy terminologiyasining shakllanishi, rivojlanishi va hozirgi holati xususida bilim beruvchi ilk manba sanaladi.



BIRINCHI BO'LIM





HARBIY MANSAB, LAVOZIM VA UNVONLARNI IFODALOVCHI TERMINLAR

Reja:

1. Qurolli Kuchlarning shakllanish omillari.
2. Harbiy terminlar tizimining voqelanishi.
3. Harbiy mansab nomlarining rivojlanish bosqichlari.

Asosiy tushunchalar: *alamboshlar, askariya boshlug'i, bahodur (botur) boshi, general, generalissimus, dahboshi, mir-oxur, yasavulboshi, yefreytor, yuzboshi, leytenant, marshal, panjaboshi, pansodboshi, sada umarosi, serjant, suboshi, tavochi, tumanbegi, to'qsoba, qarovulbegi.*

O'rxun-Enasoy runik bitiklari, xitoy va arab muarrixlari qalamiga mansub tarixiy asarlar shundan dalolat beradiki, qadimgi turkiy qabila va urug'lar ko'pdan-ko'p harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etgan. Harbiy ish, ko'pgina xalqlarda bo'lgani kabi ko'k turklar uchun ham umumxalq xarakterga ega edi. Ular juda yoshlikdan harbiy ish bilan shug'ullana boshlagan. Harbiy mashg'ulotlar har bir fuqaro uchun majburiy hisoblangan. Natijada harbiy qurilish, harbiy ish va harbiy san'at bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi terminlar tizimi qadimgi turkiy tilda vujudga kelgan va faol qo'llangan.

Ma'lumki, VI asrning ikkinchi yarmida *elxon* unvoni bilan shuhrat topgan Bumin (Xitoy yodnomalarida Tumin) qag'an rahbarligida Jujan xonligiga qarshi olib borilgan milliy ozodlik ruhida siyosiy kurash muvaffaqiyat bilan yakunlanadi va 744-yilga qadar hukm surgan Ko'k turk xoqonligiga asos solinadi. Xoqonlik asosini turkiy urug'-qabilalar tashkil qilardi. Ob'yektiv sabablar bois 582-yili Sharqiy va G'arbiy Turk xoqonliklariga bo'linib ketgan saltanat o'zining salkam ikki asrlik tarixi davomida chegaradosh davlatlar, ayniqsa, Xitoy va Eron bilan ko'p marotaba to'qnashgan. Son-sanoqsiz savashu to'qishlar harbiy strukturaning taktik-strategik, tashkiliy jihatdan takomillashuviga, rivojlanishiga zamin yaratgan.

Harbiy lavozim va rutbalarning eng cho'qqisida oliy bosh qo'mondon vazifasini bajaruvchi *qag'an*, ya'ni davlat boshlig'i turgan. Aksariyat vaziyatlarda qag'anning shaxsan o'zi *su* – lashkarga sardorlik qilgan, harbiy yurishlarda faol ishtirok etgan. Qadimgi turkiy yozma obidalardan biri Kul tegin bitiktoshida Ikkinchi Ko'k turk xoqonligi (682-744)ning asoschisi Eltarish (asl ismi Qutlug') qag'anning 47 marta harbiy safarlarda qatnashganligi, 21 jangda shaxsan qilich chopganligi qayd etilgan. Aynan mana shunday jang-u jadallar qag'an hokimiyatining yanada mustahkamlanishiga olib kelgan. Aytilayotgan fikrning dalili sifatida Eltarish qag'anning to'ng'ich o'g'li Mo'g'ilon, ya'ni Bilga qag'anning sarkardalik faoliyati orqali hukmdorlik shohsupasiga ko'tarilganini misol tarzida keltirish mumkin. Ko'k turk xoqonligida *qag'an* va *tegin* (xonzoda, taxt vorisi) singari harbiy-ma'muriy mansablardan so'ng *yabg'u* (*jabg'u*) hamda *shad* (xitoy solnomalarida *sha*) rutbalari eng oliy harbiy lavozim hisoblangan. Harbiy sarkardalar sifatida *yabg'u* va *shad* qo'shinning o'ng va so'l qanotlariga qo'mondonlik qilgan. Bu lavozimlarga faqat hukmron sulola avlodiga mansub shaxslargina tayinlangan.



Xitoy muarrixlarining ta'kidlashicha, Buminning o'g'li Mug'anxon davrida *yabg'u* (xitoy obidalarida *shexu*) hukmdordan so'ng davlatdagi mavjud oliy harbiy-ma'muriy mansablarning birinchisi tarzida faoliyat ko'rsatgan. G'arbiy Ko'k turk xoqonligi (582 – 630)da *yabg'u* davlat boshlig'i va oliy bosh qo'mondon ma'nosini bildirgan. IX asr muarrixi Abu Ja'far Muhammad at-Tabariyning "Tarixi Tabariy" asarida yozilishicha, Movarounnahrning Qutayba ibn Muslim tomonidan zabt etilishi paytida Toxariston hukmdori Ash-Shaz *jabg'u* unvonini egallab turgan¹.

E'tirof etish kerakki, Birinchi Ko'k turk xoqonligi (552-630) barpo bo'lgunga qadar ashina urug'iga mansub qadimiy turklar elida eng oliy harbiy-ma'muriy unvon *yabg'u* sanalgan². Xoqonlik tashkil etilgach, davlat boshlig'i *qag'an*, uning noibi esa *yabg'u* istilohlari bilan atala boshlagan. 552-yili jujanlar ustidan uzil-kesil g'alaba qozonilib, Ko'k turk xoqonligiga asos solinganidan keyin *yabg'u* unvonini egallab turgan Buminga *qag'an*, G'arbiy Ko'k turk xoqonligining tashkilotchisi Istami (577-yili vafot etgan)ga esa bahodir – *alp jabg'u* unvoni berilgan edi.

Shad yuqori harbiy-ma'muriy rutbalardan biri sanalgan. Bu unvon turk qabilalari va urug'lari ichida juda qadimdan mavjud bo'lib, uni dastlab Nadilu va uning o'ninchi farzandi Ashina olgan. Odatga ko'ra, *shad* unvoni hukmdor, ya'ni *qag'an* urug'idan bo'lgan shaxslarga nasib qilgan. Bilga *qag'an* bitiktoshida zikr etilishicha, Eltarish *qag'an* vafotidan so'ng hokimiyat uning inisi Qapag'anxon qo'liga o'tadi. Qapag'anxonning xoqonlik yillarida uning jiyani Mo'g'ilon, ya'ni Bilga *qag'an* tardush xalqining shadi-sardori etib tayinlanadi hamda saylanma harbiy qismlarga lashkarboshilik qiladi. Xitoy obidalarida qayd etilishicha, 634-

¹ История ат-Табари. – Т.: "Фан", 1987. – С. 129.

² Материалы по истории туркмен и Турмении. Т. 1. VII– XV вв. – М.: – Л.: 1939. – С. 219.



yili G'arbiy Ko'k turk xoqonligi taxtiga o'tirgan Ishbara To'lishshadxon qo'l ostidagi yurtni o'n qism – *aymoqqa* taqsimlaydi. Har bir aymoqqa bir shadni bosh qilib, ularga bir donadan o'q beradi. Shundan so'ng o'ng va so'l qanotlarga bo'lingan bu aymoqlar *o'n shad* hamda *o'n o'q* nomlari bilan yuritilgan.

Ta'kidlash joizki, Ko'k turk xoqonligida *yabg'u* va *shad* unvonlari merosiy hisoblanib, ularning egalari aksar hollarda keyinchalik *qag'an* – hukmdor kursisini egallagan.

Xoqonlikda harbiy maslahatchi mansabi mavjud bo'lib, u *ayg'uchi* istilohi bilan yuritilgan. Eltarish *qag'an*, Qapag'anxon, Bilga *qag'an* hukmronligi zamonida bu mas'uliyatli lavozim Ikkinchi Ko'k turk xoqonligining tarkib topishida ulkan xizmatlar qilgan dono siyosatchi, yetuk diplomat, mohir sarkarda To'nyuquqqa nasib etgan.

Yirik sarkardalar, iste'dodli qo'shin qo'mondonlariga sharaflari *subashi* unvoni berilgan. Bu oliy harbiy unvonga saltanat oldidagi buyuk xizmatlari, lashkarboshilik salohiyati bilan dong taratgan sarkardalargina loyiq ko'rilgan. Ikkinchi Ko'k turk xoqonligida Kul tegin, Mo'g'ilon, Inal *qag'an* (Qapag'anxonning ukasi) singari lashkarboshilar *subashi* unvoni bilan sharaflangan.

Xoqonlikda mavjud yuqori harbiy rutbalardan yana biri *apa tarqan* bo'lib, u oliy bosh qo'mondonning buyruqlarini kerakli joylarga zudlik bilan yetkazish va ularning ijrosini nazorat qilish bilan mashg'ul edi.

Ma'lumki, xoqonlik ko'pgina urug'-qabila, elat va xalqlarning federativ asosda birikuvidan tashkil topgan. Harbiy harakatlar chog'ida urug'-aymoq tomonidan safarbar qilinadigan harbiy kuchlarga shu urug' yoki aymoqning sardori – *beg* rahbarlik qilgan. Xoqonlik tarkibida bo'lgan o'lka va viloyatning qo'shinlari harbiy ma'mur – *tutuqlar* tomonidan boshqarilgan. *Qag'an* tomonidan o'lka, viloyat hokimligiga tayinlangan *tudun* (*tutun*)



lar ham harbiy harakatlarda faol qatnashgan. Xitoy tarixiy manbalarida G'arbiy Ko'k turk xoqonligi hukmdorlaridan biri To'nga yabg'u qag'an o'z tasarrufida bo'lgan viloyat hokimlariga *sillig'* (xitoycha *silifa*) unvonini bergani va ularning faoliyatini nazorat qilish hamda solig'-u o'lponlar yig'ish vakolatiga ega bo'lgan *tudun* // *tutun*larni viloyatlarga jo'natganligi qayd etilgan.

O'rxun bitiktoshlarida avval mustaqil bo'lgan, keyinchalik Ko'k turk xoqonligi tarkibiga kiritilgan, ayni zamonda, o'z boshqaruv huquqini saqlab qolgan qarluq, uyg'ur, az kabi urug' va qabilalarning boshliqlari *eltabar* unvoni bilan atalgan. Eltabar xuddi beg, tudun yoki tutuqlar singari qag'an askarlari bilan birgalikda yoki o'z holicha alohida harbiy harakatlarda qatnashgan.

Hukmdordan boshqarish uchun mulk olish huquqiga ega bo'lgan harbiy zodagonlar, o'z navbatida, mamlakat harbiy kuchlari uchun askar yetkazib berishgan. Safarbar qilinadigan jangchilarning soni muayyan boshliq tomonidan egallab turilgan mulkning katta-kichikligiga bog'liq bo'lgan.

Yurish oldidan xoqonlikning turli viloyatlaridagi qo'shin boshliqlari, tobe yurt sardorlari lashkar yig'ish haqida maxsus farmon – *yarlig'* olgan. Farmonga binoan har bir viloyatning hokimi, tuman, shahar beklari, qal'a, qo'rg'on boshliqlari qag'an tomonidan belgilangan ro'yxatga muvofiq o'z otliq askarlari, qurol-yarog'i, oziq-ovqati, yem-xashagi bilan oliy bosh qo'mondon tomonidan belgilab qo'yilgan joyda hozir bo'lgan.

X asrning oxirida Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Koshg'arda Qoraxoniylar davlati yuzaga keldi. Ushbu turkiy sulolaning kuchli zarbalariga dosh berolmagan Somoniylar saltanati 999-yilda Movarounnahrda siyosat sahnasidan ketishga majbur bo'ldi. Ayni shu davrda turli lahja va shevalar asosida qardosh turkiy adabiy tillar, chunonchi, o'zbek adabiy tili shakllanishning navbatdagi bosqichiga qadam qo'ydi.



Poytaxti O'rdukent (Koshg'ar), yirik markazlari Quzo'rda (Balasog'un), O'zkent, Samarqand singari shaharlar sanalgan davlat Yuqori Chindan to Kaspiy dengizigacha yastangan bepoyon maydonni o'z qo'l ostiga kiritdi, bu hududlarda ilm, fan, ma'rifat, madaniyat yanada rivojlandi, talay falsafiy, diniy, ilmiy, ma'rifiy, axloqiy asarlar dunyo yuzini ko'rdi. Tabiiy, bunday keng mintaqada markazlashgan, mutlaq hukmdor qo'l ostiga birlashgan feodal mamlakatni barpo etish, uni har tomonlama mustahkamlash, boshqarish, jamiyatda mavjud qarama-qarshilik, ziddiyatlarga chek qo'yish, qudratli harbiy kuchlarga ega bo'lish singari vazifalar boshqa davlatlar kabi Qoraxoniylar oldida turgan, amalga oshishi haddan tashqari murakkab va qiyin orzu edi. Ma'lumki, har bir davlatning mudofaa qobiliyati uning iqtisodiy, siyosiy, harbiy, ilmiy va ma'naviy imkoniyatlari negizida shakllanadi. Davlat mudofaa qobiliyatining eng muhim sohasi uning qurolli kuchlari hisoblanadi.

Qoraxoniylar hukmronligi vaqtida o'zbek tili harbiy terminologiyasida ham sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. VII–X asrlarda qo'llanishda bo'lgan qadimgi turkiy tilga xos istilohlar bilan yonma-yon yangi tushuncha va ma'nolarni ifodalovchi terminlar muomalaga kirib keldi. Qoraxoniylar saltanati qurolli kuchlari tizimi va qurilishi xususida ma'lumotlar asosan 1069-1070-yilda Yusuf Xos Hojib tomonidan bitilgan "Qutadg'u bilig", 1074-1076-yillarda Mahmud Koshg'ariyning sa'y-harakati tufayli yuzaga chiqqan "Devonu lug'otit turk" asarida o'z aksini topgan.

Izlanishlar Ko'k turk xoqonligi qo'shinidagi harbiy mansab, lavozim va unvonlarni anglatishga xizmat qilgan istilohlarning aksariyati Qoraxoniylar davrida qo'llanishda davom etganligini ko'rsatadi. Qoraxoniylar saltanati va qurolli kuchlariga boshchilik qilgan *xoqon* (Ko'k turklar saltanatidagi *qag'an* istilohining fonetik shakli) sarkardalar va qo'mondonlarni muayyan



lavozimga tayinlagan yoxud ularni egallab turgan mansabidan bo'shatgan. Xoqon Qoraxoniylar qo'shinining oliy bosh qo'mondoni va tashkilotchisi sifatida harbiy harakatlar hamda yurishlarga bevosita rahbarlik qilgan. Atoqli turkiyshunos K.Menges turkiylar *qag'an*(xoqon) istilohini juan-juanlardan o'zlashtirishgan, degan fikrni ilgari surgan³. *Xoqon* istilohining etimologiyasi, ya'ni kelib chiqishini ko'pchilik olimlar xitoycha *ke* "buyuk, ulug'" va *kuan* "hukmdor" so'zlariga bog'lashadi.

Qoraxoniylar davlati bir qator uluslardan tashkil topgan bo'lib, ular *elig* yoki *eligxon* istilohlari yordamida anglashilgan shaxslar tomonidan boshqarilgan. *Elig* harbiy harakatlarda o'z ulusidan yig'ilgan lashkarga sardorlik qilgan. Keyingi sulolalar qo'shinida ushbu istiloh qayd etilmaydi.

Qoraxoniylar saltanati tarkibidagi urug'lar va qavmlar ittifoqi boshliqlari *xon* istilohi bilan atalgan. Oliy bosh qo'mondonga beistisno bo'ysungan xon o'ziga tegishli hududdan to'plangan askarlarga lashkarboshilik qilgan va yurishlarda faol qatnashgan.

Ko'k turk xoqonligi qo'shinida keng qo'llangan *yabg'u* istilohi Qoraxoniylar davri harbiy terminlar tizimida *yavg'u* va *yafg'u* fonetik shakllarida oliy harbiy-ma'muriy mansablardan birini ifodalashda davom etgan.

Shu o'rinda, akademik V.A. Gordlevskiyning Saljuqiylar davlatida ayrim qadimgi turkiy harbiy martabalarining saqlanib qolgani, chunonchi, *yabg'u* va *shadlar* qo'shinining o'ng hamda so'l qanotlariga boshchilik qilgani xususidagi mulohazasini keltirish o'rinli⁴.

"Buyruqdor, buyruq beruvchi" ma'nosini ifodalash uchun *buyruq* va uning *biruq* fonetik shaklidan foydalanilgan. Ma'lum-

³ Менгес К.Г. Восточные элементы в "Слове о полку Игореве" – Л. 1979. – С. 110.

⁴ Государство Сельджукидов Малой Азии. Изб.соч. Т. I. М., 1960. – С. 51.



ki, keyingi davrda *buyruq* istilohi faqat "hukm, buyruq" ma'nosini ifodalashga xoslangan.

Ko'k turk xoqonligida "harbiy gubernator" ma'nosida ishlatilgan *tutuq* istilohi Qoraxoniylar zamonida o'z mavqeini yo'qotgan va kishi ismining tarkibiy qismi sifatida qo'llangan.

"Lashkarboshi, qo'mondon" ma'nosining Qoraxoniylar davriga doir manbalarda bir qator ma'nodosh istilohlar bilan ifodalangani kuzatiladi. Xususan, qadimdan qo'llanishda bo'lgan asl turkiy *suboshi* termini qatori forscha-tojikcha *sipohsolor* // *isfohsolor* o'zlashmasi ham harbiy terminlar tizimidan mustahkam o'rin olgan va keyinchalik G. Dyorfer tomonidan "marshal" tarzida o'girilgan *suboshi* // *suboshchisi* terminini iste'moldan siqib chiqargan⁵.

V.V. Bartoldning e'tirof e'tishicha, Somoniylar davrida saltanatdagi oliy harbiy martaba *sipohsolor* unvoniga ega Xuroson hokimiga tegishli bo'lib, u Nishopurda turgan va saltanatning Amudaryodan janubdagi viloyatlarini boshqargan⁶.

Qoraxoniylar saltanatida harbiy ta'limot va harbiy ishga favqulodda ahamiyat qaratilgani Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida yaqqol aksini topgan. Ta'kidlash joizki, asarning 27-37-boblari davlat qurilishi va boshqaruvi usullari xususidagi yo'l-yo'riq hamda pandlarga bag'ishlangan. "O'gdulmish eligga sarkarda, sipohsolor qanday bo'lishi kerakligini aytadi" sarlavhali 30-bobga Qoraxoniylarning harbiy nizomnomasi tarzida baho berish o'zini to'la oqlaydi. Zero, bobda davlat hududiy birligini ta'minlash, tashqi kuchlar tahdidini bartaraf etish, el-yurt chegaralarini himoya qilishga qodir qo'shin (*su, erat, cherig*)ni tarkib toptirish, uni qurol-yarog', aslaha (*to'lum*) bilan ta'min-

⁵ Doerfer G. Turkische und mongolische Elemente im Neupersischen. Bd.II. Wiesbaden, 1965. – S. 430.

⁶ Бартольд В. В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. Т. Ч. I. – М., 1963. – С. 288.



lash singari strategik, jangohni tanlash, unda lashkar saflarini tartibga solish, jang olib borishda turli usullarni qo'llash kabi taktik omillarga jiddiy e'tibor berilgan.

Elni idora qilish, uning mustahkamligi, tub ildizi ikki narsa, ya'ni xalqqa (*bo'dun*) adolat baxsh etish hamda qo'shinni vaqtida mablag' (*mol*) bilan ta'minlash zarur sanalgan. Davlatning harbiy qudrati, jangovar qobiliyatining talab darajasida bo'lishi bir qator omillarga bog'liq bo'lgan.

Birinchidan – lashkarni boshqarish, tartibga solish, yov kuchlarini mahv etish o'ta sharafligi, ayni chog'da, o'ta mas'uliyatli va og'ir vazifa bo'lib, unga yetuk, ziyrak, pishiq (*qurch*), chidamli (*qatig'*), botir (*alp*), mard (*to'ng yurak*), ochiq qo'l (*aqi*), xulqi barqaror kishilar loyiq, deb qaralgan. Lashkarboshi (*suboshi*, *suboshlar*, *sipohsolor*)ning qo'rqmas va jasoratli bo'lishi zarur sanalgan. Chunki yuraksiz lashkar lashkarboshining jasoratidan ibrat oladi, yurakli, bahodir jur'atsizlarga bosh bo'lsa, barcha kishilar yurakli bo'ladi. Ochiq qo'l, saxiy askarboshi atrofida sara jangchilar (*er o'drum*), bahodir va mardlar (*ersig eran*) yig'iladi, el-yurt yo'lida jonlarini fido qiladi. O'ta dov-yurak (*ko'kuzlug*) va aqlli (*o'glug*), yurakli hamda jasur (*ko'n-gullug*) sarkarda shu bilan birga or-nomusli (*uvutlug'*) bo'ladi, or-nomusi uchun dushman bilan to'qnashadi, sanchishadi, o'ch olishdan qaytmaydi, halokatga uchrasa ham urushib, kurashib jon beradi. Yuraksiz (*uvutsuz*), qo'rqqoq (*qo'rqliq*) lashkarboshi lashkarni buzadi, lashkar buzilsa, yov hujumga o'tadi, natijada, lashkar parokandalikka yuz tutadi, undan sabr-matonat yuz o'giradi.

Qo'shin yaxshi xulqli, ko'ngli ochiq sarkardani ma'qul ko'radi, uni qadrlaydi, aksincha, tili achchiq, jaholatli kishi askarni o'zidan qochiradi. Mutakabir askarboshi g'afatda qoladi, g'o-fillik uni oxir barbod qiladi. Lashkarboshining salobatli, xush-ro'y, nomi chiqqan, dong'i ketgan, mashhur bo'lishiga alohida



diqqat qaratilgan. Zotan, shon-shuhratli kishi ortidan lashkar ahli ergashadi, unga ishonadi, buyrug'ini bekam-u ko'st bajaradi.

Ikkinchidan – sarkardaning himmati ulug', tunlarni bedor o'tkazish, askarlarga beriladigan oziq-ovqati mo'l-ko'l, qurol-ya-rog'i, mingan tulpori uning erishgan martabasiga mos tushishi zarur hisoblangan. Sarkarda qilajak ishlarini oldindan ishlab chiqilgan puxta rejaga tayangan tarzda amalga tatbiq etishi, so'zi bilan amali mos kelishi, yolg'ondan yiroq yurishi, baxillikdan qochishi, shijoatli, jang olib borishda makr-hiyla (*al*) qo'llashi, lashkarni shahdamlik bilan harakatlantira olish iste'dodiga ega bo'lishi talab qilingan. Bunday qo'mondonning qo'shinni boshqarishi muvaffaqiyatlar garovi sifatida belgilangan.

Uchinchidan – qo'shinning soni iloji boricha oz bo'lishi, u asosan sara jangchilardan tashkil toptirilishi, sara jangchilar zarur qurol-aslaha bilan to'la-to'kis ta'minlanishi davlat siyosatining diqqat markazidan o'rin olgan. Lashkarning me'yordan ortiqligi beboshlikka, tartibsizlikka, beboshlik va tartibsizlik esa o'z navbatida askarlarning qo'rqqoqlikka, jur'atsizlikka olib kelishi ehtimoldan xoli bo'lmagan. Behisob to'qnashuvlarda chiniqqan, ko'plab zafarlar quchgan lashkarboshi uchun to'rt ming askar yetarli bo'lgan. Zero, betartib ko'p askardan tartibli, intizomli oz ahli jang yaxshi hisoblangan. Qolaversa, ulkan lashkarni boshqarish muayyan muammolar, qiyinchiliklarni tug'dirgan, talaygina buzuqlik hamda boshboshdoqliklarning sodir bo'lishiga zamin yaratgan.

To'rtinchidan – yovga qarshi otlangan askarboshi dushmani sindiruvchi, mag'lub etuvchi kishilarni o'ziga yaqin tutishi kerak bo'lgan. Zero, jangning qanday yakunlanishi aynan qahramon, mard askarlarning sa'y-harakatiga bog'liq bo'lgan. Yurish chog'ida ilg'or qism (*yazak*) va ayg'oqchi guruh (*tutg'aa*) tarkibi sara, tajribali jangchilardan tanlanishi, ayg'oqchilar kel-



tirgan ma'lumot asosida ilg'or qism g'animga zarba berishi, qo'shinning bosh kuchlari soqchi otliq qism (*yo'rtug'*) bilan ehtiyot qilinishi, askariy saflar bir-biridan uzoqlashib ketmasligi, lashkargoh (*tushun*) tanlashga alohida e'tibor qaratilishi, u soqchi otliqlar guruhi bilan ehtiyot qilinishi, hushyorlikni qo'ldan bermaslik, g'aflatda qolmaslik singari vazifalar belgilangan.

Beshinchidan – janggohni tanlashda uning mustahkamligi, tekisligi, o't va suv manbasiga yaqinligi muhim sanalgan. Qo'shin janggohda tartib bilan joylashgach, uning atrofi ihota qilinishi, til oldirmaslik, ya'ni lashkarning adadi, oz-ko'pligidan yovning ma'lumotni qo'lga kiritishiga yo'l qo'ymaslik, o'z navbatida, ayg'oqchilar yo'llab, yov lashkaridan uning sonini aniqlash, jangoldi taktikasini bilish maqsadida til olish zarur hisoblangan.

Oltinchidan – dushmanni yengish (*sanchish*) da ikki usuldan unumli foydalanish ko'zda tutilgan. Eng avval yovga nisbatan hiyla (*al*) qo'llash, so'ng soqlik va hushyorlikka qat'iy rioya qilish talab etilgan. Zotan, soq va hushyor kishi, shubhasiz, o'zi boshqarayotgan qo'shinni ehtiyot qiladi, g'animga kulfatlar keltiradi. Yov kuchlari miqdor jihatdan ortiq bo'lgan taqdirda, uni birinchi bo'lib hujumga tashlanishga majbur qilish ma'qul topilgan. Chunki hujumga otlangan tarafning doim ko'p talafot ko'rishi harbiy san'atida isbotini topgan. G'animga bilan yarashishning imkoniyati paydo bo'lgan kezda undan foydalanish, sulh (*yarashg'u*) ga kelishning chorasi bo'lmagan paytda sovut kiyib (*variqlan-*), belni mahkam bog'lab olishish tavsiya etilgan. Mabodo, yovni mag'lub etish (*bosg'u*) ning iloji topilmas ekan, elchi (*yalavoch*) yuborib, bitimga kelishni taklif qilish, g'animga yon bermasdan, qasd qilishni davom ettirsa, vaziyatni cho'zmay, qo'shinga bosh bo'lib, ularni g'alabaga rag'batlantirgan holda savash (*to'qush*) ga kirish zarur sanalgan.



Yettinchidan – jang boshlanishi bilan yovga alangadek yopirish, oldindan o'ylab qo'yilgan rejaning oshkor bo'lmasligini ta'minlash, uni dushman payqab qolishidan ehtiyot bo'lish, shikastga uchramaslikning oldini olish uchun jangni cho'zmaslik, uni paysalga solmaslik zarur hisoblangan. Savash paytida piyoda yoychi (*yadog' o'qchi*) lardan tashkil topgan qismni pistirma (*pusug'*) ga qo'ygan sarkarda safning old (*olin*) idan o'rin olishi, askarlarga dalda bo'lish maqsadida juda jangovar (*yog'ichi*), o'ta tadbirkor (*ersig*), yoshi ulug' (*urung*), tajribali bahodirlarni qo'shinning oldingi qatoriga, qiziqqon, tez, ayni chog'da, ur-yiqitda ba'zan o'zlarini yo'qotib qo'yadigan kichik yoshdagi askarlar (*kichig qur yigit*) ni ularning ortiga, ishonchli, sinalgan kishilarni esa yasolning ham old (*o'ng*), ham ort (*ked*) ga joylashtirish o'zini oqlagan.

Har ikki tomon saflari bir-biriga ro'para kelib, g'animga hujumga tashlanganda unga munosib ravishda kurashish, qarshilik ko'rsatishga qodir o'g'lonlarni jangga kiritish, yaqinlashayotgan dushmanni, eng avval, uzoqdan o'qqa tutish, saflar aralashib ketgach, nayza (*sungu*), shamshir (*qilich*), oybolta (*boldu*) bilan jang qilish belgilangan. Jang natijasini aksariyat hollarda pahlavon, botir, mard askarlarning shaxsiy matonati, shijoati, qahramonligi hal qilgan. Shu bois qo'rqmas botirlarga o'zgacha hurmat-e'tibor ko'rsatilgan.

Sakkizinchidan – siquvga bardoshi qolmagan yov o'rnidan siljigan, ya'ni janggohdan yuz o'g'irgan kezda fursatni boy bermasdan uni ta'qib etib, izidan borish, quvib yetish, qo'lga tushirish yoki butunlay yakson qilish, shu bilan birga, o'zidan asir oldirib qo'ymaslik chorasi ko'rilgan. Firor yo'lini tutgan dushman ortidan uzoq borish ayrim hollarda pand berishi mumkin bo'lgan. Zotan, asosiy qismlardan yiroqlashib ketgan ta'qibchi guruh o'z saflarini qayta tiklab, qarshi hamlaga o'tgan g'animga oldida tang ahvolga tushgan, charchagani, toliqqani bois unda asosiy qismlarga qo'shilish ehtimoli pasaygan.

To'qqizinchidan – janglarda matonat, qahramonlik namunalarini ko'rsatgan kishilarni munosib taqdirlash, ularga turli in'omlar berish, oltin, kumush va mollar ulashish, ko'pchilik oldida ularni maqtash, mansabi, rutbasini ko'tarish, turli lavozimlarga tayinlashga jiddiy e'tibor berilgan. In'om, mukofotga munosib topilgan, alqangan mardning qo'li doim baland bo'lgan, boshqalar undan ibrat olgan.

O'ninchidan – muhorabada yaralangan yoki jarohat olgan (*baliqimish*)larni davolash, asir tushgan(*bulun*)larni evaz berib qutqarib olish, halokatga uchraganlarning hurmatini joyiga qo'ygan holda dafn qilish, ularning o'g'il-qizlari bo'lsa, badalini berish davlatning burchi tarzida tan olingan. Bunday marhamat, e'tibor sarboz(*erat*)larning sevinchi, el-yurtga, qolaversa, lashkarboshiga nisbatan ishonchining oshishi, jang paytida shirin jonining fido qilinishiga ham turtki bo'lgan.

Ko'rilayotgan davrda turli harbiy qism qo'mondonlari arabcha *amir* o'zlashmasi yordamida ifodalangan. Dastlab amirlar sirasiga harbiy tabaqa vakillari xos bo'lgan, keyinchalik ular noharbiy mansablarni ham qo'lga kiritishgan. G'aznaviylar saltanatida davlat boshlig'i *amir* deb yuritilgan.

Saltanatda mudofaa maqsadida qo'rg'on, qal'a, hisor singari inshootlar mavjud bo'lgan va ular harbiylar tomonidan boshqarilgan. Chunonchi, qal'a, qo'rg'on boshliqlari sanskritcha *kutvol* istilohi bilan ifodalangan. Kutvollar qal'a yoki qo'rg'onning mustahkamligi, uning qalin, keng va baland devor bilan o'ralgani, unda burj hamda borularning mavjudligi, istehkom atrofining chuqur, keng handaq yordamida ihota qilingani, muhofaza uchun kerakli miqdordagi askariy qo'shinning tayyorgarligi singari vazifalarga mas'ul sanalgan. Yurish chog'ida *kutvol* oliy buyruqda ko'rsatilgan sondagi qismning sardori sifatida qatnashgan. Yurtning viloyatlari *voliy* – general-gubernatorlar tomonidan idora qilingan. Voliyning qo'l ostida viloyatning noharbiy ma'murlari



hamda harbiy boshliqlari mujassam bo'lgan. Voliyning ixtiyorida harbiy vakillar rahbarligidagi otliq va piyoda qo'shinlar turgan. Bu qo'shinlar muntazam harbiy bo'linma, qism va garnizon hamda nomuntazam guruhlardan tashkil toptirilgan. Voliy nafaqat qo'mondon va askarlarning shaxsiy tarkibi, balki muayyan mulkka ega qiluvchi harbiy va noharbiy mansabdorlar sanog'ini olish, ko'rik va nazorat o'tkazish ishlariga rahbarlik qilgan.

Qo'shinning jangovar safi, ya'ni yasoli nisbatan quyi harbiy mansab egasi *chavush* tomonidan tartibga solingan. *Chavush* janggohni tanlash, qo'shin qismlarining unda tartib-intizomni o'rnatish masalalariga javobgar hisoblangan. Qo'shinning tekis, keng ma'rakagohda joylashishi, janggohga ichimlik suvi manbasining yaqin bo'lishi, jang paytida quyoshning askarlar ko'ziga tushmasligi askariyat muhorabaning zafarli yakun topishiga bois bo'lgan.

Ko'k turk xoqonligi harbiy terminologiyasida qo'llangan ba'zi istilohlar Qoraxoniylar davrida ma'nosini o'zgartirgan yoxud qo'llanishdan chiqib ketgan. Xususan, Ko'k turk xoqonligida "lashkarboshi, sarkarda" ma'nosini anglatgan *yog'ichi* istilohi Qoraxoniylar qo'shinida "jangovar, qahramon" ma'nosini kasb etgan. "Harbiy maslahatchi" ma'nosidagi *ayg'uchi* istilohi ham harbiy leksikondan chiqib ketgan va o'z o'rnini sof o'zbekcha *kengashchi* yasamasiga bo'shatib bergan.

Qoraxoniylar qo'shini qo'mondonlar tarkibini shakllantirgan *suboshi*, *sipohsolor*, *amir*, *voliy* singari harbiy mansab egalari shaxsan saltanat hukmdori xoqon, ulus boshlig'i elig yoki xonga bo'ysungan. Sarkardalar tarkibi nafaqat oqsuyak zodagonlar, balki omma ichidan yetishib chiqqan shaxslardan iborat bo'lgan.

Qoraxoniylar davrida faoliyat yuritgan harbiy-sulolaviy a'yonlar nafaqat rasmiy martabasi, darajasi, shuningdek, ijtimoiy kelib chiqishi jihatidan ham farqlangan va ko'p hollarda o'z xohish-u irodasini hukmdorga o'tkazishga harakat qilgan.



Chingizxon boshliq mo'g'ul istilochilarining kuchli zarbalari ostida Xorazm va Movarounnahrda siqib chiqarilgan Sulton Jaloluddin XIII asrning 20-yillarida Shimoliy Hindiston, Afg'oniston, Eron, Kavkazorti, Iroq yerlarida qisqa muddatga bo'lsa-da, ajdodi Anushtegin (hukmronlik davri 1077–1079) asos solgan Xorazmshohlar saltanatini o'rnatishga muvaffaq bo'lgan edi. Askariy kuchlarning mavqei o'ta yuqori sanalgan Jaloliddin saltanatida *devon ul-jaysh* yoki *devon ul-ard* mavjud bo'lib, harbiy zodagonlarga beriladigan iqtolarni boshqarish, oddiy jangchidan tortib, oliy mansabli sarkardalarga tayinlangan oylik maosh va nafaqalarni o'z muddatida to'lash, qo'shin (*jaysh*)ning tarkibiy qismi hamda qurol-yarog'ini nazorat qilish kabi vazifalarga mas'ul hisoblangan.

*Devon ul-jaysh*ning tepasida *sohibi devon ul-jaysh* yoki *oriz* turgan. Harbiy qurilish ishlari bilan bevosita shug'ullangan orizning o'lka, viloyat va shaharlarda noibi xizmat qilgan, vaziyat taqozo qilgan taqdirda oriz harbiy harakatlarda ishtirok etgan.

Jaloluddin tuzgan qo'shinda rang-barang harbiy mansab va unvonlar tizimi mavjud bo'lgan. Shihobuddin Muhammad an-Nasaviyning Sulton Jaloluddin hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan asarida so'nggi Xorazmshoh qo'shiniga rahbarlik qilgan quyidagi mansabdorlar tilga olingan. Alalxusus, bosh qo'mondonlik vazifasi *sipohsolorga*, qo'shinlar holatini nazorat qilish *nozir ul-jayshga*, yirik askariy qo'shilmalarning sarkardaligi *xon* va *amirlarga*, o'n ming otliqlardan tashkil topgan qismning qo'mondonligi *maliklarga*, viloyat va shaharning harbiy ishlari *voliy* va *shihnaga*, qal'a, qo'rg'on, hisor mudofaasi *kutvolga*, qurol-yarog' ombori mudirligi *silohdorga*, ov uyushtirish *amiri shikorga*, sulton otxonasiga boshchilik qilish *amiroxurga*, besh yuz kishilik askariy birlashma, bo'lukka sarkardalik qilish *sarhangga*, sultonning tan soqchilari rahbarligi *amir jondorga*, qo'shinning ilg'or qismini boshqarish *amir ul-yazakka*, qo'shin-



da bor jangovor bayroqlarni ko'tarib yurish, ularni ehtiyot qilish *amir ul-alamga*, lashkar son-sanog'ini olish *muhtasibga*, sulton bahodirlari, ya'ni tan soqchilariga maosh ulashish vazifasi *jamakdorga* topshirilgan⁷.

Xorazmshohlar qo'shinida mavjud qo'mondonlar pillapoya(ierarxiya)sini quyidagicha tasvirlash mumkin: *sulton* < *sohibi devon ul-jaysh*, *oriz* < *sipohsolor* < *nozir ul-jaysh* < *xon*, *amir*, *malik* < *voliy* < *silohdor* < *sarhang* < *amir jondor* < *amir ul-alam* < *muhtasib* < *jamakdor*.

Amir Temur, Temuriylar, Shayboniylar va Oltin O'rda xonlari harbiy martaba va mansablar pillapoyasi (quyi mansabdorning yuqori mansabdorga bosqichma-bosqich bo'ysunishi-ierarxiya) da turfa mansab, lavozim va unvonlar mavjud bo'lib, ularning muayyan qismi o'z vaqtida Chingizxon qo'shinida ham qo'llangan edi.

XIV–XVII asrlarga doir tarixiy-badiiy manbalarda “lashkar-boshi, sarkarda” ma'nosida arab tilidan o'zlashgan *amir* (qisqargan shakli *mir*, ko'plik shakli *umaro*) tez-tez ko'zga tashlanadi. Harbiy-ma'muriy istiloh sifatida *amir* Oltin O'rda va Movarounnahrda keng ishlatilgan.

Ijtimoiy kelib chiqishi nuqtai nazaridan amirlar beglar va bahodirlar singari harbiy zodagonlarning vakili bo'lib, odatda qarindoshlik jihatidan mo'g'ul xonlari bilan bog'lanmagan. B. Bartoldning ta'kidicha, O'rta Osiyoning o'troq aholisi sarkardalarni *amir*, ko'chmanchilar esa o'zbek(turk)cha *beg* yoki mo'g'ulcha *no'yon* istilohlari bilan ifodalangan⁸. Amir Temur saltanati tarixiga doir turkiy manbalarning aksariyatida *beg*, fors-tojik tilida bitilgan obidalarda esa *amir* termini faol qo'llan-

⁷ Шихаб ад-Дин Мухаммад ан-Насави. Жизнеописание Султана Джалал ад-Дина Манкбурны. Перевод с арабского, предисловие, комментарии, примечания и указатели З.М. Буниятова. – Баку: “Элм”, 1973.

⁸ Бартольд В.В. Улугбек и его время. Соч. Т. II. Ч. 2. – М.: 1964. – С. 64.



gan. Tarixdan yaxshi ma'lumki, XVIII–XIX asrlarda *amir* unvoni mang'itlar sulolasi hukmdorlariga nisbatan ishlatilgan.

Ko'k turk xoqonligi harbiy-ma'muriy qurilishida faol iste'mol qilingan *beg* istilohi Amir Temur, Temuriylar va o'zbek xonlari davlatida "hukmdor, mansabdor, to'ra, janob" ma'nolarini anglatgan.

Oltin O'rdada: 1) ulus, o'lka, viloyat beglari; 2) unvonli, unvon olgan beglar; 3) harbiylar (tumanbegi, mingbegi, yuzbegi, o'nbegi); 4) noharbiy (shahar) beglar toifasi mavjud bo'lgan. O'zbek xonliklarida *beg* muayyan hududiy birlikning harbiy va fuqarolik masalalari bilan shug'ullangan. V.A.Gordlevskiy turkiy *beglarbegi* unvonining arabcha *amir ul-umaroga* mos tushishi, qachonlardir uning Abbosiy xalifalar tomonidan buyuk Saljuqiy To'g'rulga berilgani, keyinchalik Rum Saljuqiylari o'z qudratlarini sezgach, ushbu unvonni (ba'zan *malik ul-umaro* shaklida) atoqli kishilarga berganliklariga diqqat qaratgan.

Ilk bor "Qutadg'u bilig"da qayd etilgan *beglarbegi* istilohi keyingi davrlarda ham o'z mohiyatini yo'qotgan emas. Chunonchi, Elxoniyalar davlatida to'rt ulus begi faoliyat yuritgan, ularning ulug'i, rahnamosi *beglarbegi*, ya'ni *amir ul-umaro* unvoni bilan sarafroz qilingan.

Jo'jixon ulusida *beglarbegi* yoki *amir ul-umaro* barcha harbiy ishlarni nazorat qilgan, beglar, amirlar, mingbegi, tumanbegilar uning rahbarligi ostida qolgan.

Sohibqiron qo'shinida *beglarbegi* (*amir ul-umaro*) bosh qo'mondon vazifasini bajargan va faqat Temurbekka bo'ysungan.

Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida Temurbek qo'shinida *ulug' bek*, *ulug' amir* (*amiri kabir*) singari harbiy unvonlarning mavjudligi qayd etilgan.

Xususan, Sohobqironning Sayfuddinbek, Nuruddinbek, Shohmalik, Jakubek, Xudaydodi Husayniy singari 49 nafar mashhur generallari ushbu faxriy unvonlarga sazovor bo'lish-



gan. Xiva xonligida *beglarbegi* "bosh bek", *amir ul-umaro* esa "bosh qo'mondon"ni anglatgan.

Mo'g'ullar istilosidan keyin turkiy tillar, chunonchi, o'zbek tili harbiy-ma'muriy istilohlari tizimidan mo'g'ulcha *no'yon* o'zlashmasi ham o'rin olgan va: 1) tuman boshlig'i, ya'ni 10 ming askardan iborat diviziya sarkardasi; 2) xonzoda; 3) atoqli mo'g'ul mansabdori ma'nolarida qo'llangan.

B.Ya.Vladimirsovning e'tirof etishicha, mo'g'ullarda *no'yon* unvoni meros hisoblangan va nomdor lashkarboshi (yuzboshi, mingboshi, tumanboshi)larga berilgan. Odatga ko'ra, no'yonlar Chingiziylar bilan qarindosh bo'lmagan, ular dastavval ulus boshlig'iga, undan so'ng Mo'g'ul imperatori, ya'ni oliy bosh qo'mondonga bo'ysungan. Amir Temur cherigida Burhon o'g'lon, Ilyosxoja va Jaloluddin Feruzshoh singari lashkarboshilar *ulug' no'yon* unvoni bilan sarafroz etilgan.

Movarounnahr hukmdorligi mo'g'ullar tomonidan Mahmud yalavochoqga berilgach, mo'g'ul harbiy guruhlar boshqaruviga *dorug'alar* tayinlangan.

Temuriylar saltanatida mahalliy sulola vakillari yoxud nomdor sarkardalarga davlat oldidagi xizmatlari evaziga *dorug'a* lavozimi berilgan va ular nafaqat qal'a, qo'rg'on yoki shaharning harbiy komendanti, shuningdek, muayyan hududning rahbari sifatida faoliyat yuritib, harbiy, fuqarolik va moliya masalalarida mas'ul hisoblangan. V.V.Bartold *dorug'*aning harbiy amaldor tarzida davlat soliqlarini undirish, aholini ro'yxatga olish, qo'shinga askarlarni qabul qilish, aloqa (pochta) bekat (yomxona)larini qurish, yig'ilgan soliqni davlat xazinasiga topshirish ishlari bilan mashg'ul bo'lganini ta'kidlaydi⁹. *Dorug'a* qal'a, qo'rg'on, shahar harbiy kommandanti ma'nosi bilan *kutvol* hamda *dizdor* istilohlari bilan ma'nodoshlik qatorini voqelantirgan.

⁹ Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. Т.1.Ч.1. – М.: 1963. – С. 468.



“Temur tuzuklari”da Sohibqiron armiyasining turli qism va bo‘linmalarga uch yuz o‘n uch bek boshchilik qilganligi qayd etilgan. Ularning dastlabki yuztasi o‘nbegilik, ikkinchi yuztasi yuzbegilik, uchinchi yuztasi mingbegilik rutbalarini egallagan. Tumanlarga Amir Temurning farzandlari, nabiralari hamda nomdor lashkarboshilar qo‘mondonlik qilgan.

“Sarkarda, qo‘mondon” ma‘nosini ifodalagan *cherigbegi* istilohi ilk bor XII asrda yashab, ijod etgan xorazmlik Mahmud Zamaxshariyning “Muqadimat ul-adab” lug‘atida aks etgan. Mazkur istiloh ma‘no nuqtai nazaridan forscha-tojikcha *amiri lashkar* izofasiga mos tushadi. Sohibqiron qo‘shinida Abbosbek, Abdulkarim, Tamuka qavchin, Qimoriy inoq kabi sarkardalar *cherigbegi* martabasini egallagan.

Amir Temur, Temuriylar va o‘zbek xonlari qo‘shinida o‘n ming askardan tashkil topgan korpus, diviziya qo‘mondoni ma‘nosini ifodalashda *tumanbegi* bilan yonma-yon *tuman amiri*, *tuman aqosi* istilohlari ham qo‘llanishda bo‘lgan. “Tuman qo‘mondonligi, diviziya sardorligi” ma‘nosini ifodalash *tuman amirligi* va *tuman begligi* terminlariga yuklatilgan. Sohibqiron qo‘shinida Sulaymonshoh, Mizrobbek, Sulton Mahmudxon, Sayyidxoja kabi o‘n to‘rt nafar tumanbegi faoliyat yuritgan.

Amir Temur davrida mingbegiga *tug‘* va *kavurga* // *ko‘raga* (karnay) nishon tarzida berilgan, uning oylik maoshi (*ulufa*) o‘ttiz otning bahosi miqdorida belgilangan. Unga, shuningdek, chodir, dubulg‘a, soyabon, zirh, nayza, qilich, sadoq, o‘q-yoy berilgan. Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida ming kishilik harbiy qism sarkardasi *hazorabegi* termini yordamida anglashilgan. Yuz kishidan iborat harbiy bo‘linmaga *yuzbegi* sarkardalik qilgan. Sohibqiron davrida yuzbegining oylik maoshi 20 otning narxiga to‘g‘ri kelgan. *Yuzbegi* alohida chodir, qilich, o‘y-yoy, sovut, sadoq, gurzi, oybolta va o‘nta qo‘shimcha ot bilan ta‘minlangan. Janglarda qahramonlik va mardlik namu-



nalarini ko‘rsatgan sara jangchi munosib ravishda taqdirlanib, *o‘nbegi*, takror jangovar xizmatlari evaziga *yuzbegi* va nihoyat *mingbegi* lavozimiga ko‘tarilish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Amir Temurning xos navkari Mubashshirning avval bahodur, so‘ng lashkarboshi, nihoyat tumanbegi darajasiga erishishini ash-yoviy misol tariqasida keltirish mumkin. 1383-yilda Valibek bilan kechgan to‘qnashuvdagi qahramonligi va matonati evaziga Gov kush mavzesi Mubashshirga umrbod suyurg‘ol qilib berilgan. O‘nbegi chodir, sovut, qilich, o‘q-yoy, sadoq va besh-ta qo‘shimcha ot olish huquqiga ega bo‘lgan. O‘nbegining oylik maoshi o‘nta otning bahosiga to‘g‘ri kelgan. Jangda shijoat ko‘rsatib, dushmani qochirishga muyassar bo‘lgan o‘nbegi qal‘a, qo‘rg‘on, shahar dorug‘asi yoki yuzbegi mansabiga ko‘tarilgan. Bobur cherigida o‘n askardan iborat bo‘lim sardori *o‘n ulug‘i*, ellik kishidan tashkil topgan bo‘linma esa *ellik ulug‘i* istilohlari bilan ifodalangan.

Sohibqiron armiyasida 50 tadan 100 (ba‘zan 500)tagacha jangchilardan tashkil etilgan harbiy bo‘linmalar ham mavjud bo‘lib, ularga *qo‘shunbegilar* rahbarlik qilgan. Allohdod, Iydxoja, Muhammad Ozod, To‘kal bavurchi singari qo‘shunbegilar ko‘pdan-ko‘p yurishlarda ishtirok etishgan, qahramonlik ko‘rsatishgan.

Ayg‘oqchilik (razvedka) vazifalari bilan mashg‘ul bo‘lgan yengil suvoriylar guruhi, ya‘ni qarovul boshliqlari *qarovulbegi* istilohi bilan nomlangan. Temurbek qo‘shinida ushbu lavozim Donaxoja, Mir Ali Toz, To‘kal kabi shaxslarga nasib qilgan. Qo‘shinning ko‘makchi (zaxira) qismiga boshchilikni amalga oshiruvchi qo‘mondonlar *chag‘dovulbegi* termini bilan atalgan.

Tahlil qilinayotgan davr harbiy terminologiyasi tizimida tez harakat qiladigan otliqlar guruhiga qo‘mondonlik qilgan sarkardaning *ilg‘orbegi* istilohi bilan ifodalangani bot-bot ko‘zga tash-



lanadi. Ilg'or qism nafaqat yovning mol-mulkini g'orat qilish, uning qurolli kuchlariga zarba berish, balki ayg'oqchilik vazifalari bilan ham band bo'lgan. *Ilg'orbegi* otliq guruhning jasur, tajribali jangchilardan iborat tarzda shakllanishiga alohida diqqat qaratgan.

Yurishga chiqishdan oldin oliy bosh qo'mondon tomonidan tuzilgan *son* (ro'yxat)ga binoan barcha darajadagi lashkarboshilar o'z jangchilari, ot-ulovi, oziq-ovqati, yem-xashagi, qurol-yarog'i bilan *miod yeri* – to'planish joyiga yetib kelgach, qat'iy tartib va intizomga rioya etgan holda o'zlari uchun oldindan belgilangan *bo'ljor*(pozitsiya)ni egallashgan va an'anaviy *ko'ruk*(parad)ga puxta tayyorgarlik ko'rishgan. Qo'shin qismlarini bo'ljarga joylashtirish vazifasi *bo'ljorbegi* zimmasida bo'lgan.

Safar boshlanishidan avval qurol-yarog' ombori – *jibaxona*, *qurxon*a zarur aslaha bilan to'ldirilgan. Ushbu mas'uliyatli vazifaga *qurbegi* va *jibachi* islohi bilan ifodalangan mansab egalari javobgar hisoblangan. Kezi kelganda, *jibachi* terminining *jibagar* istilohi kabi sovut, zirh yasovchi ustaga nisbatan ham qo'linganini ta'kidlash lozim bo'ladi.

Yurish arafasida oliy bosh qo'mondon arkoni davlat, vazirlar, beklar va amirlar, sarkardalarni *mashvarat*-harbiy kengashga to'plagan. Shu bilan birga, saltanatning viloyat va tumanlari, qal'a va hisorlari, shuningdek, tobe yurtlardan lashkar-*cherig* to'plash uchun maxsus buyruq-*tunqol* e'lon qilingan. *Tunqol* mo'ljallangan yerlarga bosh qo'mondonning adyutanti-*tavochi* tomonidan tezda yetkazilgan. *Tavochi* zimmasiga askar to'plashdan tashqari, qo'shin qismlarining *o'rd*u (qarorgoh, lager) yoki safardagi o'rni, *yasol*-jangovar tartibi hamda bir *yurt*-manzildan ikkinchi *yurt*-manzilga ko'chish jarayonini nazorat qilish ham yuklatilgan. Abulg'oziyxonning "Shajarayi turk" asarida ayni istiloh *tug'achi* fonetik shaklida qo'llangan. G.Dyorfer *tavochi* terminining "harbiy nozir" ma'nosida faqat



Movarounnahrda qo'llangani, Sharqiy Turkistonda uning mavjud bo'lmaganini alohida urg'ulaydi. Bajaradigan vazifasi, ifodalaydigan ma'nosi jihatidan *tavochi* istilohi Somoniylar, G'aznaviylar va Saljuqiylar davrida faoliyat olib borgan *oriz* hamda *naqib* istilohlari bilan nomlangan harbiy mansabdorlarga mos tushadi. Buxoro amirligida *naqib* qo'shinni nazorat qilishga mas'ul bo'lib, sipohni safar paytida joylashtirish, qurol-aslaha bilan ta'minlash, *avang'or* va *chag'davul* (arergard), *o'ng qo'l*, *so'l qo'l*, *g'o'l* (markaz) hamda pistirmaning harakatini nazorat qilish vakolatiga ega bo'lgan. Xiva xonligida *tavochi* xabar yetkazish, qo'shinni nazorat qilish vazifasini bajargan. Husayn Boyqaro hukmronligi paytida *yotish tavochisi* istilohi bilan yuritilgan lavozim egasi saroy soqchilari xizmatini tekshirish bilan mashg'ul bo'lgan.

Qoraxoniylar cherigida jangovar tartib, safni tuzishda mas'ul bo'lgan quyi martabali zobit, ya'ni *chavush* XIV asrda saroy soqchisi, soqchi vazifasida xizmat qilgan. Xiva xonligida *chavush* xabargirlik, darakchilik vazifasi bilan shug'ullangan. XIX asrda ushbu istiloh Turkiya, Eron va Ozarbayjonda "mirshab", Qirimda esa "ellikboshi" ma'nosini anglatgan. XV-XVII asrlarda *chavush* (cheush) rus tilida saroy soqchilarini ifodalashda qo'l kelgan.

Chavush termini "saroy soqchisi, jangovar yurish yoki harbiy harakatlarni nazorat qiluvchi" ma'nosida *yasavul* va *qurchi* istilohlariga mos tushgan.

Yasamoq fe'lidan hosil qilingan *yasavul* termini mo'g'ullar qo'shinida Chingizxon tomonidan joriy etilgan *yasa* (to'ra, qonun, nizom)ning bajarilishni nazorat qiluvchi mansabdorga, keyinroq qo'shin qanoti qo'mondoniga nisbatan ishlatilgan. Temuriylar davrida *yasavul* saroy soqchilari boshlig'i sifatida *o'rda* – saroyda uyushtiriladigan turli tadbirlarda tartib-intizomning saqlanishiga mas'ul bo'lgan, zarur kezlarda harbiy harakatlarda



ishtirok etgan. Xiva xonligida yasavullarga vazifasini ado etishda *surdavullar* yaqindan ko'mak bergan.

Qo'qon xonligida yasavul oliy darajali mansabdorlarni kuzatib borishga xoslagan bo'lsa, Xiva xonligida qonun, farmon, hukm va buyruqlarning amalga bajarilishini tekshirish bilan mashg'ul bo'lgan. Yasavullar boshlig'i, sardori *yasavulboshi* istilohi bilan anglashilgan.

Amir Temur va Temuriylar, Shayboniylar, uch xonliklar qo'shini *cherig boshchisi*, *mirsipoh*, *sipohdor* kabi sarkardalar va lashkarboshilar, *sipohsolor*, *sardor*, *sipahbad* singari qo'mondonlar tomonidan boshqarilgan. *So'zovul* rutbasiga ega mansabdor safar vaqtida qo'shından ortda qolib ketgan askar va qochoqlarni yig'ish bilan shug'ullangan.

Jo'jixon, To'xtamishxon, Shayboniyxon qo'shinining o'ng va so'l qanotlariga *o'g'lonlar* qo'mondonlik qilgan. O'g'lonlar Chingiziyalar sulolasiga mansub xonzodalar bo'lib, aksariyat taxt vorisi sanalgan.

Sohibqiron qo'shinida Temurxoja o'g'lon *qo'shunbegi*, Burxon o'g'lon *ulug' no'yon*, Iyboj o'g'lon *tumanbegi* lavozimida xizmat qilgan.

O'rta Osiyo xonliklarida qurolli kuchlarni boshqarishning o'ziga xos tizimi shakllangan. Ushbu tizimning cho'qqisida hukmdor (xon, amir) – oliy bosh qo'mondon turgan. Garchi, davlat boshlig'i oliy bosh qo'mondon hisoblansa-da, ko'p hollarda safar chog'ida qo'shinga boshchilik qilish boshqa mansabdorlar tomonidan amalga oshirilgan.

Buxoro amirligi harbiy mansablar pillapoya(ierarxiya)sida *otaliq* – bosh qo'mondondan keyin *qo'shbegi*, qo'shbegidan so'ng harbiy maslahatchi – *inoq* joylashgan. *Naqib* inoqdan keyingi rutba bo'lib, o'z navbatida *parvonachidan* yuqori turgan. Mansablar pillapoyasining beshinchi poyasidan *qarovulbegi*, ol-tinchisidan *miroxur*, yettinchisidan esa *to'qsoba* o'rin egallagan.



Miroxur va to'qsoba asosan garnizon qo'mondonligini amalga oshirishgan, zarur topilgan kezda, ular qal'a yoki qo'rg'on boshlig'i vazifasiga tayinlangan. Amirlikda, shuningdek, *to'pchiboshi*, *yasavulboshi*, *jibachi*, *qurchiboshi*, *chuhra aqosi* kabi istilohlar bilan atalgan harbiy amaldorlar faoliyat yuritgan. XIX asrning 20-yillarida Orenburgdan Buxoroga kelgan E.K. Meyendorf amirning harbiy mansabdorlari xususida so'z yuritib, *to'qsoba* polk qo'mondoni, *dodxoh* bir nechta polklar boshlig'i, *parvonachi* esa qo'shin qo'mondoni (marshal) mavqeiga ega bo'lganligini ta'kidlaydi¹⁰.

Naqibning zimmasiga harbiy harakatlarni rejalashtirish, jangovar qismlarni jangohda to'g'ri taqsimlash vazifalari yuklatilgan. Shtab boshlig'i sifatida *naqib* harbiy safarlar chog'ida qo'shinning tuzilishi, qurol-aslaha bilan ta'minlanganligi, muayyan *yurt*-manzilda joylashishi, harakatlanish yo'sini, jang olib borish usullari haqida to'laqonli bilimga ega bo'lib, qo'shin qismlari – avang'or, o'ng qo'l, so'l qo'l, markaz, zaxira hamda pistirmaning jang paytida qanday harakat qilish taktikasi – yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqqan¹¹. Buxoro amirligi qo'shinida mavjud bo'lgan harbiy mansablar pillapoyasini quyidagicha tasvirlash mumkin:

Otaliq < qo'shbegi < inoq < naqib < parvonachi < qarovulbegi < miroxur < to'qsoba < dodxoh < eshikog'aboshi < mirzaboshi < jibachi < chuhra aqosi.

Qo'qon xonligi harbiy qurilishi va unda mavjud bo'lgan harbiy mansab hamda unvonlarning ko'pchiligi Buxoro amirligi lashkarida xizmat o'tagan harbiylarning lavozim va unvonlariga

¹⁰ *Мейендорф Э.К.* Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М.: "Наука", 1975. – С. 139.

¹¹ *Семенов А.А.* Бухарский трактат о чинах и званиях и обязанностях носителей их в средневековой Бухаре // Советское востоковедение. 1948, № 5.



deyarli mos tushgan. Chunonchi, har ikki xonlikda ham o'nlikka *dahboshi*, ellik askardan iborat bo'linmaga *panjaboshi*, yuzlikka *yuzboshi*, besh yuz jangchidan tashkil etilgan bo'luk (polk)ka *pansod* yoki *pansodboshi* boshchilik qilgan. Har bir *yuzlik* o'nta dahboshi va bir nafar yuzboshidan iborat bo'lgan.

Ayni chog'da, Qo'qon xonligi qo'shini tarkibida to'pchilar boshlig'i *yovar*, tajribali, qahramon jangchilar rahbari *bahodurboshi* yoxud *boturboshi* singari unvon egalari xizmat qilgan. Qo'qon xonligi qo'shini qayd etilgan sarkardalardan tashqari quyi lavozimga ega harbiylar tomonidan ham boshqarilgan. Ushbu lashkarboshilarning amallar pillapoyasida joylashuvini tubandagicha tasvirlash mumkin: *nishonbardor* < *miroxur* < *qurchi* < *panjaboshi* < *dahboshi* < *qarovulbega* < *yasovul* < *mergan* < *botur* < *jibachi* < *to'pchi* < *jazoyirchi*.

Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi qo'shinida sudlov ishlariga *qozi askar* mas'ul bo'lgan. Harbiy masalada yuzaga kelgan huquqiy muammolar yechimi ushbu shaxsning chiqargan hukmiga binoan belgilangan. Qozi askar to'xtamga kelgan hukmning to'g'riligi va adolatligini shariat qoidalari asosida o'rganish *mufti-i askar* zimmasida bo'lgan.

XVIII–XIX asrlar Xiva xonlari tarixiga oid manbalarda xonlikning siyosiy-ma'muriy hayoti, qo'shin qurilishi va boshqaruviga taalluqli talaygina leksik birliklar qo'llangan bo'lib, ularning safida qadimdan qat'iy qolipga tushirilgan, shuningdek, faqat xonlikda mavjud mansab, rutba, amal pillapoyasini ifodalashga yo'naltirilgan istilohlar rang-barang ma'no-mazmun, turfa etimologiyaga egaligi bilan xarakterlanadi.

Xonlikning harbiy qurilishi va boshqaruvida xizmatda bo'lgan mansab egalari pillapoyasi Qoraxoniylar, Chingiziylar, Temuriylar, Shayboniylar saltanatidagi tizimdan tubdan farq qilmasa-da, biroq ayrim amallarning vazifasi, vakolatida o'ziga xosliklar ko'zga tashlanadi.

Xiva xonligi harbiy boshqaruvi ma'muriyati xodimlari vazifasi nuqtai nazaridan asosan ikki guruhga bo'lingan: 1) markaziy boshqaruv tizimida faoliyat yuritgan va 2) viloyat, shahar, tuman, qishloq, ovul boshqaruviga mas'ul mansabdorlar. Har ikki guruhga taalluqli amaldorlarni ifodalash uchun o'zbekcha, arabcha hamda forsha-tojikcha istilohlardan tashkil topgan tizim qo'llanishda bo'lgan.

Mansabdorlar pillapoyasining cho'qqisida qadimdan faol ishlatilgan *xon* istilohi bilan sharaflangan Olloquli, Rahimquli, Muhammadamin, Sayyid Muhammad, Muhammad Rahim singari hukmdorlar turgan. Xon nafaqat saltanat rahbari, shuningdek, oliy bosh qo'mondon sifatida turli harbiy yurishlarda ishtirok etgan, jang-u jadallarga boshchilik qilgan.

Taxt vorisi, ya'ni xonzoda-shahzoda *to'ra* istilohi bilan nomlangan bo'lib, amir ul-umarolik oliy mansabiga teng keluvchi *biylik* rutbasiga ham egalik qilgan: *Rahimberdi to'arakim, xolo biylik, ya'ni amir ul-umaroliq mansabi aning gavhari vujudi bila muzayyan va mo'tabardir* (Riyozu ud-davla, 64). *Biylik* mansabiga xon tomonidan nafaqat hokim sulola a'zolari, balki arkoni davlat vakillari ham munosib topilgan. E'tirof etish joizki, aksariyat biylik mansabi saltanatdagi boshqa amallar kabi meros hisoblangan, ya'ni vafot etgan yoki harbiy amaliyotlar chog'ida halok bo'lgan yoxud iste'foga chiqqan biyning lavozimi uning farzandi yoki yaqin qarindoshiga berilgan: *Oloshbiyning o'rnig'aning arshad va amjad avlodi Xudoyorbegni...biylik amali bila sarafroz qildi* (Riyoz ud-davla, 114). Ogahiy asarlarida qaysidir begning biylik mansabiga tayinlanishi xususida qilingan qaydlar *biy* mansabining *beg* rutbasidan oliy bo'lganidan dalolat beradi. Biylik mansabida maqom tutgan amaldor ayni chog'da, qoraqalpoq ulusining hokimi va sardori ham sanalgan.

Xonlikdagi mansablar pillapoyasining keyingi zinasida joylashgan amaldor *inoq* istilohi bilan anglashilgan. Qadimgi tur-



kiy tilda “ishonch” ma’nosida qo’llangan tub turkcha leksema XI–XIV yuzyilliklarda “vazir, maslahatchi” ma’nosini ifodalagan. Abulg’oziyxonning “Shajarayi turk” asarida ta’kidlanishicha, mashvaratlar paytida inoqlardan biri xonning so’l tomonida, amir ul-umarodan keyin o’rin olgan va *ulug’ inoq* istilohi bilan nomlangan. Hukmdorni taxtga chiqarish marosimida o’rnatilgan qonun – to’raga muvofiq inoqlar oq kiyizning to’rt burchagini tutib turishgan. Xon qo’shinga bosh bo’lib, safarga chiqqan chog’da inoq hukmdorning noibi sifatida poytaxtda qolib, yurtni boshqargan: ...*Muhammadnazir inoqkim, Xiva shahrida nayo-bat tariqasi bila qolib erdi*¹².

Inoqdan keyingi mansab *parvonachi* istilohi bilan ifodalangan. Parvonachi mansabiga ko’p hollarda beg unvoniga ega shaxslar loyiq sanalgan: *Niyoz Muhammadbegg’a parvonachilik...manosibi a’losin munosib ko’rub, shafqat qildi*¹³.

Xonlikda bir nechta vazirliklar mavjud bo’lib, *vaziri a’zam* izofasi yordamida ifodalangan mansabdor tomonidan boshqarilgan. Ushbu oliy mansab egasi qo’shbegilik unvoni bilan sarafroz qilingan shaxslarga nasib etgan: *Mazkur qo’shbegining valadi arshadi Muhammad Yusufbegni...qushbegilik xil’ati bila qadri qomatig’a zebu ziynat berdi va vazorat mansabi bila..maq-run etti*¹⁴.

Engallab turgan amal darajasi nuqtai nazaridan arabcha *mehtar* o’zlashmasi bilan nomlangan mansab egasi *vaziri a’zam* vazifasiga ham tayinlangan: *Va safar asbobining maunotu xarajatini vaziri a’zam Abdulloh mehtarga...havola qilindi*¹⁵. Mazkur

¹² *Oga’xiiy*. Asarlar. V jild. – Toshkent: “Fa’fur Fu’lom”, 1978. – B. 62.

¹³ *Oga’xiiy*. Asarlar. V jild. – Toshkent: “Fa’fur Fu’lom”, 1978. – B. 63.

¹⁴ *Oga’xiiy*. Sho’xidu-l-ik’bol (Ik’bol sha’odati). Nashrga tayёрlovchi, s’uzbo’shi va izo’xlar mu’allifi N.Шодмонов. – Toshkent: “Mux’arriр”, 2009. – B. 64.

¹⁵ *Oga’xiiy*. Sho’xidu-l-ik’bol (Ik’bol sha’odati). Nashrga tayёрlovchi, s’uzbo’shi va izo’xlar mu’allifi N.Шодмонов. – Toshkent: “Mux’arriр”, 2009. – B. 72.



gapdan mehtarning xonlikdagi moliya ishlariga ham javobgar bo’lganligini anglash mumkin.

Temuriylar davrida yangi tug’ilgan mirzolar balog’at yoshiga yetgunga qadar tarbiyachi, ya’ni otabeglar nazoratida qolganligi tarixdan yaxshi ma’lum. *Otabeg* istilohi bilan yuritilgan shaxs mirzoga bilim berish, harbiy ish sirlarini o’rgatish, homiylik qilish singari vazifalarga mas’ul bo’lgan. “Boburnoma” da bunday rutba egasi *begatka* istilohi bilan anglashilgan. Shayboniylar saltanati boshqaruvida ayni vazifani ado etuvchi mansabdor *otaliq* deb atalgan. Xiva xonligida otaliq mansabi qozi, inoq va parvonachi amallaridan keyin turgan. Ushbu rutba ham asosan *beg* unvoniga ega kishilarga berilgan: ...*va Tengizbekka otaliqliq...manosibi a’losin munosib ko’rub, shafqat qildi*¹⁶. Otaliq zimmasidagi vazifalardan tashqari, lashkarboshi sifatida harbiy safarlarda faollik ko’rsatgan: *Va gardunsarir sarkardalardin Davlatyor otaliq...zahmdor bo’ldilar*¹⁷.

Saroy amaldorlari yozishmalarini boshqarish, harbiy yurish chog’ida hukmdor chodirini olib yurish, o’rnatish, ko’chirish kabi yumushlarga mas’ul shaxs arabcha *mahram* o’zlashmasi bilan ifodalangan va bu mansab oliy bosh qo’mondon tomonidan bot-bot uyushtiriladigan ovga mas’ul sanalgan hamda *miri shikor* istilohi yordamida anglashilgan amaldan so’ng tilga olingan. “Riyo’z ud-davla” matnida *mahram* istilohining o’zbekcha *qo’shbegi* yasamasidan so’ng, *qo’shbegi* istilohining o’z navbatida, *mehtar* so’zidan keyin berilishi xonlikdagi ayni mansablarning ierarxik maqomini belgilashda qo’l keladi.

Xon saroyida xizmat qilgan mansabdorlardan yana biri o’zbekcha *yasavulboshi* istilohi bilan nomlangan bo’lib, bu amaldor hukmdor qabulxonasida tartib-intizomni nazorat qilish qatori, askarlarni harbiy amaliyotlarga yetaklash bilan ham mashg’ul

¹⁶ *Oga’xiiy*. Asarlar. V jild. – T.: “Fa’fur Fu’lom”, 1978. – B. 62.

¹⁷ *Oga’xiiy*. Asarlar. VI jild. – T.: “Fa’fur Fu’lom”, 1980. – B. 108.

bo'lgan. Yasavulboshiga bir qancha yasavullar va surdavullar bo'ysungan. Egallab turgan rutbasiga ko'ra, yasavulboshi *yuzboshi, sardor, vakil* istilohlari bilan atalgan mansabdorlardan yuqori pog'onada joylashgan.

Xonlikda din, fiqh, shariat, oila, nikoh, meros, fuqarolik va jinoyat ishlariga doir hukm chiqaradigan, ajrim qiladigan institut faoliyat yuritgan va bu institut turli darajali hakam-*qozilar* tomonidan boshqarilgan. Qozilar boshlig'i *qozikalon*, qo'shinda sodir bo'ladigan huquqiy nizolarni ajrim qiluvchi mansabdorni ifodalovchi *qozi askar* istilohi ishtirokida anglashilgan. E'tiborga loyiq bir jihat, ya'ni *qozi* lavozimiga asosan eshonlar tabaqasiga aloqador shaxs, shuningdek, domlalar tayinlangan. Qozi askar rutbasi *rais, ihtisob* va *domla* amallaridan baland hisoblangan.

Xonlikning viloyatlari arabcha *hokim*, shahar va qal'alari mo'g'ulcha *dorug'a*, qishloq va mahallalari o'zbekcha *yuzboshi, oqsoqol* istilohlari bilan nomlangan shaxslar tomonidan idora qilingan.

Xiva xonligida "qo'mondon, lashkarboshi" ma'nosini ifodalash maqsadida *sarkarda, saraskar, sarxayl, sarxang, sipohsolar* istilohlari qo'llangan. Oliy bosh qo'mondon shaxsan ishtirok etmagan yurishlarni boshqarish ba'zan taxt vorisi *to'raga*, aksariyat hollarda *amir ul-umaro* unvoniga sazovor *biy* yoki *qo'shbegi*ga topshirilgan. Xonlik qo'shini bo'linmalariga *o'nbegi, yuzboshi, mingboshilar* sardorlik qilgan.

Ma'lumki, XIX asrning ikkinchi yarmidan O'rta Osiyo, jumladan, hozirgi O'zbekiston ham Rossiya tasarrufiga o'tdi. Shu davrdan e'tiboran o'zbek adabiy tili leksikasi, xususan, harbiy terminologiyasi tizimi rus tili va rus tili orqali G'arbiy Yevropa tillaridan kirib kelgan talaygina o'zlashmalar hisobiga kengaydi. Bu jarayon Oktabr to'ntarishidan keyin yanada kuchaydi.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida harbiy mansab, lavozim va unvonlarni ifodalovchi quyidagi terminlar-



ning rus tilidan o'zbek tiliga aynan o'zlashganligini manbalar tasdiqlaydi: *ofitser, kapitan, polkovnik, general, admiral, adyutant* va h.k. Davriy nashrlardan olingan misollar fikrimizni tasdiqlaydi: 1. Katta *ginirallar* va *afitserlar* va rasmiy to'ralar hozir bo'lub...(TVG, 1902, 19-son). 2. Yapun askarlari to'rt taqsimga bo'linib, sakkiz yuz adad *bomba*, ya'ni ichig'a nihoyati mayda o'q soling'an katta o'qni otadurlar (TVG, 1904, 35-son). 3. Uchinchi armiya askarining *kamandiri giniral* Batrakov lavozimidan bekor bo'lubdur (Taraqqiyot, 1906, 11-son). 3. Bir necha *giniral* va *adyutantlari* ilan mutavattin uylaridin piyoda chiqib...(TVG, 1902, 16-son) va h.k.

Ikkinchi jahon urushi yillarida sanoat va qishloq xo'jaligi, fan va texnika, san'at va madaniyatning front manfaatlariga qaratilishi munosabati bilan o'zbek tili lug'at boyligi yangi termin va termin birikmalar bilan boyidi. Lekin ushbu termin va birikmalarni mutlaq yangi deyish juda to'g'ri emas. Chunki ularning ko'pchiligi mavjud til elementlari asosida paydo bo'ldi. Yangi termin yoki birikmalarining ba'zilari urushgacha ham o'zbek adabiy tilida mavjud bo'lib, kam ishlatiluvchi leksik qatlamga oid edi. Urush sharoiti, umumiy harbiy ta'lim, sobiq sho'ro armiyasining tashkiliy masalalari, qurol-yarog', taktika hamda strategiya sohalarida bo'lgan o'zgarishlar bilan bog'liq holda o'zbek tilining lug'at boyligida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Chunki, ba'zi terminlar yakka holda yoxud turli qo'shimchalar olib, harbiy tushunchalarni ifodalash uchun yo'naltirildi.

Ikkinchi jahon urushining boshlarida ayrim tushunchalar turli leksik variantda ifoda qilindi: *tankka qarshi otadigan qurol – tankotar qurol, tankist – tankchi, atakalovchi – ataka qiluvchi* va h.k. Urushning so'nggi yillarida bunday hodisa, xilma-xilliklar muayyan qolipga tushib, harbiy terminologiya ancha takomillashdi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek tili harbiy terminologiyasida harbiy ish bilan bog'liq o'zgarishlar turfa tus oldi.



1940-yilning o'rtalarida sobiq SSSR Oliy Soveti Prezidiumi Qizil Armiya va Harbiy-Dengiz flotining oliy qo'mondonlariga harbiy unvonlar belgilash to'g'risida Farmon e'lon qildi. Buning ma'nosi, maqsadi nimada edi? "Sovet generallari va admirallari unvonining belgilanishi, – deb yozgan edi "Pravda" gazetasi o'z bosh maqolasida, qo'mondonlarimizning obro'sini yanada ko'tarishni, harbiy intizomni yanada ko'proq mustahkamlashni maqsad qilib oladi. General va admiral unvonlari quruqlikdagi yoki harbiy-dengiz hamda aviatsiya qismlariga rahbarlik qiluvchi komandirlarning to'la huquqqa ega ekanini aniq ifoda etadi.

Bu unvonlarning belgilanishi Sovet Ittifoqi Qurolli Kuchlarini tashkiliy jihatdan mustahkamlash borasida qilingan asosiy tadbirlardan biridir" (1940, 9-may).

Oliy harbiy qo'mondonlar tarkibi uchun yangi unvonlar belgilanishi bilan ularni ifodalovchi terminlar yuzaga keldi:

1. Umumqo'shin qo'mondonlari: *Marshal* < *armiya generali* < *general-polkovnik* < *general-leytenant* < *general-mayor*.

2. Qo'shin turlarining oliy qo'mondonlari:

a) *artilleriya bosh marshali* < *artilleriya marshali* < *artilleriya general-polkovnigi* < *artilleriya general-leytenant* < *artilleriya general-mayori* ("Pravda" gazetasining 1940-yil 9-may sonidagi bosh maqolasidan);

b) *aviatsiya bosh marshali* < *aviatsiya marshali* < *aviatsiya general-polkovnigi* (dengiz aviatsiya bilan birga) < *aviatsiya general-leytenant* < *aviatsiya general-mayori*.

v) *bronetank qo'shinlari general-polkovnigi* < *bronetank qo'shinlari general-leytenant* < *bronetank qo'shinlari general-mayori*.

g) *aloqa qo'shinlari general-polkovnigi* < *aloqa qo'shinlari general-leytenant* < *aloqa qo'shinlari general-mayori*.

e) *injenerlik qo'shinlari general-polkovnigi* < *injenerlik qo'shinlari general-leytenant* < *injenerlik qo'shinlari general-mayori*.



d) *texnika qo'shinlari general-polkovnigi* < *texnika qo'shinlari general-leytenant* < *texnika qo'shinlari (kimyoviy, avtomobil, topografiya qo'shinlari) general-mayori*.

3. Xizmat oliy qo'mondonlari:

a) *meditsina qo'shinlari general polkovnigi* < *meditsina xizmati general-leytenant* < *meditsina xizmati general-mayori*.

b) *intendantlik xizmati general-polkovnigi* < *intendantlik xizmati general-leytenant* < *intendantlik xizmati general-mayori*.

v) *veterinar xizmati general-polkovnigi* < *veterinar xizmati general leytenant* < *veterinar xizmati general-mayori*.

g) *ma'muriy xizmat general-polkovnigi* < *ma'muriy xizmat general-leytenant* < *ma'muriy xizmat general-mayori*.

4. Harbiy-dengiz floti oliy qo'mondonlari:

a) *kemachilik xizmati oliy stroevoy qo'mondonlari: flot-admiral* < *vitse-admiral* < *kontr-admiral*.

b) *kemachilik xizmati injenerlari: injener-admiral* < *injener-vitse-admiral* < *injener-kontr-admiral* < 1-, 2-, 3-rang *injener-kapitani* < *injener-kapitan-leytenant* < *starshiy injener-leytenant* < *injener-leytenant* < *mladshiy injener-leytenant*.

v) *qirg'oq xizmati general-polkovnigi* < *qirg'oq xizmati general-leytenant* < *qirg'oq xizmati general-mayori*.

Boshqa xizmatlardagi oliy qo'mondonlarning nomlari ham mana shu asosda ifodalandi.

5. Ofiserlar tarkibini ifodalovchi termin va termin birikmalar *polkovnik* < *podpolkovnik* < *mayor* < *kapitan* < *starshiy leytenant* < *leytenant* < *mladshiy leytenant*.

Umumqo'shin ofitserlari tarkibini anglatuvchi terminlarga qo'shin turlari yoki xizmatni qo'shish bilan ayni qo'shin turi yoki xizmatga qarashli ofitserlarni ifodalovchi terminlar yuzaga chiqqan: *artilleriya polkovnigi* < *aviatsiya starshiy leytenant* < *intendantlik xizmati mladshiy leytenant* va h.k.



1942-yilning kuz paytlarigacha *starshiy politruk* (ba'zan *starshiy siyosiy rahbar*), *politruk*, *mladshiy politruk* terminlari ancha faol qo'llangan edi. Keyinchalik *komissar* termini bilan bir qatorda, bular ham iste'moldan chiqib ketdi.

6. Serjantlar tarkibini ifodalovchi terminlar: *starshina* < *starshiy serjant* < *serjant* < *mladshiy serjant*.

7. Oddiy askarlar tarkibini anglatuvchi terminlar: *matros*, *efreytor*, *soldat*.

O'zbekcha *kichik* va *katta* so'zlari urushning boshlarida ba'zan *starshiy serjant*, *mladshiy serjant*, *starshiy leytenant*, *mladshiy leytenant* terminlaridagi *starshiy*, *mladshiy* so'zlari o'rnida qo'llandi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, *katta* va *kichik* so'zlari o'zbek tili harbiy terminologiyasidan mustahkam o'rin oldi va bugungi kunda faol ishlatilmoqda: *kichik serjant*, *katta serjant*, *kichik leytenant*, *katta leytenant* va sh.k.

Sobiq Qizil Armiya harbiy xizmatchilarining unvoni va ularning qaysi qo'shin turiga qarashli ekanligini ko'rsatib turuvchi daraja belgisi-pogonning yuzaga kelishi munosabati bilan *soldat*, *ofitser* terminlari keng qo'llana boshladi. *Soldat* termini ilgari *askar*, *jangchi* istilohlari bilan almashtirilgan edi.

Sobiq sho'rolar davrida *soldat* termini juda faollashdi. O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritib, Qurolli Kuchlar tashkil etilgach, *askar* termini yana faol muomalaga qaytdi va bugungi kunda keng qo'llanmoqda.

Mustaqillik yillarida yaratilgan ayrim lug'atlar, vaqti matbuotda *ofitser* termini o'rnida arabcha *zobit* o'zlashmasining qo'llangani hech kimga sir emas. Hozirgi o'zbek terminologiyasi tizimida *ofitser* termini mustahkam o'ringa ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasi 2- va 20-bandlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy



Bosh qo'mondoni hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi mudofaa siyosati va harbiy qurilishining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, mamlakat suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, milliy-davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'radi, Qurolli Kuchlarni qurish, qo'llash va rivojlantirish rejalarini, shuningdek, mudofaani tashkil etish yuzasidan davlatning boshqa reja va dasturlarini, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va boshqa harbiy tuzilmalarining tinchlik va urush davriga mo'ljallangan tuzilishi, tarkibi va joylashuvini tasdiqlaydi, harbiy harakatlar olib borish, shu jumladan, xalqaro tinchlikparvarlik tadbirlarida qatnashish, shuningdek, Qurolli Kuchlarni o'zlariga bevosita taalluqli bo'lmagan vazifalarni bajarishga jalb etish to'g'risida qarorlar qabul qiladi va Qurolli Kuchlarga buyruq beradi, O'zbekiston Respublikasiga hujum qilingan yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zarurati tug'ilganda urush holati, umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qiladi hamda O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi, Qurolli Kuchlarning oliy qo'mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, oliy harbiy unvonlar beradi, qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi. Urush davrida *O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri* bir paytning o'zida Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni o'rinbosari hisoblanadi. Qurolli Kuchlarning kundalik faoliyatiga rahbarlik o'z bo'ysunuvida Qurolli Kuchlar tarkibiga kiradigan harbiy tuzilmalari hisoblanmish vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning rahbarlari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Qurolli Kuchlari tizimida mavjud harbiy unvonlar ikki, ya'ni qo'shin unvonlari va kema tarkibidagi unvonlarga bo'linadi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida

quyidagi terminlar bilan ifodalanuvchi harbiy unvonlar ta'sis etilgan:

Qo'shin unvonlari	Kema tarkibidagi unvonlar
<i>I. Oddiy askarlar tarkibi</i>	
oddiy askar	matros, dengizchi
<i>II. Serjantlar tarkibi</i>	
Kichik serjant	Starshina
III darajali serjant	III darajali starshina
II darajali serjant	II darajali starshina
I darajali serjant	I darajali starshina
Kata serjant	Bosh starshina
<i>III. Ofitserlar tarkibi</i>	
<i>1) Kichik ofitserlar tarkibi</i>	
Leytenant	Leytenant
Katta leytenant	Katta leytenant
Kapitan	Kapitan-leytenant
<i>2) Katta ofitserlar tarkibi</i>	
Mayor	III darajadagi kapitan
Podpolkovnik	II darajadagi kapitan
Polkovnik	I darajadagi kapitan
<i>3) Generallar tarkibi</i>	
General-mayor	
General-leytenant	
General-polkovnik	
Armiya generali	



Qurolli Kuchlar iyerarxiyasidagi oliy harbiy unvon **armiya generali** bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh Qo'mondoni va O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziriga (urush davrida) beriladi.

Yuridik yoki tibbiy yo'nalishdagi harbiy hisobdagi ixtisoslikka ega bo'lgan harbiy xizmatchi va harbiy xizmatga majbur shaxsning harbiy unvoniga tegishliligi bo'yicha "adliya" yoki "tibbiy xizmat" so'zlari qo'shiladi.

Zaxiradagi yoxud iste'fodagi fuqarolarning harbiy unvoniga tegishli "rezervdagi", "zaxiradagi" yoki "iste'fodagi" so'zlari qo'shiladi.

Harbiy unvon berish yoki harbiy unvondan mahrum qilish, shuningdek, harbiy unvonni pasaytirish yoxud harbiy unvonini tiklash qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Ofitserlar tarkibiga kiruvchilarni harbiy unvondan ular og'ir va o'ta og'ir jinoyat uchun hukm etilganlarida faqat sudning qarori bilan mahrum qilish mumkin.

Harbiy unvonlar ilk bor XV asrda turli davlatlarda muntaзам armiyalar tuzilishi munosabati bilan vujudga kelgan. 1935-yilga qadar harbiy xizmatchilar lavozimlariga ko'ra farqlangan. Misol uchun: vzvod, rota, batalon komandirlari. Shaxsiy harbiy unvonlar ilk bor 1935-yil 22-sentabr kuni ta'sis etilgan. 1940-yil 7-may kuni generallik, 1940-yilda serjantlik unvonlari ta'sis etilgan.

Xullas, hozirgi o'zbek harbiy unvonlarini ifodalovchi terminlarning ko'pchiligi ruscha-baynalmilal (xalqaro) xarakterga ega. Galdagi vazifa – bundan to'rt yil oldin O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan O'zbekistonda harbiy qurilish sohasini tubdan isloh qilish bo'yicha belgilab berilgan eng muhim va ustuvor yo'nalishlardan kelib chiqib, o'zbek harbiy terminologiyasi, chunonchi, harbiy unvon va lavozim nomlarini milliyashtirish maqsadga muvofiq. Zotan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti



Sh.M.Mirziyoyev o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida ta'kidlaganidek: "Ayni paytda dunyoda ilm-fan va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib, mamlakatimizning xalqaro hamkorlik aloqalari tobora kengaymoqda. Natijada hayotimizga chetdan ko'plab yangi tushuncha, so'z va iboralar kirib kelmoqda. Globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug'at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarining o'zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo'llanishini ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib turibdi".



Savol va topshiriqlar

1. Ko'k turk xoqonligi qo'shini necha turdan iborat bo'lgan?
2. G'arbiy turk xoqonligi qo'shini kim tomonidan boshqarilgan?
3. Qoraxoniylar cherigida "lashkarboshi, qo'mondon" ma'nosi qaysi istiloh bilan ifodalangan?
4. Xorazmshohlar saltanatida harbiy qurilish ishlari bilan kim shug'ullangan?
5. Xorazmshohlar qo'shinida *amir jondor* qanday vazifaga mas'ul sanalgan?
6. Amir Temur saltanatida *beglarbegi* qanday vazifani bajarigan?
7. Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida Sohibqiron qo'shinida xizmat qilgan ulug'beglarni aniqlang.
8. Buxoro amirligida *to'pchiboshi* qanday vazifalarga mas'ul sanalgan?
9. Buxoro amirligida viloyat tevarak-atrofi kim tomonidan ehtiyot qilingan?
10. *Beg* mansabi Ko'k turk xoqonligida kimlarga berilgan?
11. Amir Temurning harbiy mahorati haqida nimalar bilasiz?
12. *Marshal* unvoni ilk bor qaysi davlatda ta'xis etilgan?
13. Ogahiyning "Riyoz ud-davla" asaridan olingan quyidagi matnda qo'llangan harbiy lavozim va unvonlarni ifodalovchi istilohlarni belgilang va tavsiflang:
Olashbiyning o'rnig'a aning avlodi Xudayberdibekni biylik amali bila sarafroz qildi. Muhammad Safo inoqning mansabig'a



aning inisi Bobo otaliqni mansub qildi. Abdurrahmon dorug'aning mansabig'a o'z inisin nasab qildi. Muhammadniyozbiyning mansabin o'g'li Pahlavonniyozbekka tafvuz etdi. Berdibiyning mansabin o'g'li Qulmuhammad bekka mufavvaz qildi. Pahlavon-nazar otaliqning mansabin aning inisi Allohberdibekka arzoniy tutdi. Ko'hkan dorug'aning o'rnig'a inisi Boynazarbekni mansub etdi. Yusufbek va Muhammadniyozbekning o'rnig'a alarning av-lodi Tengriqulibek va Jonibek bekni mahramlik mansabi bila sar-baland qildi (114).



Asosiy tushunchalar so'zligi

Alamboshlar – Qoraxoniylar saltanatida qo'shin (armiya) qo'mondoni.

Askariya boshlug'i – XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osi-yoda qo'shin qo'mondoni.

Bahodur(botur)boshi – Qo'qon xonligi qo'shinida otliq as-karlar boshlig'i.

Dahboshi – Qo'qon va Buxoro xonliklarida o'n nafar piyoda jangchilardan iborat bo'lim boshlig'i.

General – oliy toifadagi ofitserlar tarkibiga mansub shaxs-larning harbiy unvoni.

Generalissimus – eng oliy harbiy unvon. Bu unvonga dun-yoda 30 dan ortiq shaxs muyassar bo'lgan.

Leytenant – kichik ofitserlar tarkibiga mansub harbiy un-von. Ilk bor XV asrda Fransiyada ta'sis etilgan.

Miroxur – Hukmdor otboqarlari boshlig'i. Buxoro amirligi-da oltinchi darajali harbiy mansab egasi.

Marshal – ayrim davlatlarning qurolli kuchlaridagi oliy harbiy unvon.

Orizi lashkar – qo'shin noziri.

Panjaboshi – Qo'qon xonligida ellik jangchidan tashkil top-gan bo'linma qo'mondoni.

Pansodboshi – besh yuz nafar askardan iborat dasta (polk) qo'mondoni.

Qarovulbegi – Qo'qon xonligida harbiy mansabdor. Buxo-ro amirligida beshinchi darajadagi harbiy amaldor, soqchi, pos-bonlar boshlig'i.



Sada umarosi – yuz jangchidan tashkil qilingan bo'linma, yuzlik qo'mondoni.

Sarhang – mudofaa istehkomlarini barpo etish va ularni hi-moyaga tayyorlash uchun mas'ul shaxs.

Serjant – kichik qo'mondonlar tarkibining, odatda, quyi pog'onadagi bo'linma, ekipaj, seksiya, guruh qo'mondoni.

Suboshi – Ko'k turklar va Qoraxoniylar saltanatida qo'shin qo'mondoni (armiya generali).

Tavochi – Oliy bosh qo'mondonning buyruqlarini kerakli joylarga yetkazuvchi harbiy mansabdor (adyutant).

Tumanbegi – o'n ming jangchidan iborat qism(diviziya) qo'mondoni.

To'qsoba – Buxoro amirligida mavjud bo'lgan o'n besh-ta oliy mansabning yettinchisi, o'z tug'iga ega harbiy bo'linma qo'mondoni (polkovnik).

Yasavulboshi – hukmdor yoki hokim tomonidan chiqarilgan farmon va buyruqlarning bajarilishini nazorat qiluvchi mansabdor.

Yefreytor – eng quyi harbiy unvon.

Yuzboshi – yuz jangchidan tuzilgan bo'linma boshlig'i.

**Test:**

1. *Suboshi* termini G.Dyorfer tomonidan qanday ma'noda o'g'irilgan?

- A) marshal
- B) general
- C) polkovnik
- D) admiral

2. Ko'k turk xoqonligi cherigida *ayg'uchi* istilohi qanday ma'noni ifodalagan?

- A) harbiy maslahatchi
- B) harbiy nozir
- C) harbiy vazir
- D) harbiy jarroh

3. Xorazmshohlar qo'shinida maosh ulashish vazifasi bilan kim shug'ullangan?

- A) jamakdor
- B) jondor
- C) silohdor
- D) shihna

4. *No'yon* istilohi o'zbek adabiy tiliga qaysi tildan kirgan?

- A) mo'g'ul
- B) sug'd
- C) xitoy
- D) yunon



5. *Cherigbegi* istilohi ilk bor qaysi asarda qayd etilgan?

- A) "Muqaddimat ul-adab"
- B) "Devonu lug'otit turk"
- C) "Muhokamat ul-lug'atayn"
- D) "Boburnoma"

6) *Ellik ulug'i* termini qaysi asarda qo'llangan?

- A) "Boburnoma"
- B) "Saddi Iskandariy"
- C) "Shayboniynoma"
- D) "Abdullanoma"

7) Buxoro amirligida "*shtab boshlig'i*" ma'nosini qaysi istiloh anglatgan?

- A) naqib
- B) to'ra
- C) sarxang
- D) amir ul-umaro

8) Qo'qon xonligi qo'shinida *to'pchilar boshlig'i* qanday atalgan?

- A) yovar
- B) pansod boshi
- C) to'pchi boshi
- D) qurboshi

9) Yuzbегining oylik maoshi nechta otning qiymatiga to'g'ri kelgan?

- A) 20ta
- B) 30ta
- C) 15ta
- D) 10ta

10. Sohibqiron davrida *qo'shun* istilohi nechta jangchidan tashkil topgan askariy bo'linmaga nisbatan qo'llangan?

- A) 50-100
- B) 100-500
- C) 500-600
- D) 600-800

11. *General* unvoni ilk bor qachon va qaysi davlatda paydo bo'lgan?

- A) Germaniyada, XV asrda
- B) Angliyada, XVII asrda
- C) Fransiyada, XVI asrda
- D) Rossiyada, XIX asrda



Adabiyot:

1. Абулғозий. Шажарайи турк. – Т.: 1992.
2. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. Т.1.Ч.1. – М.: 1963.
3. Бартольд В.В. Улугбек и его время. Соч. Т.II. Ч. 2. – М.: 1964.
4. Березин Н.И. Ханские ярлыки. Тарханные ярлыки Тохтамыша, Темир-Кутлука и Саадет Гирея. – Казань, 1851.
5. Владимирцов Б.Я. Общественный строй монголов. Монгольский кочевой феодализм. – Л.: 1934.
6. Гордлевский В.А. Государство Сельджукидов Малой Азии. Изб. соч. Т.1. – М.: 1960.
7. Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н. Проблемы лексики староузбекского языка. – Т.: “Фан”, 1990.
8. Дадабоев Ҳ. Соҳибқирон саркардалари. – Т.: “Nodira-begim”, 2020.
9. Doerfer G. Turkische und mongolische Elemente im Neupersischen. Bd.I-IV. – Wiesbaden, 1963-1975.
10. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: 1960.
11. Исмоилов М., Шаропов А. Тарих атамалари луғати. – Т.: “Akademnashr”, 2013.
12. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I-III. – Т.: 1960-1963.
13. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М.: “Наука”, 1975.

14. Мирза Бади-Диван. Маджма ал-аркам («Предписания фиска»)(Приемы документации в Бухаре XVIII в.). Факсимиле рукописи. Введение, перевод, примечания и приложения А.Б.Вильдановой. – М.: “Наука”, 1981.

15. Муқимов З. Шайбонийлар давлати ва ҳуқуқи. – Т.: “Адолат”, 2007.

16. Огаҳий. Асарлар. V жилд. – Т.: “Ғафур Ғулом”, 1978.

17. Огаҳий. Асарлар. VI жилд. – Т.: “Ғафур Ғулом”, 1980.

18. Огаҳий. Шоҳиду-л-иқбол (Иқбол шаҳодати). Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Н.Шодмонов). – Т.: “Муҳаррир”, 2009.

19. Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимуру (1403-1406). Перевод со староиспанского. – М.: “Наука”, 1990.

20. Семенов А.А. Бухарский трактат о чинах и званиях и обязанностях носителей их в средневековой Бухаре // Советское востоковедение. 1948, №5.

21. Ходжа Самандар Термези. Дастур ал-мулук (Назидание государям). Факсимиле старейшей рукописи. Перевод с персидского, предисловие, примечания и указатели М.А. Салахетдиновой. – М.: “Наука”, 1971.

22. Чориев З. Тарих атамаларининг қисқача изоҳли луғати. – Т.: “Шарқ”, 2002.

23. Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: А. Аҳмедов, Ҳ. Бобобеков. – Т.: 1997.

24. Шихаб ад-Дин Мухаммад ан-Насави. Жизнеописание Султана Джалал ад-Дина Манкбурни. Перевод с арабского, предисловие, комментарии, примечания и указатели З.М.Буниятова. – Баку: “Элм”, 1973.24.



25. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Саодатга йўлловчи билим). Нашрга тайёрловчи филология фанлари кандидати Қаюм Каримов. – Т.: “Фан”, 1972.

26. Ўразбоев А. Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси. Докторлик диссертация. – Т.: 2018.



Temuriy sarkardaning jangoldi ko'rinishi



Qo'shinning jangohdagi safi-yasoli



IKKINCHI BO'LIM



Amir Temur va To'xtamishxon sarkardalarining yakkama-yakka olishuvi





QO'SHIN TURLARI VA ASKARIY QISM NOMLARINI ANGLATUVCHI TERMINLAR

Reja:

1. Qo'shin turlarini ifodalovchi terminlar tizimi.
2. Askariy qism nomlarini anglatuvchi terminlarning rivojlanish yo'llari.
3. Jangovar tartibni ifodalovchi terminlarning bosqichma-bosqich takomillashuvi.

Asosiy tushunchalar: *avang'or, aloqa qo'shinlari, bulun, bo'linma, burang'or, juvang'or, korpus, ko'rug, motoo'qchi qo'shinlar, muqaddimat ul-jaysh, qo'l // g'o'l, qunbul // qumbul, oqinchi, raketa qo'shinlari va artilleriya, so'kman, sonsiz, soqa, tank qo'shinlari, qalb ul-jaysh, qulavuz.*

Ko'k turk xoqonligida "qo'shin" ma'nosini ifodalash uchun *Ksu* hamda *cherig* terminlaridan foydalanilgan. Xoqonlik qo'shini asosan suvoriylar – *otlig'su* hamda piyoda – *yadag', yadag'su* dan iborat bo'lgan. Xoqonlikdagi sinfiy-sulolaviy tabaqlanish qo'shin tuzilishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Chunonchi, cherigning zarbdor qismini tashkil qilgan otliqlar turk zodaonlari va ularning farzandlaridan tuzilgan. Og'ir qurolli otliq askarlar jangda hal qiluvchi rol o'ynagan. Ko'k turk suvoriysi ko'krak qismida dumaloq qalqonli *yaraq* – zirh bilan ta'minlan-

gan, boshiga *yashiq* – dubulg'a kiygan, *qilich*, shoxsimon *ya // yay* – kamon, uzun *sungug* – nayza va yog'ochdan yasalgan *to'qmoq* bilan qurollangan.

Tobe yurtlarning jangchilaridan tuzilgan yengil otliqlar aksariyat ayg'oqchilik (razvedka) vazifasini bajargan va zarur paytlardagina jangga kirgan.

O'troq aholidan safarbar qilingan piyoda askarlar – *yadag', yadag'suning* soni otliqlarga nisbatan bir necha bor oz bo'lgan. Piyodalar qal'a, qo'rg'on, hisor yoki istehkomlarni zabt etish, tog'li hududlarda jangovar harakatlar olib borishda qo'l kelgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Ko'k turk xoqonligida temir quyish ishining juda qadimdan rivoj topishi Xitoy va Eron lashkarlaridan har jihatdan ustun sovutli qo'shinning tarkib topishiga imkon yaratdi.

Ko'k turklar qo'shinida g'animning harbiy kuchlari, u yerdagi siyosiy vaziyat to'g'risida keltiriladigan ma'lumotlarga alohida e'tibor berilgan.

Harbiy harakatlar boshlanishidan ancha oldin *yov-yag'i* haqida zarur xabarlar olish maqsadida uning yurti yoki qarorgohiga *ko'rug*, ya'ni ayg'oqchilar peshma-pesh jo'natilgan. Yurishga chiqish arafasida cherigni qiyin va notanish joylardan boshlab boruvchi *yerchi* – yo'l boshlovchilar tayinlangan. Yerchilar ko'p hollarda mahalliy aholi ichidan saralab olingan.

Jangga kirishdan oldin turkiylar yov lashkargohi – *o'rdusi* joylashgan yerni aniqlash niyatida ayg'oqchilik (razvedka) ishlarini olib borishgan. Buning uchun *yalma // yelma* – maxsus otliqlar to'dasi faoliyat ko'rsatgan. Ushbu otliqlar guruhi ayg'oqchilik bilan shug'ullanish qatori, aksariyat vaziyatlarda dushmanning soqchilariga qo'qqisdan hamla qilib, "til" keltirishga ham xoslangan.

Kerakli sondagi *cherig* jam bo'lgach, uning hisobi olingan, jangovar otlar, ulovlar o'tloqlarda semirtirilgan, ov chog'ida o'lja olingan yovvoyi hayvonlar yoki boqilgan jonivorlar go'shti qoq-

langan, ularning terisidan charm kiyim-kechaklar tikilgan, jangchi (*cherigchi*)lar qurol-yarog'ini sozlagan.

Suboshining bo'ri boshi tasviri tushirilgan zarhal bayroq va tug'lar bilan bezatilgan qarorgohi-*o'rduda* harbiy mashvarat – *ken-gash* chaqirilgan, unda bo'lajak jang – *sungush*ning taktik tomonlari tahlil qilingan, bo'linma va qismlarning janggohda egallaydigan o'rnini belgilangan, har bir sarkardaga aniq vazifalar yuklatilgan.

Xoqonlik cherigi *o'n, yuz, ming, tuman* kabi bo'lim, bo'linma va qismlardan tashkil etilgan, ularga yuqorida ta'kidlanganidek, o'nboshi, yuzboshi, mingboshi va tumanboshilar qo'mondonlik qilgan.

O'rxun-Enasoy bitigtoshlaridagi ma'lumotlar xoqonlikda cherigning jangovar tartibi an'anaviy besh bo'lak *o'n* (o'ng qanot), *so'l* (chap qanot), *yizak // yazak* yoki *ilki su* (avang'or), *o'rtu* (markaz) va *ked* (arergard, soqa)dan tashkil topganligini ko'rsatadi. Bir necha kunlik masofada asosiy kuchlarni g'anaming hujumidan ogoh etuvchi soqchilar guruhi – *qarag'u* harakat qilgan. Ko'k turk xoqonligi cherigi jangovar tartibi, ya'ni *tizigini* quyidagicha tasvirlash mumkin:



Xoqonlikda “jangchi, askar” va “qo'shin” ma'nolari *cherig* istilohi qatori *er, eran* so'zlari bilan ham ifodalangan. *O'g'lon* termini bilan atalgan navqiron, yosh jangchilardan tuzilgan cherigning soni yetti-o'n ming atrofida bo'lgan. Qo'shinning muayyan qismi bahodir, mard, pahlavon askarlardan tashkil topgan va ular *alp, alpag'u* unvonlariga sazovor bo'lgan. Mohir o'q otuvchi, ya'ni mer-ganlarga ham *alp* unvoni berilgan. Jangda matonat va qahramonlik ko'rsatgan askar sharafli *botur* unvoniga munosib topilgan.

Ko'pdan ko'p janglar janggohda bir-biriga qarama-qarshi joylashgan har ikki tomon alplarining yakkama-yakka to'qnashuvi bilan boshlangan. U yoki bu alpning olishuvda zafar quchishi yoxud mag'lub bo'lishi lashkarning kayfiyatiga, jangovar ruhiga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

“Tarixiy Tabariy”da qayd etilishicha, turklar cherigida qonun tusiga aylanib qolgan bir odat bo'lib, unga muvofiq yakkama-yakka jang qilish uchun janggohga tushgan alp bir qo'lida *tug'* tutgan va otning egarida osig'liq turgan *tabl* (dovul-nog'oraning bir turi)ni qoqqan hamda o'z lashkaridan belgilangan uzoqlikdagi masofaga kelib, yov pahlavoni bilan kechadigan olishuvga shay turgan. Shundan keyin ikkinchi alp safdoshi (birinchi alp halok bo'lgan taqdirda) qilgan harakatni aynan takrorlagan va yanada beriroq masofada kelib turgan. Nihoyat, uchinchi alp janggohga ot surib, dovulini chalgach, butun qo'shin yoppasiga hujumga tashlangan¹⁸.

Muhoraba chog'ida *yog'i* – dushmandan qo'li baland kelgan askarga jangdan so'ng mukofot tarzida sharob to'la *ayoq* – kosa tutilgan, qo'lga kiritilgan o'ljaning katta bo'lagi unga in'om sifatida berilgan. Halok bo'lgan safdoshining jasadini janggohdan olib chiqqan jangchiga uning ashyolari tortiq qilingan, mansabi oshirilgan, maqtovlar va olqishlarga loyiq topilgan.

¹⁸ История ат-Табари. – Т.: “Фан”, 1987. – С. 20.

X asr oxiri – XII asrda Markaziy Osiyoning katta hududida turkiy davlatchilik an'analari zaminida shakllangan Qoraxoniylar saltanati qurolli kuchlari qurilishi masalalari Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Mahmud Koshg'ariyning arab tilida tuzilgan "Devonu lug'otit turk" asarida ifodasini topgan. 2001-yili Urumchida nashr etilgan Hoji Nurhoji qalamiga mansub "Qadimgi uyg'urlar va qoraxoniylar" nomli manbaning "Qoraxoniylar davridagi harbiy qo'shin" deb atalgan bobida ayni masala muayyan darajada yoritilgan. Ushbu satrlar muallifining 1981-yilda himoya qilingan nomzodlik dissertatsiyasida Qoraxoniylar qo'shini tuzilishida qo'llanishda bo'lgan terminlarga ham diqqat qilingan edi.

Qoraxoniylar hukmronligi davrida qo'shin ma'nosini ifodalashda Ko'k turk xoqonligi qurolli kuchlari tizimida ishlatilgan *su*, *cherig*, *erat* terminlari qo'llanishda davom etgan. Qo'shin *otlig'* va *yadag'* (piyoda)lardan tashqari, *o'qchi* -yoy otuvchi, ya'ni kamonkashlardan shakllantirilgan.

Harbiy qism- *tutug'*larda o'nlik tizimi yetakchilik qilgan. O'n kishidan iborat bo'lim bir chodir-*o'toqqa* joylashgan, unga *o'toqboshi* boshchilik qilgan. Aksariyat hollarda o'nta o'toq bir-lashtirilib, *xayl*, ya'ni yuzlik tashkil etilgan, bunday bo'linma *o'n o'toqboshi* rahbarligida harakat qilgan.

Qoraxoniylar qo'shinining jangovar tartibi – *tizik* Ko'k turk xoqonlari, G'aznaviylar, Saljuqiylar lashkari kabi besh qism, ya'ni ilg'or, o'ng qo'l, so'l qo'l, markaz hamda zaxiradan tashkil toptirilgan. Asosiy kuchlardan ancha oldinda ayg'oqchilik va razvedka ishlari bilan band bo'lgan o'tliqlar guruhi *tutg'oq* yurgan.

Markaziy qism, ya'ni *o'rtu* piyoda o'q-yoychilar (*o'qchi*, *o'q yoychi*) hamda og'ir qurollar bilan jihozlangan soqchi guruhlar – *yo'rtug'* yordamida kuchaytirilgan.

Dushman tomonning yerlari, mol-mulklarini tunda talash, uning saflariga qo'rquv va vahima solish ishlariga mo'ljallangan



tezkor o'tliqlar guruhi – *oqinchi* termini bilan yuritilgan. Yengil qurollar bilan ta'minlangan bunday o'tliqlar yov safidan asir (*til*) keltirishga ham yo'naltirilgan. Qo'lga tushirilgan asir-*bulun* (< *bul*=“ega bo'lmoq, qo'lga kiritmoq”) yoki *tutqun* (< *tut*= “ushlamoq, asir olmoq”)dan g'anim to'g'risida zarur ma'lumotlar olingan. Tungi hujum chog'ida ko'pdan ko'p o'lja, ya'ni *yarmaqon* yoki *borg'u* qo'lga kiritilgan va ular qo'shin ta'minoti, askarlar maoshi uchun sarf qilingan. Ta'minot masalasining talab darajasida yo'lga qo'yilishi bo'lajak jang va jadalning zafarli tugashida zamin vazifasini o'tagan.

Jangda mardlik va qahramonlik ko'rsatgan askarlar, botirlar *to'nga* (yo'lbars), *to'nga alp* (shavkatli bahodir), *so'kman* (dushman safini yoruvchi) singari unvonlar bilan sharaflangan.

Cherigni belgilangan yo'ldan boshlab borish vazifasi *yerchi*, *qulavuz* // *qulabuz* yoxud *yo'lchilarga* yuklatilgan. Hukmdorning saroyi, o'rdasi maxsus soqchilar – *navbat* tomonidan ehtiyot qilingan. Bunday soqchilar ikki guruhga taqsimlangan, ya'ni erta tongdan kech kurgunga qadar *turg'oq*, kun botish, shomdan tong otgunga qadar *yotg'oqlar* sergaklikni qo'ldan chiqarmagan. Soqchilar zarur qurol-yarog' hamda *tug'* – nog'ora bilan ta'minlangan.

Yurishga otlangan cherigning muayyan fursatdan so'ng to'xtashi (*o'ruk*) uchun oldindan sersuv, o'tloq manzillar (*tushun*) tanlangan. Kechalari askarlar *yotiq* // *yotig'* yoki *qo'nuqda* tunashgan. Tunash joyining tevarak-atrofi ehtiyot qilingan va *yizak* // *yazak* termini bilan nomlanishda davom etgan o'tliq askarlar tomonidan qo'riqlangan.

Qoraxoniylar qo'shinida “qo'shingoh, lashkargoh, lager” ma'nosi nafaqat *o'rd*, shuningdek, *to'y* istilohi bilan ham ifodalangan. Xonning qarorgohini anglatish maqsadida *xon to'y* termini muomalaga kirib kelgan. Toshkent viloyatining hozirgi markazi Nurafshon shahri yaqingacha To'ytepa nomi bilan yu-



ritilgani hammaga ma'lum. Ayni mana shu toponim tarkibidagi *to'y* so'zi "manzilgoh, qarorgoh" ma'nosini bildirgan.

Anushtegin (1077–1097) asos solgan Xorazmshohlar (1097–1231) saltanati o'z davrining qudratli armiyasini shakllantirish, uni vaziyat taqozo etganda oson to'ldirib borish, harbiylarni qurol-yarog', kiyim–kechak, oziq-ovqat, boshpana va h.k. bilan ta'minlash masalasiga favqulodda katta ahamiyat berilgan. Qo'shin zamonasining ilg'or qurollari bilan qurollangan, jangovar tayyorgarlik va intizom yuqori saviyada bo'lgan, sarkardalar jang olib borish san'atining turli usullarini maromida egallashgan. Qo'shinning tarkibi va soni rejalashtirilgan yurishning ko'lami va muddatiga muvofiq ravishda o'zgarib turgan.

Tarixiy ma'lumotlar 1195-yilda xorazmshoh Takish (1172–1200)ning devonxonasi daftarida 170 ming otliq askar ro'yxatga olingani, Alovuddin Muhammad (1200–1220) hukmronligining dastlabki kezarida bir kun ichida 70 ming atrofida suvoriy jang maydoniga ot surganidan dalolat beradi. 1218-yilda ushbu xorazmshoh 150 ming otliq va 100 ming piyoda qo'shinni ko'rikdan o'tkazgan¹⁹. Ulug'bek mirzoning "To'rt ulus tarixi"da Chingizxonning Movarounnahrda yurishi arafasida Sulton Muhammad Xorazmshoh ixtiyorida 400 mingdan kam bo'lmagan lashkar jamlangani qayd etilgan²⁰.

Xorazmshohlar qo'shini (*jaysh*) tarkiban og'ir hamda yengil qurolli otliqlar, yoychi piyodalar hamda ko'ngillilardan tashkil toptirilgan. Qo'shinni kerakli qurol-yarog', aslaha, yem-xashak, maosh bilan ta'minlovchi xizmat sohalari ham faoliyat olib borgan. Sovut, zirh yasaladigan ustaxona (*zarradxona*)larda mohir ustalar (*zarrod*) mehnat qilgan. Harbiy amaliyotlarda muttasil qatnashadigan qismlardan tashqari, xorazmshohlarning *mam-*

¹⁹ Буниятов З.М. Государство Хорезмшахов-Ануштегинов (1097–1231), – М.: "Наука", 1986. – С. 89–90.

²⁰ Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. – Т.: "Чўлпон", 1994. – Б. 135.



luk (qul, g'ulom)lardan iborat xos soqchilari (*xodim ul-xoss*) ham mavjud bo'lgan. O'n ming yosh, navqiron yigitlardan tashkil etilgan ushbu otliq guruh *malik ul-xavoss* qo'mondonligida sultonning yonida turib, jang qilgan. Bulardan tashqari, suvoriylardan tuzilgan soqchilar guruhi (*nauba*) saroyini qo'riqlash qatori, turli harbiy safarlarga, tijorat korvonlarini qo'riqlash ishlariga ham jalb etilgan.

Yurish chog'ida hamda janggohda xorazmshohlar qo'shini quyidagi tartibda harakat qilgan va saf tortgan. Asosiy kuchlardan muayyan masofada (*razvedka*) ayg'oqchilik bilan shug'ullanuvchi *yazak* yurgan. Qo'shinning oldida joylashgan ilg'or qism – *muqaddimat ul-jayshga* tajribali jangchilar qatori, shijoatli, serg'ayrat yoshlar ham tayinlangan. Botirlardan iborat o'ng qo'l – *maymana* xonlar, maliklar yoki amirlar tomonidan boshqarilgan. Asosan o'q-yoychilardan tuzilgan qo'shinning so'l qanoti – *maysara* ham jangga shay turgan.

Oliy bosh qo'mondon rahnamoligida markaz – *qalb ul-jaysh* pahlavonlar, xos soqchilar hamda yengil qurolli jangchilar (*jari-da*)dan tashkil topgan, qo'shinning jangovar bayrog'i – *alam* shu yerda tikilgan.

Ma'lumki, yigirma yettita mamlakatning birlashtirilishi oqibatida barpo etilgan Amir Temurning markazlashgan saltanati harbiy kuchlari tuzilishi, vazifalari, davlatdagi o'rni, boshqarilishi masalalari Nizomuddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiylarning "Zafarnoma", G'iyosuddin Alining "Temurning Hindistonga yurishi", Abdurazzoh Samarqandiyning "Matlai sa'dayn va majmai bahrayn", Muinuddin Natanziyning "Muntaxab ut-tavorixi Muiniy", Kastiliya elchisi Rui Gonsales de Klavixoning kundaliklari, Ibn Arabshohning "Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur", Hofizi Abruning "Majmu ut-tavorix us-sultoniy", Mirxondning "Ravzat us-safo" singari qator tarixiy manbalarda batafsil yoritilgan.



Qo'shinning ortida jang paytida asosiy kuchlarga ko'mak berish yoki uni dushman hamlasidan saqlash maqsadida *soqa* istilohi bilan ifodalangan otliq askarlar qismi joylashgan. Xorazmshohlar qo'shinining jangovar tartibini quyidagicha tasvirlash mumkin:



Amir Temur tuzgan qo'shinda muntazam armiyaga xos ko'pgina belgilar mavjud edi. Chunonchi, qo'shin son jihatdan aniq va puxta tashkil qilingan, uning *yasol* – jangovar tartibi mutasili takomillashtirilgan, o'z zamonasining ilg'or qurol va texnikasi bilan qurollantirilgan, aynan bir turdagi qurol-yarog', aslaha-anjom bilan ta'minlangan qism va birlashmalar kiyim-boshi, ko'tarib yurgan tug' va bayrog'i orqali ham o'zaro farqlangan. Bunday ajralib turish jang vaqtida qo'shinni boshqarishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Qo'shinning *bo'lim*, *bo'luk* – polk va *tuman* – diviziyalarga bo'linishi, ularning har biri uchun muayyan bichim va rangdagi kiyim (forma)larning joriy etilishi singari yangiliklar keyinchalik yevropalik xalqlar tomonidan o'zlashtirildi. Sharafuddin Ali



Yazdiy usmonli turk sultoni Yildirim Boyazid bilan jang qilish maqsadida yurishga chiqqan Sohibqironning Sivos sahrosida qo'shinni ko'rikdan o'tkazish jarayonini tasvirlash chog'ida Muhammad Sulton mirzo qo'mondonligidagi cherigning bir necha *bo'lak* (polk)lardan iboratligi, ular qizil, yashil, sariq va oq rangli qurol-yarog'lar, kiyimlar bilan qurollanganligiga alohida diqqat qaratgan²¹.

Amir Temur va Temuriylar davrida "qo'shin, armiya" ma'nosini ifodalash asosan Ko'k turk hoqonligi va Qoraxoniylar zamonida *su* istilohi bilan yonma-yon qo'llangan *cherig* hamda fors-tojik tilidan o'zlashgan *sipoh* terminlari zimmasiga yuklatilgan, ayrim manbalarda Xorazmshohlar davri harbiy terminlar tizimida faol ishlatilgan arabcha *jaysh* istilohining ham iste'mol qilinganligini ko'rish mumkin. Amir Temur qo'shinida turli tuman, viloyat, o'lka, yurtlardan oliy farmonga ko'ra yig'ilgan otliq hamda piyoda jangchilar forscha-tojikcha *lashkar* o'zlashmasi bilan anglashilgan.

Bugungi kunda "qurolli kuchlar, armiya" ma'nosida faol qo'llanayotgan *qo'shin* termini *qo'shun* shaklida o'zbek tiliga mo'g'ul tilidan o'zlashgan. Chingiziylar qo'shinida ushbu istiloh maxsus harbiy qismni bildirgan. Temuriylar davrida 50 tadan 100 tagacha jangchilardan tashkil etilgan kichik harbiy bo'linmalar *qo'shun* deb yuritilgan. Nizomuddin Shomiy "Zafarnoma" asarining bir o'rnida Amir Temur 200 ta askardan to'rt, boshqa bir joyida 600 jangchidan yetti qo'shun tuzishga buyruq berganini ta'kidlaydi. Abdurazzoq Samarqandiy 1409-yilning aprel oyida Umar mirzo (Mironshohning o'g'li) g'o'lning besh ming kishidan iborat o'g'ruqi (oboz)idan tashqari, har biri 500 otliqdan tashkil topgan 47 ta mukammal, ya'ni 23500 askardan iborat

²¹ Шарофуддин Али Йаздий. Зафарнома. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: А.Аҳмедов, Ҳ.Бобобеков. – Т.: 1997. – Б. 257.

qo'shinni ko'rikdan o'tkazganini yozgan²². 1393-yilning 26-aprelida Amir Temur va Sheroy hukmdori Shoh Mansur o'rtasida kechgan jangda *vafodor* va *emlik* nomlari bilan shuhrat qozongan Allohodbek hamda Shayx Nuruddinbek qo'mondonligidagi qo'shunlar qavchinlardan tashkil etilgan va *bo'y qo'shun* deb atalgan ming kishilik *xos hazora* joylashgan²³.

1395-yilning 19-aprel kuni Tarak (Terik) daryosi yaqinida To'xtamishxon va Amir Temur o'rtasida yuz bergan dahshatli jang paytida Sohobqiron cherigdan saralab olingan 27 qo'shun bilan qo'lda turgan²⁴. *Qo'shun* istilohi bilan atalgan harbiy kuchlarga *qo'shun beglari* rahbarlik qilgan.

Bobur va Shayboniyxon qo'shinida "lashkar, askar" ma'nosini ifodalashda *sipoh*, *cherig*, *lashkar* terminlari qatori, mo'g'ulcha *navkar* o'zlashmasining qo'llanish darajasi ham ancha baland bo'lgan. Chingiziylar davrida *navkar* istilohi xon yoki boshqa mo'g'ul rahnamolari xizmatida bo'lgan shaxs (drujinachi) larga nisbatan qo'llangan. Tarix navkarlarning mustaqil korpus va qo'shinga qo'mondonlik qilganligidan dalolat beradi²⁵.

Bobur "Boburnoma" da ashaddiy g'animi Ahmad Tanbal cheringning 10 ming navkardan iborat bo'lganligi xususida ma'lumot qoldirgan²⁶. Qo'shin otliq va piyoda askarlardan iborat bo'lgan. Temuriylar cherigida *yayog'/yayoq*, ya'ni piyoda askarlarga mo'g'ullarga qaraganda ko'proq diqqat qaratilgan. Uzoq yurish-

²² Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II жилд. 1405–1429 йиллар воқеалари. – Т.: "Ўзбекистон", 2008. – Б. 59.

²³ Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: А.Аҳмедов, Ҳ.Бобобеков. – Т.: 1997. – Б. 153.

²⁴ Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: "Ўзбекистон", 1996. – Б. 210; Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: А.Аҳмедов, Ҳ.Бобобеков. – Т.: 1997. – Б. 176.

²⁵ Владимирцов Б.Я. Общественный строй монголов. Монгольский кочевой феодализм. – Л.: 1934, – С. 91; Греков Б.Д., Якубовский А.Ю. Золотая Орда и ее падение. – М.: – Л.: 1950. – С. 42.

²⁶ Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: 1960. – Б. 72.



lar chog'ida yayoqlar ham ot bilan ta'minlangan yoxud otliq askarga mingashib olgan.

Piyodalardan qal'a, hisor va qo'rg'onlarga hujum qilish, mudofaa inshootlari tagidan *naqb* – lahm qazish, tog'li hududlarda jang olib borish amaliyotlarida foydalanilgan. Asosan o'q yoy bilan qurollangan piyoda askarlar yog'ini kamondan shiba o'qi yog'dirish ishiga safarbar qilingan. Piyoda qo'shinlar ko'p hollarda tobe va ittifoqdosh yurtlardan to'plangan jangchilardan tarkib toptirilgan. Chunonchi, Amir Temurning Hindistonga qilgan yurishida (1398-1399) xurosonlik piyodalar Ali Sulton tavochi rahbarligida qo'shin markazi (*qo'l*, *g'o'l*) oldidan o'rin egallagan.

Qo'shinning zarbdor va jangovar qismini otliq jangchilar tashkil qilgan. Asl o'zbekcha *otliq* // *otlig'* hamda forschatojikcha *suvor* // *suvoriy* istilohlari bilan ifodalangan qo'shinning ushbu yetakchi kuchi og'ir va yengil qurolli otliqlarga taqsimlangan.

Og'ir qurolli suvoriy qo'shinning bosh vazifasi dushman-ga hal qiluvchi zarba berishdan iborat bo'lgan. Chingiziyalarda bunday otliqlardan zaxira va xonni qo'riqlash maqsadida foydalanilgan. Amir Temur esa jangda ularning ahamiyatini yanada oshirib, qo'shinning yetakchi qismiga aylantirdi. Og'ir qurolli suvoriylarning ulkan ulushini sara otliqlar tashkil qilgan. Sohobqiron cherigida o'n ming otliqdan shakllantirilgan va *sonsiz* nomi bilan yuritilgan xos gvardiya ham mavjud edi. 1398-yilning 17-dekabr kuni Dehli shahri yaqinida Sulton Mahmudxon, Malluxon va Tag'oyxon boshliq Hindiston qo'shini bilan Amir Temur cherigi o'rtasida yuz bergan jang chog'ida *sonsiz* tuman markaz, ya'ni *g'o'l* (*qo'l*) dan o'rin olgan edi²⁷.

²⁷ Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: А.Аҳмедов, Ҳ.Бобобеков. – Тошкент, 1997. – Б. 204.



Sara otliqlar dubulg'a, qilich, o'q-yoy, sadoq, nayza, gurzi va qalqon bilan qurollangan. Har besh sara otliq uchun bir dona *chodir* berilgan.

Yengil qurolli suvoriylar oddiy askarlardan shakllantirilgan, ular o'q-yoy va qilich bilan ta'minlangan. Bundan tashqari, ularga ayg'oqchilik (razvedka) paytida asqotadigan arra, bolta, o'nta igna, tasha va ikkita zaxira ot ham berilgan, har 18 nafar otliq bitta *chodir* bilan ta'minlangan.

Amir Temur va Temuriylar cherigida asosiy jangovar bo'linmalardan tashqari, bir qancha yordamchi harbiy qismlar ham bor edi. Ular sirasiga mustahkam mudofaa inshootlariga ega qal'a, qo'rg'on va shaharlarni qamal qiluvchi, tosh yoki qaynoq *naft* otuvchi, devorlarni buzib, rahna ochuvchi o'ziga xos artileriyani boshqarish bilan shug'ullangan askarlar ham kirgan. Sohibqiron qo'shiniga "yunon olovi"ni irg'ituvchi qurol – *ra'dni* olib kirishga muvaffaq bo'lgan. Bunday o't sohadigan qurolni ishlatadiganlar *ra'd otquchi* va *ra'dandoz* istilohlari bilan anglashilgan. Nizomuddin Shomiyning yozishicha, Amir Temurda bunday qo'shin turining soni o'n ming kishidan ortiq bo'lgan va ular ilk bor 1379-yilda Urganchni qamal qilishda qatnashgan²⁸.

Amir Temur, Temuriylar va Shayboniylar qo'shinida *taxsh*, ya'ni arbalet (kamonga o'xshash qurol) bilan jihozlangan o'qchi qismlar ham mavjud bo'lib, ular *taxsh otquvchi* yoki *taxshandoz*lar deb yuritilgan. Bu davr qurolli kuchlari tarkibida metallardan yasalgan uzun o'q yoki ichi yonuvchi modda yoxud naft bilan to'ldirilgan idish otuvchi qo'ndoqli qurol – *tiri charx*ni ishlatuvchi jangchilar guruhi ham bor edi. Tiri charxning rang-barang turlari Sharq va Vizantiyada XII asrdan ancha avval ma'lum bo'lib, Chingizxon hamda Xorazmshohlar tomonidan ham keng qo'llangan. Nizomuddin Shomiy 1394-yilning iyun-iyul oyida

²⁸ Беленицкий А.М. О появлении отнестрельного орудия в Средней Азии в XIV-XVI вв. Известия АН СССР. Таджикский филиал. – Сталинабад, 1949.



Anatoliyadagi Araks daryosi bo'yida joylashgan mustahkam Avnik qal'asini zabt etishda Amir Temur manjaniq, ra'd, arrodalar qatori, tiri charxdan ham foydalanganini ta'kidlagan²⁹.

Zahiriddin Muhammad Boburning son jihatdan katta bo'lmagan cherigida o't sochuvchi *tufak* // *tufang*, *miltiq* bilan qurollangan *tufangandoz*, *miltiqchi* va *miltiq otquvchi* terminlari bilan anglashilgan askarlar ham xizmat qilgan. Boburning Hindiston hukmdori Ibrohim Sulton bilan 1526-yili Ponipatda kechgan jangida tufangandozlarga odam bo'yi barobar *tura* hamda arqonlar bilan bir-biriga bog'langan 700 ta arava ortida joylashib, dushmanni va uning jangovar fillarini o'qqa tutishdek muhim taktik vazifa yuklatilgan. Tufangandozlar Shayboniylar va uch xonliklar qo'shinida ham faoliyat yuritgan.

Yordamchi harbiy qismlar sirasidan yerosti yo'li, ya'ni lahm (*naqb*, *nag'am*) qazish, ko'priklar qurish (*ko'fruk bog'lash*), kemalar yasash bilan mashg'ul bo'lgan guruhlar ham o'rin olgan.

Amir Temur Hindiston, Fors va Rum (Turkiya) yurishlari chog'ida o'ta mustahkam mudofaa istehkomiga ega qal'a, qo'rg'on, shahar va hisorlarni egallashda naqbcilardan ustalik bilan foydalangan. Nizomuddin Shomiyning "Zafarnoma" asarida *naqbcchi*, Sharafuddin Ali Yazdiyda *nag'amchi* istilohlari bilan nomlangan jangchilar dushman mudofaa inshootlari devori tubini kovak qilib, unga o'tin, shox-shabba qalab, o't yoqish orqali rahnalarni ochish, devorlarni qulatish ishlarini bajarishgan.

Kemachilar, solchilar zimmasida nafaqat qayiq, kema va sollar yasash, shuningdek, keng va chuqur daryolardan qo'shin, harbiy texnika va *o'g'ruq* (oboz)ni olib o'tish vazifasi ham turgan.

Qo'shinda jangchilarni turfa qurol-yarog', aslaha-anjom bilan ta'minlash masalasiga favqulodda katta ahamiyat qaratilgan. Kastiliya elchisi Klavixoning guvohlik berishicha, Amir Te-

²⁹ Низомуддин Шомий. Зафарнома. – Т.: "Ўзбекистон", 1996. – Б. 205.



mur yurishlari vaqtida mohir qurolsoz ustalarni o'z qarorgohida jamlagan. Samarqand arkida joylashgan ustaxonada mingga yaqin qurolsozlar turli qurol-yarog', qalqon va sovutlar yasash bilan shug'ullangan.

Tayyor qurol-yarog' va sovutlar alohida ombor – *jibaxonada* saqlangan va yurish arafasida jangchilarga tarqatilgan. *Zirihgar* istilohi sovutning turfa turlarini yasovchi ustalarga nisbatan qo'llangan. Yordamchi harbiy qismlar haqida so'z ketganda, albatta, yirik muhorabalar chog'ida qo'shinning markazidan o'rin olib, askarlarni jangga rag'batlantirish, ularning jangovar ruhini ko'tarish maqsadida kuy-marshlarni ijro etuvchi harbiy cholg'uchilarning rolini ham eslab o'tish maqsadga muvofiq.

Harbiy musiqachilar O'rta Osiyo xonliklari qo'shinida ham mavjud bo'lgan. Tarixiy manbalar *karnaychi*, *surnaychi*, *nog'orachi*, *naychi*, *dovulchilardan* iborat harbiy musiqachilar harbiy yurishning boshlanishi, qo'shinning harakati hamda erishilgan zafarlardan aholini xabardor qilish vazifasini ham ado etgan. Surnay, nog'ora va karnay sadolari ostida askarlar o'zlari uchun belgilangan joyda to'planishgan. XIX asrda Qo'qon xonligi, Buxoro amirligi qo'shini tarkibidagi musiqachilar *dasta* (rota)lar bo'yicha taqsimlangan. 14 ta nog'orachi va 14 ta surnaychidan tashqari, otliqlar guruhi (batalon)da 4 ta karnaychi ham xizmat qilgan va h.k.

Tuzilishiga ko'ra, Amir Temur qo'shini o'n, yuz, ming va tumanlarga bo'lingan. Ularga yuqorida ta'kidlanganidek, *o'nbegi*, *yuzbegi*, *mingbegi* va *tumanbegilar* sardorlik qilgan.

Tarixiy manbalar Amir Temur, Temuriylar, Shayboniylar, o'zbek xonliklari qo'shinining jangovar tartibi, asosan, klassik besh qismdan iborat bo'lganligini ko'rsatadi. Biroq Amir Temur ushbu jangovar tartibga o'zgartirish kiritib, uni yetti qismga aylantirdi va ushbu novatorligi bilan jahon harb ishi va harb san'ati rivojiga ulkan ulush qo'shdi.



“Jangovar tartib, saf” ma'nosini ifodalash uchun Amir Temur davrida *murchil*, *yasol*, *yasov*, *saf* kabi istilohlar faol qo'llangan. Sharafuddin Ali Yazdiyning ta'kidlashicha, *murgilga* binoan yurishga chiqqan qo'shin ularni boshqaruvchi sarkardalarning darajasidan kelib chiqib, harakat qilgan³⁰. *Yasa*= “tizmoq, joylamoq, yasamoq” so'zidan hosil bo'lgan *yasol*, *yasov*, *yasov* istilohlari ma'no-mohiyati nuqtai nazaridan o'zaro bog'liq bo'lgan. Xiva xonlari tarixiga doir obidalarda asl o'zbekcha *yasov* istilohi qatori, XIV asrlarda arab tilidan o'zbek tiliga kirib kelgan *saf* o'zlashmasi ham keng ishlatilgan.

Sharafuddin Ali Yazdiyning qayd etishicha, Somona qal'asidan Dehli tomon yo'lga chiqqan Amir Temur qo'shini yasoli 48 km (*olti yag'och*) masofani tutgan.

Yurish chog'ida asosiy kuchlardan ancha uzoq masofada *qaravul* istilohi bilan atalgan soqchi otliqlar guruhi harakat qilgan. Dushman kuchlari haqida xabar keltirish, “til” o'lja qilish vazifalariga xoslangan ushbu harbiy tuzilma XIX asrning oxirlariga qadar ahamiyatini saqlab qolgan. Saljuqiylar qo'shinida ham kichik soqchi guruh (*dozor*) ma'nosini anglatgan *qaravul* termini keyingi davrlarda “soqchi, posbon” ma'nosini ifodalashga yo'naltirgan. Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, Anqara bo'sag'asidagi janggohda joylashgan Sohobqiron Shohmalikbekni ming kishilik qaravulga bosh qilib, Yildirim Boyazid cherigidan til olish uchun jo'natgan. Tunda otlanib, taxminan 80 km. (10 yag'och) yo'lni bosib o'tgan mazkur qism tongga yaqin turklarning ayg'oqchilariga pistirmadan hujum qilib, ularni tor-mor etgan³¹. Anqara jangini quyidagicha sxemalashtirish mumkin:

³⁰ *Тизенгаузен В.Г.* Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды. Т. 2. Извлеч. из персидских соч. – М. – Л., 1941. – С. 173.

³¹ *Шарафуддин Али Йаздий.* Зафарнома. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: А.Аҳмедов, Ҳ.Бобобеков. – Т.: 1997. – Б. 258.



Jangovar tartib – *yasol*ning boshida tajribali, yoshi nisbatan katta jangchilardan tuzilgan, yengil qurollar bilan ta'minlangan otliq va piyoda qismlar harakat qilgan. Bunday qism mo'g'ulcha *manglay* // *mang'lay*, *hiravul* // *iravul*, arabcha *taloya* va o'zbekcha *old* istilohlari bilan ifodalangan. 1391-yilning 18-iyunida Qunduzcha mavzesida dashti qipchoqliklar bilan yuz bergan jangdan olti kun oldin Muhammad Sulton mirzo Amir Temur qo'shinining *mang'lay* (Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida *mang'lay* va *hiravul*) qismiga qo'mondon etilib, To'xtamishxondan xabar topish uchun yuborilgan.

Dushmanning birinchi zarbasini qabul qilib oladigan *hiravul* (*mang'lay*, *manglay*) jang paytida og'ir vaziyatga tushib qolgan taqdirda, unga markaz yoki zaxira qismidan ko'mak yuborilgan. Chunonchi, 1398-yilning 17-dekabr kuni Sulton Mahmudxon boshliq hindlar bilan kechgan jang boshlanishida Shayx Nuruddinbek, Shohmalikbek va Allohodbek qo'mondonligidagi *hiravul*da vaziyat keskinlashgach, Amir Temur hukmiga muvofiq Ali Sulton tavochi va Rustambug'a singari sarkardalar boshliq

guruhlar ko'makka kelgan. *Hiravul* istilohi Bobur, Shayboniylar, O'rta Osiyo xonliklari qo'shinida faol qo'llangan. Fors-tojik tilida bitilgan manbalarda bot-bot *muqaddima*, *muqaddimai sipoh*, *pehdor* hamda *peshrav* istilohlari *mang'lay* va *haravul* terminlariga ma'nodosh sifatida qo'llangan. "Boburnoma" hamda "Shajarayi turk"da *hiravul* istilohining *iravul* shakli ham ishlatilgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Amir Temur yirik janglarda qo'shinning o'ng va chap qanotlarini ham *hiravul* bilan ta'minlagan. Qo'shinning o'ng qanoti so'l qanot, markaz va zaxira qism (*chag'davul*, *soqa*) kabi og'ir qurolli otliqlardan tashkil topgan bo'lib, asl o'zbekcha *o'ng*, *o'ng qo'l*, mo'g'ulcha *barang'or* // *burang'or*, arabcha *maymana* va *yamin* istilohlari yordamida anglashilgan. *Burang'or* // *barang'or* istilohi o'zbek tiliga mo'g'ullar istilosidan keyin kirib kelgan bo'lib, XIX asrgacha iste'molda qolgan. Yuqorida keltirilgan terminlar bilan ifodalangan o'ng qo'l jangchilariga atoqli sarkardalar yoxud sulola vakillari qo'mondonlik qilgan. 1391-yilning 18-iyun kuni Qunduzchada To'xtamishxon bilan sodir bo'lgan muhorabada Amir Temur qo'shinining o'ng qanotini boshqarishni Mironshoh mirzoga, Hindiston hukmdori Sulton Mahmudxon qo'shini bilan yuz bergan to'qnashuvda Pirmuhammad mirzo va Rustam mirzo qatori, Sulaymonshoh, Yodgor barlos, Shayx Nuruddin singari beklarga, Anqara jangida Shohruh mirzo va Halil Sulton mirzoga topshirgan.

Somoniylar va Xorazmshohlar davrida faol ishlatilgan *maymana* va *yamin* istilohlari Xiva xonlari qo'shinida ham qo'llanishda qolgan.

Qo'shinning chap qanotini nomlashda o'zbekcha *so'l*, *so'l qo'l*, mo'g'ulcha *juvang'or* // *javang'or*, arabcha *maysara* va *yasor* istilohlariga murojaat qilingan. Ushbu qism o'ng qanot singari og'ir qurollar bilan jihozlangan otliq askarlardan iborat bo'lib, dushmanning o'ng qanotiga qarshi turgan. 1393-yilning marti-



da Potilada Amir Temur va Sheroz hokimi Shoh Mansur o'rtasida yuz bergan jangda Muhammad Sulton mirzo so'l qo'lga tayinlangan. 1398-yilda hindlarning 10 ming otliq, 40 ming yayog' va 120 jangovar fillardan iborat qo'shini tor-mor etilgan jangda Amir Temur kuchlarining so'l qanotiga Sulton Mahmudxon, Xalil Sulton mirzo, Jahonshohbek, Shohmalikbek kabi sarkardalar boshchilik qilgan. Keyingi davrlarda, ayniqsa, Xiva xonligida *juvang'or* terminining ishlatilish darajasi yuqori bo'lib, harbiy istilohlar tizimidan mustahkam joy egallagan. O'rni bilan arabcha *maysara* va *yasor* o'zlashmalari ham qo'llanishda davom etgan. Kezi kelganda qo'shinning o'ng va so'l qanotlari, ya'ni *barang'or* // *burang'or* (yamin, maymana) va *juvang'or* (yasor, maysara) terminlari bilan ifodalanganini ta'kidlash joiz. Ma'lumki, hozirgi o'zbek harbiy terminlari tizimida "qanot" ma'nosi *flang*, *yon tomon*, *qanot* so'zlari yordamida anglashilmoqda. Terminologiyada ma'nodoshlikka yo'l qo'yishning maqsadga muvofiq emasligidan kelib chiqib, qayd etilgan ma'noni faqat *qanot* termini bilan ifodalash maqsadga muvofiq.

Qo'shinning oliy bosh qo'mondon sarkardaligidagi markaziy qismi tahlil qilinayotgan sulolalar qo'shinida asosan mo'g'ulcha *g'o'l* (qo'l so'zining fonetik shakli) va arabcha *qalb*, *qalbgoh* istilohlari bilan nomlangan. G'o'l // qo'l o'zlashmalari boshqa bir qancha mo'g'ulcha istilohlar singari o'zbek tiliga XIII asrdan keyin kirib kelgan. *Qo'l* istilohi "markaz" ma'nosidan tashqari, "qism, bo'lak"ni ham anglatgan. Xususan, Sharafuddin Ali Yazdiy Amir Temurning Qunduzcha jangida qo'shinini yetti *qo'l* – qismga taqsimlaganini qayd etgan³². Ushbu muhoraba chog'ida markaz – *ulug' qo'l* (g'o'l) Muhammad Sulton mirzoga topshirilgan, markazning ikki yoni bahodurlardan iborat otliq guruhlar bilan

³² *Шарафуддин Али Йаздий*. Зафарнома. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: А.Аҳмедов, Ҳ.Бобобеков. – Тошкент, 1997. – Б. 137.



mustahkamlangan. Ayni shunday holatni Terek daryosi yaqinida movarounnahrlik va dashti qipchoqlik qo'shinlar o'rtasidagi to'qnashuv sahnasida ham kuzatish mumkin. Ayrim manbalarda markaziy qismni nomlashda *ichki qo'l* termini ham ishlatilgan. Shayboniylar qo'shinida ham "markaz"ni anglatishda yuqorida zikr qilingan terminlar keng qamrovda qo'llangan. O'rta Osiyo xonliklari, xususan, Xiva xonligi qo'shinida "markaz" ma'nosi aksariyat *qalbgoh* termini bilan nomlangan. XX asr boshlarida tahlilga tortilayotgan ma'no Ko'k turk xoqonligi va Qoraxoniylar davridagi *o'rtu* hamda *markaz* istilohlari yordamida ifodalangan. Hozirgi o'zbek harbiy terminlari tizimida faqat *markaz* istilohining qo'llanishi o'rinli. Qo'shinning ort qismi – arergard ma'nosini ifodalashda o'zbekcha *ort*, mo'g'ulcha *chag'davul* va arabcha *soqa* terminlari qo'l kelgan. Bugungi kunda ham harbiy terminlar safida muhim o'rin egallab turgan *ort* istilohi o'rganiylayotgan davrda nisbatan oz qo'llangan. Buning boisi *soqa* va ayniqsa, *chag'davul* istilohlarining faol ishlatilishda bo'lganligidir. *Chag'davul*, *chandavul* // *changdavul* // *chindavul* shakllarida iste'mol qilingan mo'g'ulcha o'zlashma nafaqat markaziy Osiyo, balki Kichik Osiyoda ham ma'lum bo'lgan. XVIII–XIX asrlarda *chag'davul* // *changdavul* "ort qism, arergard" ma'nosi qatori, *soqa* qo'mondoni hamda otliq soqchilar va otliq qarovul boshlig'ini ham bildirgan.

Xorazmshohlar qo'shini tarkibidagi ort qismni anglatish uchun xizmat qilgan *soqa* istilohi uch xonliklar, alalxusus, Xiva xonligi sipohida ort, aryergardni ifodalashda qo'llanavergan.

Qo'shinning jangovar tartibi – *yasol* xususida mulohaza yuritganda Ulug'bek mirzoning "Tarixi arba' ulus" asarida qayd etilgan istilohlarni nazardan qochirmaslik zarur. Zero, asarda keltirilgan istilohlarning ayrimlari boshqa manbalar matnida mavjud emas. Muallifning yozishicha, O'g'uzxon odamlari va askarlarini jamlab, yetti qismga bo'ladi. Birinchi qismni *buljung'or*



tarzida atab, lashkarning peshrav – oldidan qo'yadi, turkiyda buni *qaravul* deyilar.

Ikkinchi qismga *burang'or* deb nom beradi va unga *buljung'or* ortidan yurishni buyurdi. Bu qismlar bir-birining ahvolidan boxabar bo'ladigan oraliqda joylashgan. Ushbu burang'orni turkiyda *yaravul* (iravul, hiravul) hamda *manqlay* ham deyishadiki, uni arabchada *muqaddimat ul-jaysh* deb tushunishadi. Bu qismdan serg'ayrat va jangovar yoshlar o'rin olgan bo'lib, shijoatlarini namoyish etish uchun qo'yilgan edi. Uchinchi qism *avang'or* deb atalgan va lashkarning *o'ng qo'l* tomonidan otilgan yoy o'qi masofasida yurishi muqarrar qilindi. U turkiyda *o'ng qo'l*, arabchada *maymana* deyiladi. To'rtinchi qism *javang'or* (juvang'or) deb atalib, qo'shinning so'l qo'l tomonidan o'ng qo'l yuradigan masofada joylashtirildi, ya'ni bir kamon o'qi yetarlik yakkaboz yo'ldan borishi belgilandi. Uni turkiyda *so'l qo'l* deydi-larki, arabchada *maysara* nazarda tutiladi. Beshinchi qism o'rtada joylashib, *g'o'l* deb nomlangan. O'g'uzxon ayni g'o'l o'rtasida tug' va bayroqlar ostida joy olgan. Ushbu g'o'l turkiyda *yasov*, arabiyda *qalb ul-jaysh* deb ataladi. Oltinchi qism *ukjung'or* tarzida nomlangan. Bu qism g'o'l yonidan yurgan, ularning changi va qorasini g'o'ldagilar ko'rib turishi zarur hisoblangan. Mazkur qism turkiyda *changdavul* yoki *ukcha*, arabiyda esa *soqa* deb yuritilgan. Yettinchi qismni *bustung'or* deyilar. *Bustung'or* javong'ordan keyin, *maymana* (o'ng qo'l) va *yasor* (so'l qo'l) oralig'iga mos keladigan masofada joylashadi. Ularning qorasi va changidan dushman ogoh bo'lmasligi lozim hisoblangan. Bu qism turkiyda *buxturma* (pistirma), forsiyda *kamingoh* deb nomlangan³³.

Ulug'bek mirzo tasvirlagan O'g'uzxon qo'shini yasoli chizmada aksini quyidagicha topadi:



Amir Temur, Temuriylar va Shayboniylar, uch xonliklar qo'shini yasolini ifodalovchi terminlar va Ulug'bek mirzo qayd etgan istilohlarning qiyosida juz'iy farqning mavjudligi ko'zga chalinadi. Chunonchi, "To'rt ulus tarixi"da qo'shinning o'ng qo'lini anglatgan *avang'or* termini boshqa birorta manbada uchramaydi. Uning o'rnida mo'g'ulcha *burang'or* // *barang'or* o'zlashmasi keng ishlatilgan. 2012-yilda "Sharq" nashriyotida chop etilgan "O'zbekistonda harbiy ish tarixidan (qadimgi davrdan hozirgacha)" monografiyasida *avang'or* termini qo'shinning ilg'or qismi, ya'ni avangardni ifodalash uchun qo'llangan.

Amir Temurning jahon harb ishi va harb san'atiga qo'shgan ulkan xizmatlaridan biri cherig qanotlarini jang paytida dushman hamlasidan himoya qilish va o'z navbatida, g'anim saflarini yon tomondan aylanib o'tib, unga ortdan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qism *qunbul* // *qumbul*ning joriy qilinishidir.

Bunday mutlaqo yangi harbiy qism, tarixning dalolat berishicha, boshqa birorta atoqli sarkardaning qo'shinida mavjud bo'lmagan. Faqat Napoleon Bonapart armiyasining yasolida

³³ Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. – Т.: "Чўлпон", 1994. – Б. 47–78; 92–93.

qo'shin qanotlarini muhofaza qiluvchi qism bo'lganligi kuzatiladi. Harbiy mutaxassislarining fikricha, Napoleon Sharq mamlakatlariga yurish qilishdan oldin Amir Temur qo'shini tuzilishi, jang olib borish yo'l-yo'riqlarini sinchiklab o'rgangan, ayrim taktik usullarini o'zlashtirgan. *Qunbul* // *qumbul* istilohi ilk bor Nizomuddin Shomiyning "Zafarnoma" asarida "Loy jangi"ni tasvirlash chog'ida ko'zga tashlanadi. Qo'shinning chap qanotidan o'rin egallagan Amir Temur Sayfuddinbekni qunbulg'a tayinlagan edi. 35 yil davomida behisob jang-u jadallar olib borgan Sohibqiron yirik muhorabalarda qunbuldan mohirona foydalangan. 1391-yilning 18-iyunida Samara viloyatining Qunduzcha mavzesida To'xtamishxon bilan yuz bergan jangda Amir Temur o'ng qanot – barang'orga qo'mondonlik qilayotgan Mironshoh mirzo qo'li qunbuliga sardorlik qilishini Sayfuddunbekka bergan, Umarshayx mirzo rahnamoligidagi juvang'orning qunbuli rahbarligi Berdibekka topshirilgan. Terek daryosi yaqinida To'xtamishxonga qarshi kechgan dahshatli jangda Amir Temur Xudoydodi Husayniyini so'l qo'lning qunbuliga tayinlagan.

Qunduzchadagi muhorabada qunbulning jangdagi muhim rolini anglab yetgan To'xtamishxon 1395-yildagi to'qnashuvda o'z qo'shinini yetti qismga bo'lgan holda harakat qilgan edi. Temuriy hukmdorlar, chunonchi, Shohrux va Ulug'bek mirzolar qo'shinida ham qunbul mavjud bo'lgan. 1425-yilning 14-may kuni Ulug'bek mirzo va Mo'g'uliston hukmdori Shermuhammad o'g'lon o'rtasida yuz bergan to'qnashuvda Ulug'bek amir Abuk Buzurni qunbulga muqarrar qilgan³⁴.

"Markazni qurshamoq" ma'nosidagi *qumbi* = fe'lidan – l qo'shimchasi yordamida yasalgan va "qo'shin qanotlarini himoya qiluvchi qism"ni anglatuvchi *qumbul* // *qunbul* istilohi na Bobur, na Shayboniylar, na uch xonliklar harbiy terminlari tizimida

³⁴ Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайи. – Т.: "O'zbekiston", 2008, – Б. 464.

qo'llangan. Fors-tojik tilida bitilgan "Abdullanoma"da qo'shin tomonlarni muhofaza qilish vazifasi *janoq* (*chanoq*) termini bilan nomlangan qism zimmasida bo'lgan. Abulg'ozi qo'shinida bunday vazifani bajaradigan otliqlar *o'ng bo'yarakchi* va *so'l bo'yarakchi* istilohlari yordamida ifodalangan: *O'ng bo'yarakchi, so'l bo'yarakchi, iravul barchasi mening oldimg'a keldilar*³⁵.



Amir Temur yurishlari aks etgan tarixiy manbalarda qayd etilishicha, jangni *qaravul* boshlab bergan³⁶. Shundan so'ng to'qnashuvga *hiravul* (*mang'lay*), ya'ni avang'or kirgan. Hiravulga *burang'or hiravuli* va *juvang'or hiravuli* madad bergan. Bulardan keyin navbat *burang'or* (o'ng qo'l) va uning uchida turgan *qunbul* hamda *juvang'or* (so'l qo'l) va uning qanotidan o'rin olgan *qunbul*ga yetgan. Burang'or va juvang'or o'rtaligidan oliy bosh qo'mondon rahbarligidagi *qo'l* (*g'o'l*) – markaz o'rin egallagan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, *qo'l* (*g'o'l*) o'z navbatida *o'ng qo'l* va *so'l qo'l* bilan kuchaytirilgan. Markazning o'ng qo'li

³⁵ Булғозий. Шажарайи турк. – Тошкент, 1992. – Б. 185а.

³⁶ Гийасаддин Али. Дневник похода Темура в Индию. – М., 1998. – С. 102.



dan Sohibqironning o'g'illari, nabiralari, so'l qo'lidan esa qarindoshlari va ittifoqchilariga tegishli qo'shunlar joy olgan. Amir Temurning *sonsiz* deb nom chiqargan 10 ming kishilik sara jangchilari ham markazda turgan. Ko'mak uchun mo'ljallangan 40 qo'shun jangovar tug' va bayroqlar tikilgan yerda uch qator bo'lib sarflangan. Shijoatli jangchilardan iborat 12 qo'shun birinchi qatorda, qolgan 28 qo'shun ikkinchi va uchinchi qatorda yurgan.

Bobur qo'shini yasoli ham klassik besh qismdan iborat bo'lib, ular *hiravul* // *iravul*, *burang'or*, *juvang'or*, *g'o'l* hamda *chag'davul* istilohlari bilan nomlangan.

Bobur 1500-yili Saripulda Shayboniyxon bilan sodir bo'lgan jangda o'z qismlarini ayni tartibda jangga boshlagan edi³⁷. Keyinchalik Bobur ushbu jangovar tartibga Amir Temur kabi o'zgartirishlar kiritib, uni yanada takomillashtirgan. Chunonchi, *g'o'l o'ng qo'l* va *so'l qo'l* bilan kuchaytirilgan. Bu qismlar qo'shinning birinchi qatori, ayni chog'da, Bobur qo'mondonligidagi asosiy qism, ya'ni *xossa tobinning* avang'ori vazifasini o'tagan. Mazkur qism o'z navbatida *o'ng yon* va *so'l yon* deb nomlangan bo'laklarga taqsimlangan. *Xossa tobin* Boburning *bo'y* so'zi bilan ifodalangan shaxsiy gvardiyasining avang'ori hisoblangan. Bo'yning o'ng va chap tomonlari *o'ng* va *so'l* istilohlari bilan yuritilgan. *Xossa tobinning* soni *g'o'l* – markazdan oz, ammo *bo'y*–shaxsiy gvariyanidan ortiq bo'lgan. 1507-1508-yilda Qandahorda Shoh Shujo' va Muqimning 6-7 ming kishilik lashkariga mingta askari bilan to'qnash kelgan Bobur, janggohda jangchilarini quyidagicha joylashtirilgan:

³⁷ Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: 1960. – Б. 144–145.





Saripulda yuz bergan jangda Shayboniyxon qo'shinining o'ng va chap qanotlari uchini *to'lg'ama* deb atalgan otliq askarlar bilan mustahkamlangan. Yasollar bir-biriga yaqinlashgan kezda *to'lg'ama* Bobur qo'shinini ikki tomondan aylanib o'tib, unga ort tomondan kuchli zarba bergan. Iskanjaga tushib qolgan Bobur qo'shinining mag'lubiyatni tan olishdan o'zga chorasi qolmagan edi.

"Boburnoma"da uning muallifi ushbu harbiy usulga yuqori baho bergan: "*O'zbekning urushta bir ulug' hunari ushbu to'lg'amadur, hech urushi to'lg'amasiz bo'lmas*"³⁸.

Shu o'rinda, asl o'zbekcha *to'lg'ama* istilohi ma'no-mohiyati, jangda bajaradigan vazifasiga ko'ra, Amir Temur qo'shinidagi *qunbul* // *qumbul*, Abulg'oziyxon tilga olgan *bo'yarakchi* terminlariga mos kelishini ta'kidlash maqsadga muvofiq. *To'lg'amani* ahamiyatini yaxshi anglagan Bobur Hindistonga qilingan yurishlarida undan unumli foydalangan. Chunonchi, Ponipat jangida Bobur qo'shinning *barang'or* va *juvang'ori* uchiga *to'lg'amani* joylashtirgan edi. Boburning 12 ming kishilik qo'shini janggohda quyidagi yasol bilan turgan:


³⁸ Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: 1960. – Б. 145.



Yengil qurolli otlilardan tarkib topgan va aksariyat yovning yurtini talash, g'orat qilish uchun yuborilgan qism "tez harakat qilmoq" ma'nosini ifodalovchi *ilg'a*= fe'lidan hosil qilingan *ilg'or* istilohi bilan nomlangan. Ushbu termin o'zni bilan "hujum, g'orat, talash, buzish" ma'nolarida ham qo'llangan. Bunday qism

yoki amaliyotlarga boshchilik qiluvchilar *ilg'or begi* istilohi bilan anglashilgan. XIX asrga oid tarixiy manbalarda *ilg'or* "qo'qqis-dan bostirib kelish, hujum, bosqin" ma'nosi qatori, "ilg'or qism"-ni ham bildirgan. Kezi kelganda, Ogahiyning Xiva xonlari tarixiga oid asarlarida xonlik qo'shinining jangoldi safi, ya'ni yasoli aksariyat *qoz(g'oz)* qanotidek shakllantirilgani xususida ma'lumotlar mavjudligini ta'kidlash lozim. Ayni yasolni chizmada quyidagicha aks ettirish o'zini oqlaydi:

Manglay (hiravul, muqaddima)



Juvang'or (yasor, so'l qo'l)

Burang'or (yamin, o'ng qol)

soqa (chag'davul)

Jang maydonida mag'lubiyatga uchrab, uni tashlab qochishga majbur bo'lgan yov kuchlarini ta'qib etish va yakson qilish vazifasi *quvg'unchi* istilohi bilan atalgan maxsus otliq guruhga yuklatilgan. Amir Temur, Temuriylar, Shayboniylar qo'shini safiga mavjud bo'lgan quvg'unchilar uch xonliklar davrida ham ahamiyatini saqlab qolgan. Dushmanni ta'qib qiluvchi otliqlar shuningdek, *nikomish* (< *nika*= quvmoq, ta'qib qilmoq+*mish*), *nikovul* terminlari bilan ham anglashilgan.

Dushman yurtiga hujum uyushtirib, u yerdan turli-tuman o'lja-mol, hayvon, chorva keltirishga mo'ljallangan otliqlar guruhi Bobur qo'shinida *chopqunchi*, Shayboniylar lashkarida *yo'rtavul* // *yo'rtag'ul* (< *yo'rt*= "yo'rtmoq, tez harakat qilmoq") terminlari bilan yuritilgan. Bobur qo'shinida g'animning don-dunlari, g'allasini qo'lga kiritishga xoslangan otliqlar *oshliqchi* deb



nomlangan. Bunday askarlarga topshirilgan vazifa ma'lum darajada chopqunchilarga yuklatilgan ishga yaqin turgan. Biz tahlilga tortayotgan davrda Qoraxoniylar qo'shinida qo'llangan *oqinch* istilohi iste'moldan chiqib ketgan. Biroq *akınçı* hozirgi turk tilida "talonchi, bosqinchi, qaroqchi" ma'nosida qo'llanmoqda³⁹. Qoraxoniylar va Xorazmshoh qo'shinida "avang'or" ma'nosida ishlatilgan *yazak* ("aylanmoq, ko'zdan kechirmoq"ni ifodalagan *yaza*= fe'lidan yasalgan) istilohi Temuriylar, Shayboniylar, uch xonliklar davriga doir manbalarda "tungi soqchi guruh; qo'shinning oldingi qismlarini qo'riqlovchi guruh"ni bildirgan va ko'hna ma'nosini yo'qotgan.

Cherig yuradigan yo'lni tunda ehtiyot qilish, qo'riqlashga *to'sqovul* va *to'sqol* terminlari bilan nomlangan otliqlar guruhi javobgar hisoblangan. *To's*= fe'li o'zagidan yasalgan ushbu istilohlar bilan atalgan otliqlar kechasi shabixunga jazm etgan g'anim kuchlariga hamla qilib, ular o'ylagan rejaning amalga oshishiga to'sqinlik qilgan. Safarda hukmdorning yosh, navqiron yigitlardan shakllantirilgan tansoqchilari ham qatnashgan. Hukmdor yoki biror nomdor bekning tansoqchisi *chuhra* termini bilan ifodalangan.

Hukmdorning qarorgohi yoki qo'nimgohi kechasi *tunqotar* hamda *yotish eli* istilohlari bilan atalgan askarlar tomonidan qo'riqlangan. *Yotish eli* va *chuhralar* hukmdorning haramini ham ehtiyot qilishga mas'ul bo'lgan.

Jangda asosiy kuchlarga yordam beruvchi qismlar ham vaziyat va ehtiyojdan kelib chiqib qatnashgan. Bunday qo'shimcha askarlar *ko'mak* hamda *madad* deb atalgan va ular aksariyat *g'o'l* – markaz yoxud *chag'davul (soqa)*dan jo'natilgan.

Davr harbiy istilohlari tizimida "polk, guruh, otryad" ma'nolarini ifodalashda bir qancha terminlardan foydalanilgan. Chunonchi, sof turkiy *bo'luk* // *bo'lak* va *to'p*, arabcha *favj* hamda fors-

³⁹ Турецко-русский словарь. 48000 слов. – М.: Русский язык. 1977, – С. 38.

cha-tojikcha *guruh* istilohlarining qo'llanish darajasi o'ta yuqori bo'lgan. Xorazm xonligida qayd etilgan ma'noni anglatishda *favj* va *guruh* o'zlashmalari kabi *bo'lak* va *dasta* ham faol ishlatilgan.

Qo'shinda muayyan qurol-yarog' turi bilan ta'minlangan, jangda alohida vazifani bajaradigan askarlar nomlanishi jihatidan bir-biridan farqlangan. Ko'k turk xoqonligi, Qoraxoniylar qo'shinida o'q-yoy bilan qurollangan askarning *o'qchi* istilohi bilan atalgani qadimdan ma'lum. Ushbu istiloh keyingi davrlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. O'q hamda yoyni yasovchi qurolsozga nisbatan ham ishlatilgan *o'qchi* hozirgi kunda "o't sochar qurol bilan qurollangan jangchi" ma'nosini ifodalamoqda. Tarix o'zbekcha *o'qchi* termini qatori, *kamonkash*, *novakandoz*, *tirafgan*, *tirandoz* singari forscha-tojikcha o'zlashmalarning ham faol ishlatilganidan guvohlik beradi.

O'qchilar safida o'qni mo'ljalga bexato uradigan mohir jangchilar bo'lib, ular har doim e'zozlangan va ehtiyot qilingan. Bunday mohir yoy, tufang va miltiq otuvchilar aksariyat *mergan* istilohi yordamida anglashilgan. Ponipat jangida Bobur merganlarini qoramol terisidan yasalgan *arg'amchi* (arqon, tasma) yordamida bir-biriga bog'langan aravalar va odam bo'yiga teng keladigan *tura* (qalqon) ortiga joylashtirib, ularga birinchi navbatda hindlarning askarlari va jangovar fillarini nishonga olish vazifasini yuklagan edi. Qo'qon xonligida miltiq bilan qurollangan, quyi harbiy rutbaga ega jangchi *mergan* deb yuritilgan. Hozirgi o'zbek harbiy terminlari tizimida ruscha *snayper* termini ma'nosini to'la ifodalovchi *mergan* istilohining qo'llanayotgani o'zini to'la oqlaydi.

Amir Temur, Temuriylar, Shayboniylar va uch xonliklar davrida yangi qurol turlarining kashf etilishi natijasida, harbiy terminlar tizimi yangi istilohlar hisobiga kengayib bordi. Bu holat o'z navbatida, bunday qurollarni boshqarishga xoslangan jangchilarni bildiruvchi istilohlarning muomalaga kirishiga zamin



yaratdi. O't sochar qurol turi miltiq bilan qurollangan askar *miltiqchi* termini yordamida ifodalana boshlagan.

Sharafuddin Ali Yazdiy qalamiga mansub "Zafarnoma"ning 1519-yilda Muhammad Ali ibn Darvesh Ali al-Buxoriy tomonidan o'zbek tiliga qilingan tarjimasida *miltiq otquvchi* termin birikmasi aksini topgan⁴⁰. Bobur qo'shinida miltiqchi va ra'dandozlar cherigning old qatoridan joy egallagan. Xiva, Qo'qon xonligiga jonboz yigitlardan iborat *tufangchilar* guruhi nafaqat janglarda qatnashgan, balki qal'a va qo'rg'onning burj hamda borusidan joy olib, mudofaa bilan mashg'ul bo'lgan. Qal'a, qo'rg'on va hisorlarni dushman hujumidan saqlash chog'ida *sangandoz*, *xoraandoz*, *xoraafkan* terminlari bilan ifodalangan toshotar jangchilar ham ishtirok etgan.

"Artileriyachi, zambarakchi" ma'nosidagi *to'pchi* istilohi Bobur qo'shinida "to'pdan o'q otuvchi" hamda "to'p quyuvchi" ma'nolarini ifodalagan, bunday kishilarning soni keyingi davrlarda ancha ko'paygan.

XIX asrning oxirida Buxoro amirligi qo'shinining umumiy soni 11400 piyoda, 400 otliq, 2070 mirshab hamda 151 ta to'pni boshqarishga xizmat qiladigan 620 to'pchidan tashkil etilgan. Bundan tashqari, qo'shin tarkibiga nomuntazam lashkar ham kiritilgan. Qo'shin ma'nan eskirgan miltiq va to'plar bilan qurollangan, to'pchilar na to'p olish usullaridan, na harbiy nizom (ustav)dan xabardor bo'lishgan. Bunday qo'shin nafaqat tashqi xuruj, balki amirlikda yuz beradigan norozilik va qo'zg'olonni ham bostirishga qodir emas edi.

Bobur cherigida Yevropa uslubida quyilgan to'pni boshqaruvchi to'pchi, zambarakchi *farangiboz* istilohi bilan atalgan bo'lib, keyinchalik ko'zga tashlanmaydi. Xiva xonligi qo'shinida *to'pchi*,

⁴⁰ Шарофуддин Али Йаздий. Зафарнома. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: А.Аҳмедов, Ҳ.Бобобеков. – Тошкент, 1997 – Б. 240.



jazoyirchi va *shamxolchi* terminlari bilan ifodalangan jangchilar xizmat qilgan. *Shamxol* – miltiqning qo'lda ko'tarib yuriladigan turi bilan qurollangan o'qchilarni anglatuvchi *shamxolchi* istilohi ilk bor Ogahiyning "Riyoz ud-davla" asarida aksini topgan: *Va atrofda g' i kamargohlard in qodirandoz shamxolchi va jazoyirchilar paydarpay gululaafshonlig' marosimin zuhurg'a yetkurub...*(29).

Fors-tojik tilidan o'zbek tiliga kirgan *sarboz* o'zlashmasi XIV–XV asrlarda "askar, jangchi" ma'nosini bildirgan. XIX asrga kelib ushbu istilohning ma'nosida muayyan o'zgarish sodir bo'lgan. Chunonchi, Buxoro amirligida muntazam piyoda qo'shin, Qo'qon xonligida esa yevropacha andaza bo'yicha shakllantirilgan muntazam piyoda qo'shin askari ayni istiloh bilan atalgan⁴¹. Buxoro amirligida muntazam qo'shin bilan yonma-yon urush yoki tinchlik chog'ida xizmatda bo'lgan ko'ngilli lashkar *qoracherig* istilohi bilan anglashilgan.

"Qurol-yarog" ma'nosidagi *qur* so'zidan hosil bo'lgan *qurchi* istilohining dastlab qo'llanishi XIV asrga to'g'ri keladi. Soqchilik bilan shug'ullangan *qurchi kezi* kelganda muayyan askariy guruhga rahbar etilib, harbiy harakatlarga jo'natilgan. Buxoro amirligida qurol-yarog' ombori – *qurxonani* qo'riqlovchi nomuntazam lashkar ushbu termin bilan anglashilgan. Safaviylar vaqtida gvardiyachi otliq korpus *qurchi* deb atalgan.

Qurolli kuchlar, harbiy asbob-aslaha hamda *o'g'ruq*(oboz)ni suvli to'siqlardan o'tkazishda *kemachilarga* murojaat qilingan. Xiva xonligida kemachi bilan yonma-yon *zavraqchi* – qayiqchilar ham askarlarning daryodan talofatsiz o'tishini ta'minlashga belgilangan. Safarga otlangan qo'shin biron bir yurtda tin olish yoki tunash uchun to'xtagan kezda, askarlar chodirlarga joylashgan. Qo'shinda chodir o'rnatish uchun belgilangan maxsus mutaxassislar mavjud bo'lib, ular *chodirchi* termini bilan ifodalangan.

⁴¹ Троицкая А.Л. Каталог архива кокандских ханов XIX века. – М., 1968. – С. 115.



Amir Temur va Temuriylar tarixiga tegishli manbalarda g'animning qarorgohidagi vaziyatdan ma'lumot va asosan qurolli kuchlaridan "til" keltirish bilan mashg'ul shaxs *xabargir* hamda *tilchi* istilohlari yordamida ifodalangan. Bunday ayg'oqchi oliy bosh qo'mondondan tortib, qo'shun boshliqlari mansabini egalab turgan sarkardalar tomonidan jo'natilgan.

XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida rus tilidan o'zbek tiliga qo'shin turlari va askariy qism nomlarini anglatuvchi quyidagi harbiy terminlar aynan o'zlashdi: *batareya, batalon, polk, korpus, diviziya, armiya* va h.k. Shu bilan birga, rus tilidagi *morskaya pexota, rezervnoe voyska, artillerist* terminlari o'zbek tiliga kalka usulida *bahriya askari, ehtiyot askari, to'pchi askar* shaklida o'zlashtirilganini quyidagi misollar tasdiqlaydi: 1. *Bu sana bahriya askari musriflari ...altmish alti miliyon mera artiq boldi* (Oyina, 1913, 17-son). 2. *Turk askarlarining yarmi ehtiyot askaridur* (S.Farg'ona, 1914, 83-son). 3. *Topchi askarlarni beshinchi batariy saldatlari...* (Taraqqiyot, 1906, 5-son); va h.k.

Ikkinchi jahon urushi davrida qurolli kuchlarni uyushtirish va ularni boshqarish sohasiga oid terminologik qatlam boshqa soha terminlariga qaraganda tez o'zgaruvchanlik xususiyatiga egaligi bilan farqlandi. Zero, urush davrida yangi boshqarma, bo'lim, harbiy idoralar tashkil qilindi. Bularning ayrimlari tezda tarqatildi yoki boshqacha nom oldi. Urush davri vaqtli matbuotida uchragan ayrim qo'mondonliklarni ifoda qiluvchi iboralarning ba'zilari quyidagilardir: *G'arbiy front qo'shinlari qo'mondonligi, Janubiy front qo'shinlari qo'mondonligi, Markaziy front qo'shinlari qo'mondonligi, 1-, 2- va Z-Ukraina fronti qo'shinlari qo'mondonligi, 1-, 2- va Z-Boltiqlik bo'yi fronti qo'shinlari qo'mondonligi, Zabaykal fronti qo'shinlari qo'mondonligi, Stepnoy, Voronej, Kalinin, Shimoliy Kavkaz, Bryansk fronti qo'shinlari qo'mondonligi* va h.k.

Sobiq sho'rolar ittifoqining barcha hududi bir qancha harbiy okruglarga bo'lingan edi. Urush yillarida O'rta Osiyo harbiy



okrug o'rniga Turkiston harbiy okrugi (Turkvo-Turkestanский voennyi okrug) tashkil qilindi. Bu davrda Qizil Armiya uyi (DKA -Dom Krasnoy Armii), Okrug ofitserlar uyi (ODO – Okrujnoy dom ofitserov) terminlari ham ancha keng qo'llandi. Yosh gvardiyachilar shtabi (ShMG – Shtab molodoy gvardii) iborasi ham urush davrida paydo bo'ldi.

Shu bilan birga, urush yillarida Angliya, Amerika, Germaniya qo'shinlari qo'mondonligini ifoda qiluvchi *Ittifoqchi Qo'shinlar Oliy Bosh Qo'mondonligi, Ittifoqdoshlar Ekspeditsion Kuchlari Oliy Qo'mondonligi, Amerikaning Yevropadagi strategiya harbiy havo kuchlari shtabi, Nemis qo'shinlari Oliy Bosh Qo'mondonligi* kabi iboralar ham o'zbek terminologiyasida ishlatildi. Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, qo'mondonliklarni anglatish uchun uch va undan ortiq leksik birliklarni biriktirib, birikma hosil qilish usulidan keng foydalanilgan. Leksik birliklar o'rta-sidagi o'zaro munosabatni voqelantirishda o'zbek tilining so'z yasash qonuniyatlari qo'l kelgan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida *otdeleniye, vzvod, rota, batalon, polk, diviziya, korpus, armiya* kabi terminlar faol ishlatildi. Urush va undan keyingi yillarda *otdeleniye* hamda *bo'linma* terminlari yonma-yon qo'llangan bo'lsa, mustaqillik yillarida faqat *bo'linma* termini me'yorlashdi.

Urush davrida va undan keyin yaratilgan harbiy lug'atlarida *o'qchi otdeleniye, o'qchi bo'linma* birikma terminlari parallel ishlatilganligini ko'ramiz, hozirgi paytda faqat *o'qchi bo'linma* birikma termini muomalada qolmoqda.

Rus tilidan olingan o'zlashmalar o'zbek tilida juda ko'p birikma terminlarning yuzaga kelishiga bois bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida quyida keltirilgan ashyoviy misollardek, tarkibiy terminlarning faol qo'llanganini ko'rish mumkin: *alohida razvedkachi artilleriya diviziyasi, motoo'qchi diviziya, tungi yengil bombardimonchi aviatsiya diviziyasi,*



tog'-o'qchi diviziyasi, havo-desant diviziyasi, qiruvchi aviatsiya diviziyasi, o'qchi diviziya, shturmchi diviziya, aviatsiya diviziyasi, uzoquchar aviatsiya diviziyasi, yaqinuchar tungi bombardimonchi aviatsiya diviziyasi va h.k.

Birikma terminning tarkibiy qismi bo'lib kelgan boshqa nomlar haqida ham shunday deyish mumkin: *aloqa bataloni, motosiklchilar bataloni, razvedkachilar bataloni, tank bataloni, artilleriya batareyasi, minomyot batareyasi, pulemyot batareyasi, avtomatchilar vzvodi, aloqa vzvodi, o'qchi vzvod va h.k.*

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimidagi qism va bo'linmalar, Ichki ishlar vazirligining ichki va qorovul qo'shinlari, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizligi xizmatining harbiylashtirilgan qismlari va chegara qo'shinlaridan tashkil topgan. Qo'shinlar qo'llanishining strategik va taktik jihatidan kelib chiqib, Qurolli Kuchlar tuzilishi asosi O'zbekiston Respublikasini himoya qila oladigan qo'shinlar va maxsus qo'shinlarni tuzishga qaratilgan. Bular *quruqlikdagi qo'shinlar, harbiy havo kuchlari, harbiy havo hujumidan mudofaa qo'shinlari, maxsus qo'shinlar, muhandislik-quruvchilik qo'shinlari, Ichki ishlar vazirligining ichki va qorovul qo'shinlari, Davlat xavfsizlik xizmatining harbiylashtirilgan qismlari va chegara qo'shinlari* singari birikma terminlar bilan yuritilmoqda. Qayd etilgan terminlar yordamida ifodalanayotgan tizimlarning birgalikdagi harakati *O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Birlashgan Shtabi* tarkibli termini bilan ataluvchi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi. *Milliy xavfsizlik Kengashi* termini mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga belgilangan turli vazirlik va idoralarning faoliyatini muvofiqlashtirish, uni ta'minlashga qaratilgan rejalarni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish mas'uliyatiga ega tuzilmani ifodalaydi.



Savol va topshiriqlar

1. Ko'k turk xoqonligida qo'shinning zarbdor qismi qanday shakllantirilgan?
2. Ko'k turk xoqonligi va Qoraxoniylar qo'shinining jangovar tartibi necha bo'lakdan iborat bo'lgan?
3. Hukmdorning o'rdasi qanday maxsus soqchilar tomonidan qo'riqlangan?
4. Xorazmshohlar qo'shini qancha tarkibdan iborat edi?
5. Amir Temur cherigidagi *bo'y qo'shun* kimlardan shakllantirilgan?
6. Sohibqironning xos gvardiyasi qanday nomlangan?
7. *Tiri charx* otuvchi askariy bo'linmalar qachon paydo bo'lgan?
8. Qurol-yarog', aslaha-anjom saqlanadigan ombor qanday atalgan?
9. "Boburnoma" da yasolning ifodalanishini tasvirlang.
10. Muntazam armiya Markaziy Osiyoda qachon shakllangan va unga kim asos solgan?
11. Chegara qo'shinlari qanday vazifalarni bajaradi?
12. Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asaridan keltirilgan quyidagi matnda jangning qanday kechganini sharhlang:
Va Shoh Mansur ikki qatla Sohibqirong'a qilich yetkurdi. Va hazrat Iloh inoyatidin hech nav' zarar yetmadi. Va Odil oftobachi ul hazratning boshi uzra qalqonini tutub turdi. Va Qimori yasalul anda yaxshi ishlar qildi va ilkiga qilich tegib, majruh bo'ldi. Va Shoh Mansur andin qaytib, g'olga' chobti. Va amirzoda Muhammad Sulton dushmanning o'ng qo'lidag'i kishisini qochurdi.



Mubashshir bahodur va o'zga beglar amirzoda bilan dushmanning keynida surdilar. Va shahzoda Shohrux turub urushub erdi. Jalol Hamid va Pirim So'fiy, Yusuf So'fiyning o'g'li va G'iyosuddin tarxonning o'g'lonlari hazrat qoshida bahodurluq ko'rsatur erdilar. Va yag'i cherigini o'q zarbi bilan qaytarur erdilar. Va Alloh-dod qo'shuni kim, vafo bila mashhur erdilar va Shayx Nuruddin qo'shuni va qo'shun bo'yi hazorai xossakim, alarni qavchin der edilar va alar g'o'l edilar, yana jam' bo'lub, g'o'lni yasab turdilar.

Va Bahromning qo'shuni erlik ko'rsatib, yerlaridin tebramadilar. Va amirzoda Shohrux o'n yetti yoshida erdikim, ul urush voqe' bo'ldi. Va shahzoda kichik yoshi bila Shoh Mansur bila urushub, ani surub, Shoh Mansurni tushurdilar va boshini kesib, shahzoda Shohrux hazrat Sohirqirong'a kelturub yukunub, boshni tashladi. Va fath bo'lgan uchun muborakbod dedi (153).



Asosiy tushunchalar so'zligi

Avang'or – Ulug'bek mirzoning “To'rt ulus tarixida” – qo'shinining o'ng qanoti.

Aloqa qo'shinlari – qo'shinlar bilan aloqa bog'lash va boshqarishni ta'minlash uchun mo'ljallangan maxsus qo'shinlar

Beklamishi – qo'riqlash, jang bilan chekinish.

Bulun – jang yoki chopqin chog'ida asir olingan shaxs, tutqun, bandi.

Bulg'amishi – ayg'oqlash, ko'zdan kechirish (razvedka).

Bo'linma – quruqlikdagi qo'shinlar vzvodi yoki harbiy-dengiz kuchlari tarkibidagi 6-12 kishidan iborat harbiy tuzilma.

Burang'or – qo'shinining o'ng qanoti, o'zbekcha *o'ng qo'l*, arabcha *maymana* va *yamin* deb ham yuritilgan.

Hiravul – qo'shinining old, ilg'or qismi, avang'or.

Juvang'or – qo'shinining chap qanoti, o'zbekcha *so'l qo'l*, arabcha *maysara* hamda *yasor* istilohlari bilan ham ifodalangan.

Korpus – bir necha diviziya yoki brigadadan iborat yirik harbiy qo'shilma.

Ko'rug – Ko'k turklar qo'shinida ayg'oqchilik bilan shug'ullangan shaxs, josus.

Motoo'qchi qo'shinlar – jangovar harakatlarni mustaqil tarzda yoki boshqa qo'shin turlari va maxsus qo'shinlar bilan birgalikda yuritish uchun mo'ljallangan quruqlikdagi qo'shinlar turi.

Muqaddimat ul-jaysh – qo'shinining ilg'or qismi, avang'or.

Oqinchi – tunda g'anim yurtiga seldek hujum qiluvchi otliqlar guruhi.

Qaytul – qo'shin qarorgohi.

Qalb ul-jaysh – Xorazmshohlar davrida qo'shinining markazi.

Qo'l // g'o'l – qo'shinning oliy bosh qo'mondon joylashgan markaziy qismi. Arabcha *qalb* va *qalbgoh* istilohlarining ma'nodoshi.

Qoracherig – Buxoro amirligida muntazam qo'shin bilan yonma-yon jang yoki tinchlik chog'ida xizmatda bo'lgan ko'ngilli lashkar.

Qulavuz – qo'shinga yo'l ko'rsatuvchi, yo'lchi.

Qunbul // qumbul – qo'shin qanotlarini qo'riqlovchi hamda dushman saflarini ikki yondan aylanib o'tib, unga ort tomondan zarba berishga tayinlangan otliq qism.

Raketa qo'shinlari va artilleriya – qurolli kuchlardagi qo'shin turi. Jangda va operatsiya jarayonida dushmanga qarata yadro qurolini qo'llash va o't ochish bilan zarba berishga mo'ljallangan.

Sarhang – mudofaa istehkomlarini qurish va ularning himoyaga tayyorligi uchun mas'ul shaxs.

Savq ul-jaysh – jang olib borish yoki lashkarni boshqarish usuli (taktika).

So'kman – Qoraxoniylar cherigida dushman saflarini buzuvchi pahlavon, botir.

Sonsiz – Amir Temurning o'n ming jangchidan iborat shaxsiy gvardiyasi.

Soqa – qo'shinning ort qismini muhofaza qiluvchi, jang paytida boshqa qismlarni ko'mak bilan ta'minlovchi zaxira qism, mo'g'ulcha *chag'davul* o'zlashmasining ma'nodoshi.

Tank qo'shinlari – quruqlikdagi qo'shinlar turining biri bo'lib, mustaqil tarzda hamda qo'shinning boshqa turlari va maxsus qo'shinlar bilan hamkorlikda jangovar harakatlar yuritish uchun mo'ljallangan.

To'sqol // to'sqovul – yo'llarni to'sib turish bilan shug'ullangan otliq lashkar.

Udru tmishi // urdu tmishi – hiyla bilan yolg'ondan chekinish.



Test:

1. Amir Temur qo'shini yasoli nechta qismdan iborat bo'lgan?

- A) yetti
- B) besh
- C) olti
- D) to'rt

2. Sohibqiron cherigida dushman lashkari qanotini aylanib o'tib, unda ortdan zarba beradigan qism qanday atalgan?

- A) qunbul // qumbul
- B) to'lg'ama
- C) soqa
- D) chag'davul

3. Ko'k turklar cherigida "ayg'oqchi" ma'nosi qaysi istiloh bilan ifodalangan?

- A) ko'rug
- B) ayg'oq
- C) josus
- D) xabargir

4. Qoraxoniylar cherigida yuz askardan iborat bo'linma qanday atalgan?

- A) xayl
- B) sada
- C) hazora
- D) daha



5. Qoraxoniylar davrida *xon to'y* istilohi qanday ma'noni anglatgan?

- A) xonning qarorgohi
- B) xonning oilasi
- C) xonning qo'shini
- D) xonning to'yi

6. Xorazmshohlarning mamluk g'ulomlaridan tuzilgan xos soqchilari qanday nomlangan?

- A) xodim ul-xoss
- B) malik ul-xavoss
- C) malik ul-mavt
- D) malik ul-muluk.

7. Ko'k turklar va Qoraxoniylar davrida faol qo'llangan asl turkcha *su* istilohi qachon qo'llanishdan chiqib ketgan?

- A) XV–XVI
- B) XIII–XIV
- C) XIV
- D) XVII

8. Amir Temur qo'shinida ra'dandozlarning soni qancha bo'lgan?

- A) 10 ming
- B) 20 ming
- C) 25 ming
- D) 30 ming

9. Dehliga yo'l olgan Amir Temur qo'shini yasoli qancha masofani egallagan?

- A) 48 km.
- B) 30 km.



C) 32 km.

D) 40 km.

10. Semantik usulda yasalgan harbiy terminlar qatorini toping.

- A) yuz, buyrak
- B) yurak, qanot
- C) til, qamal
- D) qalb, jigar

11. Amir Temur qo'shinida "saf" ma'nosi qanday termin bilan ifodalangan?

- A) yasol
- B) qabol
- C) tunqol
- D) buqol

12. *Gvardiya qismlari* dastlab qachon va qaysi davlatda paydo bo'lgan?

- A) Angliyada, XVI asr
- B) Fransiyada, XV asr
- C) Rossiyada, XVII asr
- D) Germaniyada, XVIII asr

**Adabiyot:**

1. Буниятов З.М. Государство Хорезмшахов-Ануштегиннов (1097-1231). – М.: “Наука”, 1986.
2. Владимирцов Б.Я. Общественный строй монголов. Монгольский кочевой феодализм. – Л.: 1934.
3. Греков Б.Д., Якубовский А.Ю. Золотая Орда и ее падение. – М. – Л.: 1950.
4. Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н. Проблемы лексики староузбекского языка. – Т.: “Фан”, 1990.
5. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: 1960.
6. История ат-Табари. – Т.: “Фан”, 1987.
7. Мирзо Улуғек. Тўрт улус тарихи. – Т.: “Чўлпон”, 1994.
8. Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-тавориhi Муиний (Муиний тарихлари танламаси). Форс тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифи: Фулом Каримов. – Т.: “O'zbekiston”, 2011.
9. Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: “Ўзбекистон”, 1996.
10. Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимуру (1403-1406). Перевод со староиспанского. – М.: “Наука”, 1990.
11. Тизенгаузен В.Г. Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды. Т.2. Извлеч. из персидских соч. – М. – Л.: 1941.
12. Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: А.Аҳмедов, Ҳ.Бобобеков. – Т.:, 1997.

13. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Саодатга йўлловчи билим). Нашрга тайёрловчи филология фанлари кандидати Қаям Каримов. – Т.: “Фан”, 1972.

14. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан (Қадимги даврдан ҳозиргача). – Т.: “Шарқ”, 2012.

15. Ҳожи Нурҳожи. Қадимги уйғурлар ва қорахонийлар. – Урумчи: 2001.



Amir Temur hamda To'xtamishxon o'rtasida Terek daryosi yaqinida kechgan jang tasviri.



Bobur va Sulton Ibrohim Lo'di o'rtasida Ponipatda sodir bo'lgan jang sahnasining miniatyurasidagi aksi.



Jang sahnasining miniaturadagi tasviri.



Og'ir qurolli qo'shinning yoppasiga hujumga o'tishi.



"Qora g'oziy qozon" – to'pning qamal yeriga keltirish jarayoni.



1398-yilning 17-dekabr kuni Dehli bo'sag'asida Sohibqiron va Sulton Mahmudxon o'rtasida kechgan jang sahnasi.



UCHINCHI BO'LIM





JANGOVAR HARAKAT VA TAKTIK AMALIYOTLARNI IFODALOVCHI TERMINLAR

Reja:

1. Turkiy sulolalar qo'shinida jang olib borish usullarining rivojlanishi.
2. Taktik amaliyotlarning takomillashish bosqichlari.
3. Jangovar harakatlarning uzviyligi va uzluksizligi.

Asosiy tushunchalar: *aqunla=, bo'ljar, budol, dozor, mashvarat, miod yeri, miod vaqti, mo'ndu, mudofaa, muaskar, parol, pistirma, razvedka, sanchish, suron, tatavul, tarid, tunqol, tushun, uron, fathnoma, shabixun.*

Ko'k turk xoqonligi cherigida keyingi sulolalar qo'shini-dagidek jangovar harakatlarni rejalashtirish, yog'i bilan kechadigan to'qnashuvga jiddiy tayyorgarlik ko'rish, jangni qachon, qayerda, qanday olib borish yo'l-yo'riqlarini oldindan tahlil qilishga jiddiy ahamiyat qaratilgan. *Yog'i* istilohi bilan ifodalangan dushmanga qo'qqisdan zarba berish asosiy taktik usullardan biri sanalib, *o'pla=, bas=* terminlari bilan nomlangan. To'satdan amalga oshiriladigan taktik usul, ya'ni *yelmaq* yovni sarosimaga tushirish, uning qurolli kuchlari safida qat'iyatsizlik va boshboshdoqlikni yuzaga keltirish singari vazifalar bilan mashg'ul bo'lgan. Turkiylar g'anim yurtiga tunda shiddatli

hamla qilish amaliyotini yaxshi egallashgan. Selday yopirilib, hamla qilish *aqunla=* istilohi bilan anglashilgan. Yashin tezligida bosqin uyushtiruvchi otliqlar guruhi – *oqunchi* Qoraxoniylar, Saljuqiylar qo'shinida faoliyat olib borgan.

Xoqonlik cherigi jangovarlikni saqlash, uni takomillash-tirish uchun bir qator tadbirlarni amalga oshirgan. Jumladan, jangchilar muttasil nayza uloqtirish, qilich chopish, o'q-yoy otish mashqlarini bajarishgan, tez-tez ovga chiqishgan. Xoqonlikda otliq va piyodalarning jang qilish usuli alohida diqqatga molik sanalgan. Ko'k turklar tomonidan jahon harb san'ati ta-rixida birinchi bo'lib suvoriylar safining joriy qilinishi, ya'ni har bir otliq askar orasidagi masofaning 20 metr, jangovar qatorlar sonining 10 ta bo'lishi ham otliq qo'shinning dushmandan to'la ustunligini ta'minlagan.

Hujum o'q-yoychilarning muayyan masofadan o'q yog'diri-shi bilan boshlangan. Jangning hal qilinishi chog'ida og'ir qurol-li otliqlar jangga kirgan. Otliqlar yovga nayzalar bilan hujum qilgan va g'animni yaqin masofadan turib jang qilishga majbur etgan. Bunday usulga dosh berolmagan yovning chekinishdan boshqa chorasi qolmagan. Nisbatan yengil qurolli otliqlar dush-manni ta'qib etgan, uni batamom yakson qilish bilan jang ya-kunlangan.

Turk xoqonligi hamda Qoraxoniylar qo'shinida "jang, muho-raba" ma'nosi *urush, sungus // sungush* istilohlari bilan nomlan-gan. "Tiqmoq, sanchmoq" ma'nosidagi *sung=* fe'lidan *-us // -ush* qo'shimchasi bilan hosil qilingan ushbu terminning *sungus= // sungush=* shakllari "jang qilmoq, nayza sanchmoq"ni anglatgan.

Jang paytida dushman saflarini ikki tomondan aylanib o'tib, qurshovga olish turkiylarning azaliy taktik usullaridan sanala-di. Bunday harakat, usulni *egir=* istilohi bildirgan. "Qo'shinni bir yerga to'plamoq" ma'nosini ifodalashda *ter =* fe'lidan istifoda etilgan. *Sanch =, buz=, to'qi= // toqu=* so'zlari "mag'lub etmoq,



tor-mor etmoq, yakson qilmoq” ma’nosini ifodalashga yo’naltirilgan. *Sanch* = fe’li “sanchmoq, tiqmoq”ni ham anglatavergan. Keyingi davrlarda “jang, muhoraba” ma’nosini bildirishda faol ishlatilgan *to’qish // to’qush, sanchish* istilohlari yuqorida qayd etilgan *sang* =, *to’qi* = // *to’qu* = so’zlaridan yasalgan. “Daryolar, suvli to’siqlarning narigi qirg’og’iga o’tmoq” ma’nosi *kec* = fe’li bilan anglashilgan. Qo’shin daryodan *kechig*, ya’ni kechuv, guzar orqali o’tgan.

Safar vaqtida yoki jangdan keyin qo’shin dam olish manzilida to’xtagan. Bu yerda askarlarning soni aniqlangan va ular ko’rikdan o’tkazilgan. Manzilda to’xtamoq *tus* = // *tush* = so’zi bilan ifodalangan. Qoraxoniylar qo’shinida *tush* = fe’lidan yasalgan *tushun* termini qo’shin to’xtaydigan manzil, cherig dam oladigan joyni anglatgan.

Qoraxoniylar qo’shinida arabcha *xasm* va fors-tojikcha *dushman* o’zlashmalari sof turkcha *yog’i* bilan yonma-yon qo’l-langana bo’lsa-da, *yog’i* istilohining ishlatilish chastotasi o’ta yuqori bo’lgan. Bu kezlarda *sungush, urush, to’qush // to’qish, qorushtuq* terminlari bilan voqelangan “jang, urush” ma’nosidagi ma’nodoshlik qatori shakllangan. Ayrim manbalarda “dushman, yov” ma’nosidagi *yog’i* istilohining “urush, jang”ni ifodalagani kuzatiladi.

Mahmud Qoshg’ariyning ta’kidicha, Qoraxoniylar cherigida o’z askarlarini dushmandan farqlash maqsadida hozirgi kunda *parol* o’zlashmasi bilan anglashilayotgan chaqiriq, xitob *im* istilohi bilan ifodalangan. Mo’g’ullar istilosidan keyin ushbu termin o’rnida *uron* so’zi qo’llanishga kirgan.

Qo’shinda jang olib borishning turli taktik usullaridan keng foydalanilgan. Chunonchi, *pus* – “pismoq” so’zidan yasalgan *pusug’* istilohi bilan nomlangan guruh pistirmaga qo’yilgan va dushmanga qo’qqisdan hujum qilishga mo’ljallangan. Otlig askarlarning pistirmadan jangga tashlanish usuli *Ulkar cherig*



deb yuritilgan. Tunda yovning qarorgohiga qilinadigan hamla *bosig’* (*bos* – “g’orat qilmoq, buzmoq, bosmoq”) termini bilan ifodalangan.

Qo’shinning belgilangan manzil – *tushunda* hordiq yoki tunash uchun to’xtash jarayoni *o’rug’* deb nomlangan. Tunash joyi, o’rnini ifodalashda *yotiq // yotig’* va *qo’nuq* istilohlari qo’l kelgan. “Harbiy safarga chiqmoq” ma’nosini anglatishda *sula* =, *otla* =, *otlan* = so’zlariga murojaat qilingan. “Qo’shin, cherig” ma’nosidagi *su* istilohiga – *la* qo’shimchasini qo’shishdan yasalgan *sula* = fe’li XVI asrga qadar ishlatilgan va keyinchalik iste’mol dan chiqib ketgan.

“Pistirma qo’ymoq” ma’nosi bilan Ko’k turk xoqonligi qo’shinida muomalada bo’lgan *bus* = so’zi Qoraxoniylar cherigida *pus* = shaklida qo’llangan. *Egir* = va *qabsa* = so’zlari *bos* = fe’li qatori, dushmanni “qurshovga olmoq, qamal qilmoq, to’rt tomondan o’ramoq”ni anglatishga yo’naltirilgan.

“Yovni tor-mor qilish, mag’lub etmoq” ma’nosini anglatish vazifasi *so’k* = fe’li zimmasida bo’lgan. Jangda mag’lub bo’lgan va jang maydonidan yuz o’girgan g’animni ta’qib qilish usuli qadimdan mavjud bo’lgan va bu jarayon *so’ngda* = hamda *ir* = so’zlari yordamida anglashilgan.

Amir Temur, Temuriylar, Shayboniylar, uch xonliklar qo’shinida pistirmadan unumli foydalanilgan. Ushbu harbiy hiyla haqida so’z ketganda ikki jihat, ya’ni pistirmada o’tirgan jangchilar va tuzoq uchun belgilangan joyni ifodalovchi istilohlarni bir biridan farqlash lozim. Chunonchi, pistirmaga belgilangan jangchilar *pustura, qo’rug’, kamin, busquchi*, pistirma o’rni esa *pusqan yer, arug’dal* hamda *kamingoh* istilohlari bilan ifodalangan. Hozirgi o’zbek harbiy terminologiyasida ishlatilayotgan *pistirma* termini asl turkcha *bus* = // *pus* = fe’li asosida yuzaga kelgan.

Yuqorida qayd etilganidek, yurishdan oldin yoki safar chog’ida yovning yurtiga qilinadigan g’orat va bosqin ma’lum



darajada g'alabani ta'minlagan. Bunday taktik amaliyot g'animni g'ulg'ulaga solish, esankiratish, shu bilan birga oziq-ovqat, em-xashak zaxirasini to'ldirish maqsadida amalga oshirilgan. Odatda, bunday xatti-harakatlar bir necha yo'nalishda voqelangan. *Chopqun, chapovul, turktoz, tatovul va ilg'or* istilohlari yordamida anglashilgan ayni taktik usul *chopqunchi, chapovulchilar* tomonidan hayotga tatbiq etilgan.

Bu davrga kelib "dushmanga katta kuch bilan yopirilmoq" ma'nosida Qoraxoniylar cherigida ishlatilgan *ishla=, teg=* so'zlari o'z o'rnini arabcha va fors-tojikcha o'zlashmalarga bo'shatib bergan. Xususan, "yovga yoppasiga shiddat bilan tashlanish" ma'nosi *hujum va tarid*, "qisqa muddatli hujum" esa *hamla* istilohlari bilan ifodalangan. Dushmanni sarosimaga solishda tungi hujumning roli sezilarli bo'lgan. Qoraxoniylar davrida *bosig'* (< bos= "buzmoq, yanchmoq, bosmoq") istilohi bilan anglashilgan bunday taktik usul XIV–XIX asrlarda fors-tojikcha *shabixun* o'zlashmasi yordamida ifodalangan.

Amir Temur, Temuriylar, xususan, Bobur va Shayboniylar qo'shini sarkardalari janggohda ustalik bilan harakat qilgan, dushmanni qanotlar va ort tomondan iskanjaga olishga alohida ahamiyat berilgan. Sohibqiron qo'shinida bunday taktik amaliyot *qungul // qumbul*, Shayboniylar va Bobur cherigida *to'lg'ama* deb yuritilgan. Hindiston uchun kechgan yirik muhorabalarda Bobur *to'lg'ama* usulini mohirlik bilan qo'llab, jahonshumul g'alabalarni qo'lga kiritgan.

Qo'rg'on yoki qal'aga chekinib, mustahkamlanishga ulgurgan yov qamal qilingan. Qamal o'zbekcha *qabal // qamal* va arabcha *muhosara* istilohlari yordamida anglashilgan. Amir Temur qo'shinida dushmanning baland devor, burj va borulari mavjud mustahkam qal'alari yonida undan baland bo'lgan *sarko'b* – tuproq uyumi tiklash, manjaniq, arroda va ra'dlardan tosh va o'q yog'dirish, borular ostidan naqblar qazish, devorlarda



rahnalar ochish, shinakka tashlangan *kamand* – halqa va ilgaklar, devorlarga qo'yilgan *shotu, nardbon, zangu* yordamida yuqoriga ko'tarilish amaliyoti o'ta intizomli tarzda bajarilgan. Aksariyat qamaldagilar suv, oziq-ovqat, yem-xashak manbasidan kesib qo'yilgan. Dushmanni tashnalik bilan azoblash maqsadida mavjud quduqlar, buloqlar buzilgan, ular tosh va tuproq bilan to'ldirilgan. Va aksincha, ariq yoki boshqa suv manbasi yo'q joylarda piyodalar yordamida quduqlar qazilib, yog'och chelak – *dalv* yordamida suv chiqarilgan. Suv teridan yasalgan *meshk* (mesh) va *mithara* (obdasta)da saqlangan.

Sohibqironning sarkardalik salohiyati va lashkarboshilik mahorati boshqa taktik amaliyotlarni ro'yobga chiqarishda ham yaqqol namoyon bo'lgan. Hindistonga yurish qilib, Dehliga yaqinlashib qolgan Amir Temurdan vahimaga tushgan Sulton Mahmud boshliq hindlarning 120 ta jangovar fil bilan kuchaytirilgan qo'shini movarounnahrliklarga qarshi chiqqan. Amir Temur avval jangchilarini vahimaga solgan fillarni daf qilish borasida bosh qotirgan va tezlikda fillarning ilgari siljishiga imkon bermaslik maqsadida yuzlab o'tkir tig'li uchburchak shaklidagi sanchiq – *mo'ndu, tikanlarni* yasatgan va fillar keladigan yerlarga joylashtirgan. Ikkala qo'shin jangga kirgach, Amir Temur askariy qismlarini chekinishga buyurgan. Movarounnahrliklarning chekinganini ko'rib, dushman qochdi, deb hayol qilgan hindlar olg'a tashlangan. Fillar, ularning ortidan piyoda va suvoriylar harakatga kelgan. Tikanlar o'rnatilgan yerga yetgan fillarning oyoqlariga o'tkir sanchiqlar qadalgan. Og'riq zo'ridan quturgan fillar jon achchig'ida filbonlarni uloqtirib, ortga qochgan va orqada kelayotgan suvoriy va piyodalarni yanchib tashlagan.

1392-yilning aprelida Astrobodda Eronning shimolida Kaspiy dengizidan qariyb 30 km masofadagi Sori shahri tomon otlangan Amir Temur qo'shini qalin daraxtlar bilan qoplangan ulug' jangalga duch kelgan. Oliy bosh qo'mondon yorlig'iga bi-



noan jangchilar daraxtlarni kesib, uchta yo'l ochishgan. Har bir yo'lning kengligi bir o'q otimicha bo'lgan. Tarixiy manbalarda yozilishicha, Sohibqiron qo'shin hamda texnikani balchiq va botqoqlardan olib o'tishda tevarak-atrofdan kesilgan daraxtlarni to'shash usulidan keng foydalangan. Sharafuddin Ali Yazdiy Hindiston yurishi paytida Amir Temur qalin qor yuziga gillam, polos va kiyizlarni solib, askar va otlarni o'tkazganini qayd etgan⁴².

Qarama-qarshi tomon qo'shinlari bir-biriga ro'para kelgach, qurol-yaroqlarni yuqori ko'tarib, baland ovozda qiyqirish qadimdan odat tusini olgan. Jangovar qiyqiriq *suron* termini bilan atalgan. *Suron* istilohi turkiy *hay-u hay* ("ura") va arabcha *Allohu akbarga* mos keladi.

Nafaqat jang va hujum, shuningdek, ko'rik paytida ham karnay, surnay, nog'ora va nafirlar chalinib, suron solingan. Hashamatlilik, dabdabalilikni ko'rsatishga mo'ljallangan suron uch xonliklar davrida ham ahamiyatini yo'qotmagan. Tahlil qilinayotgan davr harbiy terminlar tizimida "qarorgoh" ma'nosini ifodalash uchun bir nechta istilohlar ishlatilgan. Jumladan, Ko'k turk xoqonligi davridan e'tiboran qo'llanishda bo'lgan *o'rd* "qo'shin qarorgohi, hukmdor qarorgohi" bilan birga, "qo'shin, cherig" ma'nosini ham ifodalashga xoslangan. O'rta Osiyo xonliklari davrida ham mazkur asl turkiy istiloh "qo'mondon qarorgohi"ni anglatgan. XIII asrda rus tiliga *o'rda* shaklida "xon qarorgohi" ma'nosi bilan o'zlashgan ushbu termin XIV asrga kelib, "qo'shin, armiya"ni bildirgan⁴³. Hozirgi turk tilida *ordu* "armiya, qo'shin"-

⁴² *Шарофуддин Али Йаздий*. Зафарнома. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: А.Аҳмедов, Ҳ.Бобобеков. – Т.: 1997. – Б. 192.

⁴³ *Абдулманова А.К.* Военная иноязычная лексика исторической повести «Казанский летописец». Уч. зап. Бийского педагогического института. Вып. 2. 1958.



ni ifodalamoqda⁴⁴. Tarixiy-badiiy manbalarda arabcha *muaskar*, forsha-tojikcha *bungoh*, *lashkargoh*, *qarorgoh*, *maskani sipoh* o'zlashmalarining *o'rd* bilan yonma-yon qo'llangani kuzatiladi. XX asr boshlarida chop etilgan ruscha-o'zbekcha lug'atda "voenniy lager"ning *lashkargoh*, 1981-yilda nashrdan chiqqan ruscha-o'zbekcha harbiy terminlar lug'atida lager so'zining *lager*, *lashkargoh* (119), stavkaning esa *qarorgoh*, *stavka* (225) tarzida berilganini ko'ramiz.

"Qo'shinning to'planish o'rni" *bo'ljar* va uning *mo'ljar* shakli bilan anglashilgan. Temuriylar qo'shinida faol qo'llanishda bo'lgan ushbu istiloh uch xonliklar davrida ham ishlatilavergan. Hozirgi o'zbek harbiy terminologiyasida qo'llanilayotgan *yig'ilish punkti* birikma termini ruscha *sborniy punkt*ning tarjimasi, ya'ni yarimkalkasi hisoblanadi. Ma'no va mazmun jihatidan rus tilidagi *post*, *pozitsiya* terminlariga mos tushadigan *budol* istilohi Bobur tomonidan faol ishlatilgan.

Safarga o'tlanishdan oldin hukmdorning qarorgohida arkoni davlat, sarkardalar, qo'shun qo'mondonlari, beklar, amirlar, munajjimlar ishtirokida harbiy majlis o'tkazilgan. Bunday yig'in asl o'zbekcha *kengash*, arabcha *mashvarat* hamda mo'g'ulcha *jonki* // *janqi* terminlari bilan ifodalangan. Harbiy kengashda qabul qilingan qarorga muvofiq, saltanatning tuman, shahar va viloyatlaridan, shuningdek, tobe' yurtlardan qo'shin to'plash uchun maxsus farmon – *tunqol* e'lon qilingan. Farmon belgilangan joylarga bosh qo'mondonning yordamchisi *tavochi* tomonidan tezlik bilan yetkazilgan. Tunqolga ko'ra, viloyat hokimlari, tuman yoki shahar kutvollari, qal'a, qo'rg'on va hisor dorug'alari oliy bosh qo'mondon tomonidan ko'rsatilgan aniq ro'yxat – *songa* binoan o'z askarlari, zarur ot-ulovi, qurol-yarog'i, oziq-ovqati, yem-xashagi bilan belgilangan to'planish o'rni – *miod yeriga* bel-

⁴⁴ Турецко-русский словарь. – М.: "Русский язык", 1977, – С. 692.



gilangan vaqt – *miod vaqtida* kechikmasdan yetib kelishi shart bo'lgan.

Yurishga chiqish uchun qo'mondonning *o'ljar* termini bilan anglashilgan buyrug'i e'lon qilingach, qo'shin qismlari jangovar tartib – *yasol (yasov)*ga qat'iy rioya qilgan holda yo'lga chiqqan.

Umuman, “farmon, buyruq, hukm” ma'nosini ifodalashda asl turkcha *buyruq, yorlig' // yorliq*, arabcha *hukm, amr* va forscha-tojikcha *farmon* istilohlaridan foydalanilgan.

“Urush” va “jang” ma'nolarini ifodalashda o'zbekcha *urush, to'qish, savash, sanchish*, arabcha *harb, muhoraba, muqotala, jidol, qitol, masof*, forscha-tojikcha *razm, nabard* va *jang* terminlari keng qo'llanilgan.

Hozirgi o'zbek harbiy terminologiyasida *urush* va *jang* istilohlarining me'yorlashuvi natijasida qolgan terminlar o'z ahamiyatini yo'qotgan. Ayni shunday holatni “yov, g'anim” ma'nosini bildirgan *yov, yog'i, dushman, xasm, g'anim, aduv, muholif* ma'nodoshlik uyasida ham kuzatish mumkin. Hozirgi o'zbek harbiy terminlari tizimida forscha-tojikcha *dushman* hamda o'zbekcha *yov* leksemalari me'yor sanaladi.

Yirik janglarda qozonilgan g'alaba – *fath* haqidagi xushxabar saltanatning barcha viloyatlariga oliy bosh qo'mondon hukmiga muvofiq *munshiy* va *dabir* (kotib)lar tomonidan bitilgan *fathnomalar* yuborilgan. Fathnomalar choparlar yordamida belgilangan manzillarga zudlikda yetkazilgan. Ayni chog'da, devonxona xizmatchilari va bitigchilar buyruqqa muvofiq mag'lub tomon ahliga *moli omon* solig'ini solishgan. Qo'lga tushgan mol-mulk, boyluk, oltin-kumush, qurol-aslaha, ya'ni *o'ljaning* muayyan qismi davlat xazinasiga, qolgan qismi sarkardalar, amaldorlar va jangchilarga *ulufa* tarzida taqsimlab berilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida rus tili-dagi *kontrnastuplenie* termini o'zbek tiliga kalka usulida *aksilhujum* tarzida o'zlashganini yozma manbalar tasdiqlaydi: *Alarg'a*



aksilhujum kabi juda og'ir va xavfli vazifalar topshirilur ekan (Hurriyat, 1917, 17-son). Mazkur termin Birinchi jahon urushidan keyingi yillarda o'z o'rnini *kontrataka* terminiga bo'shatib berdi. Ikkinchi jahon urushi yillarida ushbu termin *qarshi ataka* va *qarshi hujum* shakllarida ishlatildi. Bu davrda *safarbarlik (mobilizatsiya), uchquchi (lyotchik), tayyarachi (lyotchik) to'pchi (artillerist), otash (ogon)* kabi harbiy terminlar keng iste'molda bo'ldi. Shuni qayd etish kerakki, asr boshida va Birinchi jahon urushi vaqtida *lyotchik, uchquchi, tayyorachi* terminlari ishlatilgan bo'lsa, keyinroq faqat *uchuvchi* termini qo'llandi.

Bu davrda ruscha harbiy birikma terminlarni ham to'liq kalkalash yo'lga qo'yildi: *voyennoye polojeniye* – harbiy holat (Turkiston eli, 1917, 1-son) va h.k.

Qayd etish lozimki, XX asrning boshlarida ruscha *front* termini o'rnida ba'zan *jabha* istilohi ishlatilgan: *Olmanlar boshqa jabhalardan Rig'a jabhasig'a ba'zi to'pxonalarini tashimoqdadurlar* (Hurriyat, 1917, 21-son) va h.k. Keyinchalik *jabha* termini o'z o'rnini *front* terminiga butunlay bo'shatib berdi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida harbiy leksikonning mazkur mavzuyi guruhi turfa bo'lib, unda *ataka, kontrataka (qarshi ataka), qarshi hujum, razvedka, kontrrazvedka* kabi terminlar keng qo'llangan edi.

Bu davrda harbiy ishda liniya (chiziq) taktikasidan voz kechildi va manevr taktikasiga alohida diqqat qaratildi. Terminlar tizimidan *aylanma manevr, manevr taktikasi, harakat doirasi, artilleriya hujumi, aktiv mudofaa taktikasi* singari ko'pdan-ko'p birikmalar o'rin oldi.



Savol va topshiriqlar

1. Ko'k turklar va Qoraxoniylar qo'shinida yog'iga to'satdan zarba berish usuli qanday yo'lga qo'yilgan?
2. Ko'k turk xoqonligi va Qoraxoniylar davrida *sun=* fe'lidan qanday istilohlar yasalgan?
3. *To'qush, sanchish* istilohlari qanday hosil qilingan?
4. Jahon harb san'atida otliqlar safining joriy qilinishi qaysi turkiy sulolaga tegishli?
5. Qoraxoniylar davrida qo'shin ko'rigi qayerda o'tkazilgan?
6. Amir Temur, Temuriylar, Shayboniylar, uch xonliklar qo'shinida "pistirma" ma'nosi qanday terminlar bilan anglashilgan?
7. Yurish paytida askarlar suvni qanday idishlarda saqlashgan?
8. Sohibqiron Dehli bo'sag'asida hindlar bilan kechgan jangda jangovar fillarni daf qilish uchun qanday tadbir qo'llagan?
9. Harbiy kengash, ya'ni mashvaratda qanday masalalar o'rtaga tashlangan?
11. Nima uchun *taktika* harbiy san'atning tarkibiy qismi sanaladi?
10. Quyida "Boburnoma" da aks etgan qo'shin qismlari nomlarini ifodalagan istilohlarni aniqlang va izohlang:
Muhammad Ali ko'kaltosh va Shoh Mansur barlos va Yusuf Ali va Abdullog'a farmon bo'ldikim, g'o'lning olida ro'baro'din yurub, urushqa mashg'ul bo'ldilar. Ustod Aliquli ham g'o'lning olidin necha qatla yaxshi faranglar otti. Mustafu to'pchi ham g'o'lning so'l qo'lidan aroba ustidagi zarbzanlar bila yaxshi zarbzanlar otti. Barang'or, juvang'or va g'o'l va to'lg'ama g'animning girdo girdin



olib, shiba qo'yub, bajid urushqa mashg'ul bo'ldilar. Bir-ikki qatla juvang'or, barang'or sari qisqa-qisqa hamlalar qildilar. Bizning kishi o'q qo'yub, shiba zarbi bila yana g'o'lig'a tiqtilar. G'animning o'ng qo'li va so'l qo'li bori bir yerda yig'ilib, ne qochqali yo'l topa oldilar (336).



Asosiy tushunchalar so'zligi

Aqunla= – tunda dushman ustiga selday yopirilib, hujum qilmoq.

Bo'ljari – qo'shinning oldindan belgilangan to'planish o'rni.

Budol – jang vaqtida har bir bo'lim, bo'linma, dasta, qo'shun egallaydigan joy, pozitsiya.

Dozor – katta qismdan ayg'oqchilik, aloqa yoki soqchilik maqsadlarida yuboriladigan jangchilar, harbiy mashinalar, kemalar guruhi.

Fathnoma – g'anim ustidan erishilgan g'alaba haqidagi yorlig', noma.

Mashvarat – bo'lajak yurish oldidan oliy bosh qo'mondon ishtirokida o'tkaziladigan harbiy kengash.

Miod yeri – qo'shin qismlarining yig'ilishi uchun avvaldan kelishilgan o'rni.

Miod vaqti – qo'shin qismlarining yig'ilishi uchun oldindan kelishilgan vaqti.

Mo'ndu – himoya maqsadida xandaq ichi va oldiga o'rnatiladigan uchli qoziq, o'tkir sanchiq.

Muaskar – qo'shin qismlari to'planadigan qarorgoh, o'rdu-goh.

Mudofaa – dushmandan saqlanish, himoya qilish uchun zarur bo'lgan yoki hozirlangan vosita va choralari majmui.

Pistirma – qo'shinlar harakatining dushmanni yakson etish, asirga olish, hujjatlar, qurol va texnika namunalarini qo'lga kiritish maqsadida yashirincha joylashib, dushman yaqinlashishini kutish va qo'qqisdan hujum uyushtirish.

Razvedka – dushman qo'shini, uning soni, joylashishi, qurol-yarog'i va h.k. to'g'risida ma'lumot to'plash uchun ayrim harbiy qism, bo'linma yoki jangchilar tomonidan olib boriladigan operativ ish, harbiy harakat.

Suron – jangdan oldin yoki jang paytida jangovar musiqalar jo'rliqidagi hayqiriq, shovqin-suron.

Shabixun – dushman qarorgohi yoxud qurolli kuchlariga tunda qilinadigan hamla, hujum.

Tatavul – dushman hududini talon-toroj qilish maqsadida amalga oshiriladigan bosqin.

Tarid – biror hududni qo'lga kiritish uchun uni mudofaa qilib turgan dushman ustiga katta harbiy kuch bilan tashlanish.

Tunqol – harbiy kuchlarning belgilangan joyda to'planish haqidagi oliy buyruq, farmon.

Tushun – qo'shin hordiq chiqaradigan manzil, yurt.

Qamal – qarshi tomon qo'shinlari, istehkom va mudofaa inshootlarini o'rab olish va qurshovda ushlash.

Uron – harbiy xizmatda yoki yashirin tashkilotda o'z kishilarini tanish uchun uchrashganda aytiladigan va oldindan belgilab qo'yiladigan shartli maxfiy so'z.



Test:

1. Rus tilidagi “post, pozitsiya” ma’nosi “Boburnoma”da qaysi istiloh bilan anglashilgan?
A) budol
B) tunqol
C) maskani sipoh
D) bungoh
2. Temuriylar qo’shinida lashkarning to’planish o’rni qanday nomlangan?
A) miod yeri
B) miod vaqti
C) o’lgor
D) bo’lgor
3. Mag’lub tomon aholisiga qanday tovon solingan?
A) moli amon
B) xiroj
C) ushr
D) jizya
4. O’tkir uchli, uchburchak shaklli sanchiq qanday nomlangan?
A) mo’ndu
B) qilich
C) xanjar
D) balorak



5. “Tungi hujum” ma’nosi qaysi istiloh bilan ifodalangan?
A) shabixun
B) g’orat
C) hamla
D) tarid
6. Qoraxoniylar qo’shinida pistirmadan yovga tashlanish usuli qanday atalgan?
A) Ulkar cherig
B) pusug’
C) pustura
D) qo’rug’
7. Qo’shinning belgilangan manzilda tunash yoki hordiq uchun to’xtashi qaysi istiloh bilan ifodalangan?
A) qo’nug’
B) pusug’
C) kamin
D) kamingoh
8. Qoraxoniylar cherigida “parol” ma’nosi qaysi so’z yordamida anglashilgan?
A) im
B) uron
C) jonqi
D) qulavuz
9. Qisqa muddatli hujum qanday nomlangan?
A) hamla
B) oqin
C) shabixun
D) tarid



10. Tub harbiy terminlar qatorini toping.

- A) pulemyot, dozor
- B) razvedkachi, tank
- C) o'qchi, granatomyot
- D) avtomat, artilleriyachi

11. Birikma terminlar qaysi qatorda berilgan?

- A) aloqa bataloni, pulemyot nuqtasi
- B) o'qchi vzvod, mergan jangchilar
- C) hujumkor, vatanparvar
- D) artilleriya qismi, qasoskorlar



Adabiyot:

1. Абдульманова А.К. Военная иноязычная лексика исторической повести “Казанский летописец”. Уч. зап. Бийского педагогического института. Вып. 2. 1958.
2. Гийасаддин Али. Дневник похода Тимура в Индию. – М.: 1958.
3. Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н. Проблемы лексики староузбекского языка. – Т.: “Фан”, 1990.
4. Дадабоев Ҳ. Аждодларимизнинг ҳарбий маҳорати. – Тошкент: Akademnashr, 2016.
5. Дадабоев Ҳ. Тарихий ҳарбий терминлар луғати. – Т.: “Университет”, 2007.
6. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: 1960.
7. Мир Мухаммад Амин-и Бухари. Убайдулла-наме. Перевод с таджикского с примечаниями член-корр. АН Уз ССР проф. А.А.Семенова. – Т.: АН Уз ССР, 1957.
8. Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимуру (1403-1406). Перевод со староиспанского. – М.: “Наука”, 1990.
9. Турецко-русский словарь. 48000 слов. – М.: “Русский язык”, 1977.
10. Уложение Тимура. – Т.: “Фан”, 1968.
11. Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: А.Аҳмедов, Ҳ.Бобобеков. – Т.: 1997.



12. Шермухамедов Я., Умаров А. Русча – ўзбекча ҳарбий терминлар луғати. – Т.: “Фан”, 1981.

13. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Саодатга йўлловчи билим). Нашрга тайёрловчи филология фанлари кандидати Қаям Каримов. – Т.: “Фан”, 1972.



TO'RTINCHI BO'LIM





QUROL-YAROG' VA ASLAHA-ANJOMLARNI IFODALOVCHI TERMINLAR

Reja:

1. Qurol-yarog' turlarini ifodalovchi istilohlarning shakllanish bosqichlari.
2. Himoya qurol-aslahalarining rivojlanish dinamikasi.
3. O'tsochar qurollarni anglatuvchi istilohlar tizimi.

Asosiy tushunchalar: *avtomat, ashuq, bashqiyon, granta, ya bag'ri, javshan, jiba, minomyot, omoch, pulemyot, snaryad, sungu, tank, tanuq, o'pchin, farangi, qilich qamchi, quyaq, qumbura.*

Arxeologik topilmalarning guvohlik berishicha, Ko'k turk xoqonligida otliq jangchilar ko'krak qismida dumaloq qalqon bilan ta'minlangan plastinkasimon zirh kiyishgan. Otliq askarlarning boshini patli dubulg'a muhofaza qilgan. Suvoriy qilich, o'q-yoy, o'qdon, nayza va gurzi bilan qurollangan⁴⁵. Xitoy solnomalaridan birida turkiy jangchilarning qurollari shoxsimon o'q-yoy hamda hushtakka o'xshash tovush chiqaruvchi o'q, sovut, nayza, qilich va dudama (og'ir, uzun) qilichdan iboratligi

⁴⁵ Гумилев Л.Н. Статуэтки воинов из Туюк-Мазара. Музей антропологии и этнографии. – М.: – Л.: 1949.

qayd etilgan⁴⁶. Oltoy o'lkasining Baliq Sook mavzesidagi mozor-qo'rg'ondan topilgan turk askariga tegishli qilich, dubulg'a, xanjar, sovut, o'q-yoy kabi qurollarning temir va kumushdan yasalgani, ularning yengil bo'lganini ko'rsatadi. Suvoriyning yonida egar-jabduq, o'q-yoy, o'tkir uchlarini yuqoriga qarab joylashtirilgan o'qlar solingan o'qdon bo'lgan. Qilich chap tomonda ikkita kamar bilan qiyalatib taqilgan. Otliq jangchi kezi kelganda nayza va bolta bilan ham ta'minlangan, qalqon uzun xalqasimon ilgak yordamida orqa yelkaga osilgan⁴⁷. "Qurol-yarog', aslah" ma'nosini ifodalash uchun *kedim* (hozirgi *kiyim* so'zining qadimgi shakli) istilohi qo'llangan. *Qilich* so'zi bilan jangovar aslahalarning asosiy turidan biri sanalgan, chopish, kesish va sanchish uchun mo'ljallangan qurol nomlangan. Bu termin keyingi davrlarda ham faol qo'llanishda davom etgan. Misriy qilichlarning dovruqi keng yoyilgan. O'rta Osiyoda qilichning egik turi mashhur bo'lgan, yassi va to'g'ri Qoraxoniylar qo'shinida qamchi uchiga o'tkir tig' joylashtirilgan va *qilich qamchi* deb nomlangan qurol ham ishlatilgan.

Qurolning qadimiy turlaridan biri *o'q* istilohi bilan nomlangan. Yurishda jangchi kerakli miqdorda o'q olib yurgan. Uch tomoni yuqoriga qaratilgan o'qlar askarning chap yoki o'ng tomoniga kamar yordamida taqiladigan o'qdonga joylashtirilgan.

Dushmanning otliq askarlari hujumini bartaraf etish, shuningdek, yovni mahv qilishda nayza bilan qurollangan jangchilarning roli sezilarli bo'lgan. Nayza "tiqmoq, sanchmoq" ma'nosidagi *sun=* va *sanch=* fe'llaridan hosil qilingan *sanchqoq* hamda *sungug // sungu* istilohlari bilan ifodalangan. Terminning *sungu*

⁴⁶ Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. I. М.: – Л.: 1950. – С. 229.

⁴⁷ Распопова В.И. Согдийский город и кочевая степь в VII – VIII вв. КСИА. Вып. 122. – М.: 1970. – С. 86–87.



shakli Qoraxoniylar, Temuriylar va Shayboniylar davriga doir tarixiy-badiiy manbalarda bot-bot ko'zga tashlanadi. O'q bilan to'la o'qdon *kesh* // *kish* istilohi bilan atalgan va u jangchining beliga kamar yordamida bog'langan.

Jangchini o'q, nayza, qilich, gurzi, to'qmoq singari qurollardan himoya qiluvchi sovut *yaraq* // *yarag'* // *yariq* istilohi yordamida anglashilgan. Sovut bilan jangchilar qatori, jangovar otlar ham ta'minlangan. "Sovutli, sovutga ega" ma'nosini ifodalashda *yaraqliq* // *yaraqlik* terminidan foydalanilgan.

Qoraxoniylar cherigida "qurol, aslaha" ma'nosi *to'l*= fe'lidan hosil qilingan *to'lum* hamda *to'n to'lum* istilohlari bilan anglashilgan. Bu davr qo'shinida himoya aslahalarining yangi turlari qurollanishga kirgan. Chunonchi, Mahmud Koshg'ariyning guvohlik berishicha, *kuba yariq* termin birikmasi "sovut", *soy yariq* istilohi esa "zirh"ni ifodalashga xoslangan⁴⁸. O'tda toblangan temir parcha (plastinka)lardan yasalgan sovutning yana bir turi *quyay* termini bilan yuritilgan. Askarning ko'krak qismini qilich, o'q, nayza, to'qmoq zarbidan asrash maqsadida maxsus zirh, ya'ni *tura* tayyorlangan. Askarning boshini himoya qilishga mo'ljallangan dubulg'a *ashuq* hamda "yashirinmoq, bekinmoq" ma'nosidagi *yash*= fe'lidan yasalgan *yashig'* // *yashiq* istilohlari yordamida ifodalangan. Keyingi davrlarda bu istilohlar qo'llanishdan chiqib ketgan. Qoraxoniylar lashkarida nayzaning yassi uchli nisbatan yangi turi, ya'ni *kesma* mavjud bo'lgan. Ushbu istiloh yassi uchli o'qni ham ifodalashda qo'llanavergan. Nayza va o'qning uchi *bo-shoq*, unga taqiladigan halqa *bo'ri* deb nomlangan. O'qning dum qismini nomlashda *kez* terminiga murojaat qilingan.

Ko'hna *qilich* termini bilan yonma-yon "xanjar" ma'nosini ifodalashga yo'naltirilgan *bo'gda* // *bo'kta* va *tig'* istilohlari ham qo'llanishda bo'lgan.

⁴⁸ Махмуд Кашгарий. Девону луғотит турк. III том. – Тошкент, 1963. – Б. 22.



"Kamon" ma'nosi Ko'k turk xoqonligi qo'shinadigidek *ya* deb nomlangan. "Yoyning egilgan o'rta qismi" *ya bag'ri*, "yoychi, kamonkash" *ya qurg'uchi*, "yoyni tortmoq" *ya qur*=, "kamon otishda musobaqalashmoq" *ya tortish*= terminlari bilan anglashilgan.

O'q-yoyning ipi, ya'ni girishi *kirish* termini bilan ifodalangan. Bu davrda o'q-yoyning qo'ndoqli turi qurollanishga kirib kelgan va u *yatan* deb atalgan. Qadimdan Toshkent (kamoni Shoshiy) va Damashqda tayyorlangan yoylarning shuhrati Yaqin va O'rta Sharqqa tarqalgan. Qoraxoniylar qo'shini yovning mustahkam mudofaa inshootlariga ega qal'a va qo'rg'onlarini qamal qilish yoki uni shiddatli hujum bilan egallash jarayonida toshotar moslama, ya'ni manjaniqlardan keng foydalangan. Harbiy amaliyotlarda bunday devorteshar qurol qatori, mayda toshlarni irg'itishga mo'ljallangan moslama turi *solnu*, ya'ni palaxmon ham ishga solingan.

O'qdonni nomlashda Ko'k turklar davridagi *kesh* istilohi bilan birga *o'qluq* termini ham qo'llanishda bo'lgan. O'q-yoy haltasi, ya'ni sadoq *qurman*, *yasiq*, *qurug'luq* // *qurug'lug'*, xanjar, pichoq, qilich solinadigan idish *qin*, g'ilof, qilich, xanjar, pichoq dastasi *sop*, xanjar yoki qilichning tig'ini sopga qotirishda qo'l keladigan qismi *tug'ru* deb atalgan. Yaqin janglarda *boltu* // *boldu*, *tabar*, *oybolta* hamda yog'och yoki temirdan yasalgan to'qmoqlarning ahamiyati katta bo'lgan. Ayrim paytlarda jangchilar *saqolli bolta* istilohi bilan nomlangan kertikli bolta bilan ham qurollanishgan.

Askarlar bo'sh vaqtlarda jangovar mahorat ko'nikmasini egallash, uni yanada yuksaltirish uchun mashq maydonidagi turli mashg'ulotlarda qatnashishgan. Otish o'rni, ya'ni mashq maydoni *omochliq yer*, o'q otish, nayza sanchish uchun belgilangan nishon *omoch* deb yuritilgan. So'nggi terminning hozirgi turk tili harbiy terminologiyasida *amaç* shaklida qayd etil-



gan ma'noda qo'llanayotgani e'tiborga molik⁴⁹. Harbiy-musiqiy cholg'u asboblari qurol-yarog', aslaha-anjomlarning ajralmas tarkibiy qismi sanalgan. "Nog'ora, dovul" ma'nosi *tug'*, *kuvrug'* hamda *tabl* istilohlari bilan anglashilgan.

*Tabl*ning hajmi *tug'*dan kattaroq bo'lgan. Qoraxoniylar davlat boshqaruvi tizimida hukmdordan keyingi mavqeda turgan vazirga nishon sifatida *tamg'a* (muhr), *ayoq* (kosa), *tug'* (bayroq) bilan birga *kuvrug'* (nog'ora) ham taqdim etilgan. Hukmdor saroyida erta saharda chalinadigan nog'oralar zar bilan bezatilgan.

Turkiy qo'shin yurishga turli rangdagi jangovar bayroqlarni ko'targan holda otlangan. "Yalov, alam" ma'nosi *bayroq* istilohi bilan ifodalanishda davom etgan. Uzun yog'och uchiga ot yoki qo'tosning yoli yoxud dumi bog'langan bayroq turi *tug'*, jang yoki safar chog'ida qo'shinlar bir-biridan farqlanish maqsadida shoyidan tikilgan bir en mato bog'langan yog'och, ya'ni *batraq* bilan jihozlangan. Muhoraba paytida jangovar belgi sifatida shoyi yoki kiyik dumidan tayyorlangan *tanuq*, ya'ni kambar bayroqcha (vimpel) ko'tarib yurilgan. Bu davrda keyinchalik faol qo'llangan arabcha *alam* o'zlashmasi iste'molga kirgan.

Amir Temur, Temuriylar, Shayboniylar va uch xonliklar qo'shinida *urush asbobi* – qurol-yarog'ning yangi turlari paydo bo'ldi va ularni ifodalovchi terminlar tizimi yanada takomillashdi.

"Qurol-aslaha" ma'nosidagi *yarog'* // *yaroq* termini bilan yonma-yon arabcha *siloh* // *saloh* o'zlashmasi ham faol qo'llanishga kirgan. Sovutlarning turli ashyolardan yasalishi ularni anglatuvchi istilohlarda ham ifodasini topgan. Chunonchi, simdan to'qilgan sovut turi *javshan* deb nomlangan, javshanning ustidan xitoy shoyisidan tikilgan to'n kiyilgan, bunday himoya

⁴⁹ Турецко-русский словарь. 48000 слов. – М.: "Русский язык", 1977. – С. 51.



turi bilan ta'minlangan askar *javshanlig'* termini bilan atalgan. Mo'g'ullar istilosidan keyin qo'llanishga kirgan *jiba* jibagarlar tomonidan metallardan tayyorlangan, sovutning ushbu turi saqlanadigan ombor *jibaxona*, ombor mutasaddisi *jibachi*, u bilan qurollangan jangchi *jibaliq* // *jibalik* tarzida yuritilgan. XIV–XV asrlarda umuman "sovut, zirh" ma'nosini ifodalash uchun *bagtar*, *sog'it* // *sovut* terminlaridan istifoda etilgan. Arabcha *zirih* o'zlashmasi temir zanjirchalardan yasalgan sovut, zirhni anglatgan. Ushbu istiloh hozirgi o'zbek harbiy terminologiyasida *zirh* shaklida ruscha *bronyani* ifodalashda qo'l kelmoqda.

Oha va *ko'ha* terminlari bilan atalgan sovut po'latdan tayyorlangan, ularning kumushsimon rangi quyoshda jilvalanib, dushman askarlari ko'zini qamashtirgan. Sovutlar uzun hamda qisqa shaklda yasalgan, qisqa sovut *qisqa ko'ha* deyilgan. Sovutning boshqa bir xili ko'k rangda bo'lib, *ko'ktemur* istilohi bilan nomlangan.

Teri, charmdan sovut yasash texnologiyasi bu davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Jumladan, *o'pchin* istilohi na faqat teri, balki temirdan tayyorlangan sovutni ham ifodalashga yo'naltirilgan. *O'pchin* bilan jangchilar qatori, jangovar otlar ham ta'minlangan. Fors-tojik tilidan o'zlashgan *bargustvon* istilohi jangchilar, jangovar otlar hamda fillarning temirdan tayyorlangan maxsus yopinchiq'ini bildirgan. Bunday sovutlar oq, qizil, qora, yashil, sariq, ko'k ranglarda yasalgan. Qayd etilgan zirh, sovutga ega askarlar *o'pchinliq* // *o'pchinlik* va *bargustvondor* tarzida nomlangan. Temirdan yasalib, jangovar otlarga yopiladigan maxsus zirh *kejim* // *kechim* deb yuritilgan. Kechimning ustidan ba'zan qoplon terisidan tikilgan yopinchiq yoki Rum va Farangda to'qilgan mato, ya'ni *saqarlot* tashlangan. Qoraxoniylar qo'shinida zirh, sovut ma'nosida qo'llangan *quyoq* istilohi keyingi sulolar, xususan, Temuriylar vaqtida ham iste'molda qolgan. *Yavurqon* istilohi yordamida ifodalangan mixchali sovut



boshqa sovutlardan qiymati va mustahkamligi bilan ustunlikka ega bo'lgan. Bu kezlarda shuningdek, *qalmoqi quyuoq* nomli sovut turi shuhrat topgan. Jangchi gavdasining turli uzvlarini muhofaza qilishga mo'ljallangan sovutlar ham ishlab chiqarilgan. Chunonchi, *zanuband* va *butluq* ikki oyoq orasi (but)ga, *tizlik tizzaga*, *manglayliq* (peshona)ga bog'lanadigan maxsus himoya moslamalarini anglatgan. Gavdani yuqori qismi-boshni himoyalash uchun mo'ljallangan bosh kiyimni anglatish uchun Qoraxoniylar davrida qo'llanishda bo'lgan *yishiq* // *yashiq* istilohi XIV asrdan e'tiboran o'z o'rnini mo'g'ul tilidan kirib kelgan *dubulg'a* terminiga bo'shatib bergan. Temirdan yasalgan dubulg'alar turfa bo'lib, ular oddiy askarlar, bahodirlar hamda sarkardalarga mo'ljallangani nuqtai nazaridan bir-biridan farqlangan.

Lashkarboshilar va bahodirlarning dubulg'asi forscha-tojikcha *targ* hamda *xo'd* istilohlari bilan ifodalangan. Bunday dubulg'alar ba'zan qizil rangda tayyorlangan va ularga gulsafsar, binafsha rangli qush pari-*o'tog'a*, ya'ni jig'a yoki turli rangdagi matolardan tikilgan bayroqcha qadalgan.

Uchigacha sixchalar qadalgan bayroqchali yoki o'tog'ali xo'd sarkardaning maqomi, martabasi va rutbasini belgilash uchun mo'ljallangan. Oddiy jangchilar tepa qismi uchli dubulg'a yoxud bo'rk kiyishgan. Dubulg'a askarning quloq va yelkasini himoya qilgan. Bo'rkda bunday imkoniyat bo'lmagan. *Dubulg'a*, *targ*, *o'tog'a*, *bo'rk* terminlari XIX asrda ham qo'llanishda qolgan.

Jang paytida askarlarni turli qurol-yarog' zahmidan muhofaza qilish maqsadida aksariyat metall, ba'zan yog'och va teridan yasalgan qalqonlarning ahamiyati o'ta yuqori sanalgan. Qalqon kimga belgilangani nuqtai nazaridan kelib chiqib, turlicha tayyorlangan. Lashkarboshilarning qalqoni olti bo'rtliqli bo'lib, o'rta qismi qubba shaklini olgan va qimmatbaho toshlar bilan ziy-



natlangan, yurish paytida ot egarining chap tomonida osig'liq turgan. Qalqonlarga, aksariyat, qora, ayrim hollarda, qizil rang berilgan. Charm qoplangan yog'och qalqonlarga rang-barang naqshlar tushirilgan. Charm qalqonlar naqshli metall qoplama bilan mustahkamlangan. Bunday qalqonlar har doim ham o'q yoki nayza zarbiga bardosh berolmagan.

Qoraxoniylar saltanatida "qal'a, mustahkam qo'rg'on" ma'nosini bildirgan *tura* (< *tur* – turmoq, joylashmoq) istilohi Temuriylar qo'shinida odam bo'yiga barobar keladigan qalqonni ifodalashga xizmat qilgan. Qalqonning bunday turi bilan asosan piyoda hamda o'qchi (*otg'uvchi*) askarlar qurollangan. Ponipat jangida Bobur tufakandozlarni tura bilan ta'minlab, bir-biriga qoramol terisidan tayyorlangan *arg'amchi*-arqon yordamida bog'langan aravalar orasiga joylashtirgan edi. Turalardan mustahkam qal'a, qo'rg'onlarga yopirilib qilinadigan hujum paytida askarni dushman o'qidan saqlashda keng foydalanilgan. Muhammad Solih "Shayboniynoma" asarida ta'kidlashicha, 1500-yili Saripulda Boburga qarshi kechgan jangda Shayboniixonning ikki mingta *yayog'* – piyoda va uch mingta *otquchi* – o'q-yoychilari tura bilan ta'minlangan⁵⁰. Qayd etilgan har ikki o'zbekcha istilohga ma'nodosh sifatida arab tilidan kirgan *sipar* o'zlashmasi ham bot-bot ishlatilgan.

Avval ta'kidlanganidek, XIV asrning ikkinchi yarmi, ya'ni aynan Amir Temur davrida O'rta Osiyoda *ra'd* nomli o't sochar qurol paydo bo'ldi. Zambarakning ushbu turi va uning qo'yilishi xususida Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida aniq ma'lumot keltirilgan. Dastavval ko'ra va damlar tayyorlanib, ma'danlar eritilgan. Simob, qalay va mis aralashmasidan katta koptokka o'xshash *tosh*-snaryad yasalgan. Toshning ichi

⁵⁰ *Муҳаммад Солиҳ*. Шайбонийнома. Нашрга тайёрловчи Н. Даврон. – Т.: "Фан", 1961. – Б. 83.



doru, adoviy – porox va moddalar bilan to'ldirilgan. Tosh (snaryad)da ikki teshik bo'lgan, bu teshiklardan ikkita *fatila*-pilik kirgizilgan, keyin tosh *ra'd yoyi* – to'pning stvoliga o'rnatilgan. Nihoyat, ra'd yoyi yordamida pilikka o't qo'yilgach, tosh-snaryad dushman tomon otilgan. O't yonuvchi moddaga yetgach, qattiq portlash natijasida kuchli sado, o't – alanga, qora tutun, badbo'y hid hosil bo'lgan⁵¹. Tarixiy manbalar XV–XVI asrda o'rta Osiyoda Bobur va o'zbek xonlari qo'shinida to'pning yangi turi paydo bo'lganidan dalolat beradi. Yangi zambaraklarning ba'zilari boshqa yurtlardan keltirilgan, ayrimlari to'p quyish texnologiyasini egallagan mahalliy yoki ajnabiy ustalar tomonidan yasalgan.

Bobur qo'shinida *qozon* istilohi bilan nomlangan to'p, zambarak quyish vazifasi usta Aliqulining zimmasida bo'lgan. Ustod Aliquli turli hajmdagi qozonlarni quygan. Bunday to'p ikki *doruxona* – *doru*-porox solinadigan va *tosh*-snaryad o'rnatiladigan ulama qismdan iborat bo'lgan. Bu qismlar alohida-alohida tayyorlangan. *Qozon* quyish jarayoni quyidagicha kechgan: ko'ralarda eritilgan *olot*-metall mis *nov*-tarnov orqali maxsus qolipga quyilgach, ma'lum muddat sovutilgan. Tayyor bo'lgan qozon otish vaqtida otilgan o'tni yutish va vujudga keladigan zarbani yerga yo'llash uchun *aroba* – maxsus moslamaga joylashtirilgan. Arobalarga *sepo*ya-uchoyoqlar ham o'rnatilgan. Qozon quyish har doim ham muvaffaqiyatli chiqmagan, ba'zan sinov chog'ida to'p portlab ketgan, unga xizmat qiluvchilar halok bo'lishgan.

Bobur katta hajmli to'p-*ulug' qozon*ning otish sinovini quyidagicha bayon etadi: *Yakshanba kuni oyning sakkizida Ustod Aliquli o'shul uluq qozoni bilakim, quyarda tosh uyi benuqson edi, tosh otarida tafarrujiga bordim. Namoz digar bor edi, tosh otti.*

⁵¹ Алишер Навоий. Хамса. Садди Искандарий. Ўн беш томлик. Ўнинчи том. – Т.: – Б. 146–147.



*Ming olti yuz qadam bordi. Ustodg'a kamar xanjar va xil'at va tupchoq ot in'om bo'ldi*⁵². Qozon o'rnatilgan arobani to'rt-besh yuz kishi arang tortgan. Shu bois bunday og'ir ishga uch-to'rt fil jalb qilingan. Qozondan bir kunda sakkiztadan o'n oltitagacha tosh otilgan. 1528-yilda Rono Sango va bengalliklar bilan kechgan janglarda Bobur qo'lga kiritgan g'alabalarni ta'minlashda qozonlarning o'rni sezilarli bo'lgan. Rono Sangoning askarlari va kemalariga jiddiy shikast yetkazgan ulug' qozonga sharafli "*G'oziy qozon*" nomi berilgan. "*Abdullanoma*"da bunday zambaraklarga "*Jahongir qozon*" va "*Qora G'oziy qozon*" laqablari qo'yilgani ta'kidlangan.

Qozon uchun mo'ljallangan *tosh*-snaryad uch buxoro mani og'irligida quyilgan. Hofiz Tanish Buxoriyning yozishicha, Hirot-da quyilgan har yetti qozondan biri 2–3 man og'irligidagi tosh otgan. XVI asr boshlarida harbiy harakatlar chog'ida mahalliy ustalar quygan to'plar qatori, yevropacha zambarak – *farangilar* ham ishtirok etgan. To'pning ushbu turini otuvchilar *farangiboz* deb yuritilgan. Bobur Usta Aliqulining farangi otish mahoratiga ham ega bo'lganligini qayd etgan: *Ustod Aliquli ham anda edi. Ul kun ham yaxshilar tufang otti, ikki qatla farangi otti*⁵³.

Bobur qo'shinida *aroba*-lafetga o'rnatilgan *zarbzan* – dala to'plari ham mavjud bo'lib, ular hajm jihatdan qozondan kichikroqligiga qaramay, otish tezligi yuqori bo'lgan. Zarbzanni boshqarishga Ustod Aliquli hamda Kichik osiyolik Mustafa Rumi mas'ullik qilgan. Ponipat jangida Mustafa to'pchisi g'olning so'l qo'lidagi arobalar ustidagi zarbzanalardan dushmanni o'qqa tutish vazifasiga tayinlangan. "*Abdullanoma*"da to'pning *zambarak* deb atalgan turi ham tilga olingan. Keyinchalik *qozon, zarbzan, farangining* qurollanishdan chiqib ketishi bois ularni ifodalovchi istilohlar ham tarixiy terminlar qatoridan o'rin olgan.

⁵² Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент, 1960. – Б. 379.

⁵³ Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент, 1960. – Б. 283.



Qurolsozlar aksariyat ayni bir turdagi urush qurollari (*urush asbobi, urush yarog'i*)ni yasashga ixtisoslashgan. XVI–XVII asrlarda Samarqand va Buxoroda qilich, tig', pichoq, shamshir, o'q-yoy, nayza yasovchi ustalar faoliyat yuritishgan. Shu bilan birga, yevropacha to'plar, pichoqlar, sovutlar O'rta Osiyoga keltirilgan.

Uch xonliklar qo'shinida artilleriyaning turlarini ifodalash maqsadida *to'b/to'p, zambarak, jazoyir* terminlaridan foydalanilgan. Bu davrda qirg'in keltiruvchi qurolning yangi turi, ya'ni bomba qurollanishga kirib kelgan va u *qumbura* deb nomlangan. Hozirgi turk tilida *kumbara* termini "bomba"ni ifodalashda faol qo'llanilmoqda. XIX asr o'rtalarida Buxoro amirligi qo'shinida turli kalibrli 50 ta to'p bo'lgan, ularning 32 tasi Buxoroda, 2 tasi Jizzaxda, 10 tasi O'ratepada, 1 tadan Jizzax va Chorjo'yda, 4 tasi Zominda saqlangan. Buxorodan tashqari yerlarda o'rnatilgan to'plar mahalliy aholidan jalb etilgan xizmatchilar nazoratida bo'lgan⁵⁴. Amirning ixtiyorida bir qancha kichik kalibrli falknet-to'plar bo'lib, ular tuyaning egariga mahkam bog'langan holda olib yurilgan. Erondan ketirilgan to'pning bu turi juda yupqa qilib quyilgan⁵⁵. Buxoro amirligi, xususan, Kulob va Qorategin bekliklarida XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida Eronda quyilgan silliq stvolli zambaraklar bilan qurollangan to'pchilar bo'limi mavjud edi. Bunday turdagi to'plarga o'q stvol og'zidan joylashtirilgan.

XIV asrda Kichik Osiyodan O'rta Osiyoga kirib kelgan o'tsochar qurolning yana bir turi, ya'ni miltiq *tufak/tufang* istilohi bilan atalgan. *Tufak // tufang* dushmanning jonli kuchlariga nafaqat dala janglari, balki shahar, qal'a va qo'rg'onlarni qamal

⁵⁴ Троицкая А.Л. Военное дело в Бухаре в первой половине XIX в. Сборник статей истории и филологии народов Средней Азии. Посвященная 80-летию со дня рождения А.А.Семенова. – Сталинабад. 1953. – С. 216.

⁵⁵ Троицкая А.Л. Каталог архива Кокандских ханов XIX века. – С. 312.



qilish paytida ham katta talofat keltirishga mo'ljallangan. Hindistonda Bobur tomonidan erishilgan g'alabalarda tufak bilan ta'minlangan tufakdozlarning o'rni salmoqli bo'lgan. Ponipat jangida hindlarning jangovar fillari va ko'p sonli askarini daf etishda tufakning ishga solinishi zafarni ta'minlashda munosib ulush bo'lib qo'shilgan edi. *Tufak // tufang* bilan jihozlangan tufakchilar shahar, qal'a yoki qo'rg'onni mudofaa qilish chog'ida burj va borularga qo'yilgan hamda dushmanni o'qqa tutgan. O'tsochar qurolning bu turi XIX asrning so'nggi yillariga ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

XV asrning oxiri – XVI asr boshlarida *miltiq* istilohi yordamida anglashilgan o'tsochar qurolning muomalada paydo bo'lishi kuzatiladi. Miltiqlar stvolining uzun-qisqaligi nuqtai nazaridan nomlanishda ham bir-biridan farqlangan. Xususan, qisqa stvolli miltiq *bashqiyon*, uzun stvolli miltiq, ya'ni karabin *sepishkan* deb yuritilgan. Miltiqning boshqa bir turi *shamhol* Xorazm xonlari tarixiga oid manbalarda faol ishlatilgan, u bilan qurollangan merganlar *shamholchi* istilohlari bilan nomlangan. Bu davrda *o'q* termini nafaqat kamon o'qi, balki o'tsochar miltiq o'qlari va zambarak snaryadlarini ham ifodalagan. Amir Temur qo'shinida dushmanning qal'a va qo'rg'onlarini vayron qilish, devorlarida rahnalarni ochish maqsadida *manjaniq*-toshotar quroldan foydalanaverilgan. Keyinchalik to'pning qurollanishidan faol joy olishi oqibatida *manjaniq, faloxan, charx, paloxmon* singari tosh va naft irg'itadigan aslahalarga ehtiyoj qolmagan.

XIV–XIX asrlarda sanchish, kesish, chopish, yanchish uchun mo'ljallangan yarog'larning turfa turlari mavjud bo'lib, ular bir qator turkiy va o'zlashma istilohlar bilan nomlangan. Bu davrlarda qadimdan qo'llanishda bo'lgan *qilich* terminining arabcha *sayf* va *husom* ma'nodoshlari ishlatilgan. O'tkir tig'li qilichni forscha-tojikcha *shamshir* hamda hindcha *balor* va *katorta* istilohlari ham anglatgan. So'nggi ikki nom ular ifodalagan



aslahaning Hindistonda yasalib, O'rta Osiyoga keltirilgani xususida mulohaza yuritishga izn beradi. Forscha-tojikcha *hanjar* o'zlashmasining o'zbek tilida paydo bo'lishi XIV asrga borib taqaladi. Belga kamar yordamida taqiladigan bu sanchish yarog'i *tig'*, *xasht*, *bo'gda* nomlari bilan ham yuritilgan. Oltin bilan bezatilgan *xasht*lar hukmdorlarga sovg'a sifatida taqdim qilingan.

Amir Temur janglarda matonat va qahramonlik ko'rsatgan askarlar, bahodirlar va sarkardalarni rag'batlantirish, boshqalarga o'rnak qilib ko'rsatish, obro'-e'tiborini ko'tarish maqsadida ularga xossa zarbof to'n va oltin kamarli xanjar tuhfa etgan. Zarbof to'n, oltin kamar, xanjar, tug' (bayroq) va nog'ora muayyan yurt, mamlakat hukmronligiga tayinlangan shaxsning belgisi sanalgan. Qonun tusiga aylangan ushbu odat Temuriy mirzolar, chunonchi, Bobur tomonidan ham keng tatbiq etilgan. Ponipatdagi olamshumul g'alabadan keyin Agraga kelgan Bobur nomdor sarkardalarni turfa sovg'alar bilan xushnud qilgan. Jumladan: *Humoyung'a chorqab va kamar shamshir va oltun egarlik tubchoq, Chin Temur Sultong'a va Mehdixojag'a va Muhammad Sulton mirzog'a ham chorqab va kamar shamshir va kamar hanjarlar in'om bo'ldi*⁵⁶. Matnda kelgan forsha-tojikcha *chorqab* // *choharkab* istilohi amirlar va hukmdorlarga mo'ljallangan yarog' turini anglatadi. *Shamshir, xanjar, katoraga* qimmatli toshlar qadalgan. Nafaqat sarkardalar, balki jangchilarni ham murassa' xanjar va rang-barang liboslar, zar sarupolar bilan rag'batlantirish an'anasi uch xonliklar qo'shinida ham saqlanib qolgan. Qilich, shamshir, xanjarlarning tutqichini ifodalashda arabcha *qabza*, o'zbekcha *sop*, forsha-tojikcha *dasta* istilohlari qo'l kelgan.

Ko'k turklar davrida sanchish qurolining o'ta samarali turi, ya'ni nayzani ifodalagan *sungu* istilohi bir qancha arabcha va

⁵⁶ Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: 1960. – Б. 366.



forscha-tojikcha o'zlashmalarning XVI asrdan iste'molga kirib kelishi oqibatida eskirgan (arxaik) so'zlar qatoridan o'rin ola boshlagan. *Jida, kesma, sanchqoq* istilohlari iste'moldan butunlay chiqib ketgan. Aksincha, ularning o'rnini arabcha *sinon, rumh, nochah* (kalta nayza), *harba*, forsha-tojikcha *nayza* va *palorak* o'zlashmalari egallagan. XIX asrga oid tarixiy va badiiy manbalarda *nayza* va *sinon* istilohlari tez-tez ko'zga tashlanadi. Nayzalarning uchi *no'g* deb nomlangan. O'tliqlar asosan uzun nayzalar yordamida jang harakatlarini olib borishgan. Garchi keyingi davrlarda o'tsochar qurollar urushda yetakchilikni qo'lga kiritgan bo'lsa-da, ko'pgina qo'l janglarida nayza, qilich, gurzilarning ahamiyati u darajada pasaymagan. Fikrni dalillash uchun Ogahiyning Xorazm xoni Olloqulixon hukmronlik qilgan davr (1825–1843) voqealariga bag'ishlangan "Riyo-ud davla" asaridan quyidagi parchani keltirish o'rinli: *Va har fardu afrodi o'zin shijoatu mutorozatda Rustami dostondin afzal va Somu Narimondin akmal sanab, eginlarig'a javshan va qo'llarig'a nayza va bellarig'a qilich hamoyil qilib, ul qal'aning harosat (muhofaza) va inzibot(mudofaa)ig'a yakzabon va yakdil bo'ldilar*⁵⁷. Buxoro amirligida muntazam qo'shinni tashkil qilgan *sarbozlar, to'pchilar* va *o'nboshilar* nayzali miltiq, qilich va to'pponcha bilan qurollangan. Yuzboshilar ikki stvulli miltiq, to'pponcha va kumush ishlov berilgan qora "Buxoro qilichlari" bilan yarog'langan. Uzoqdan turib jang qilish, dushman askarlariga *shiba* o'qi yog'dirish, saflarni parokanda qilishda tengi yo'q qurol keyingi davrlarda ham *yoy, kamon* va *taxsh* istilohlari bilan nomlangan. XIV–XVII asrlarda ham *yoy* yengil o'tliqlar va piyodalarning nishonga uruvchi tez otar quroli vazifasini o'tayvergan.

Yoy uchun ishlatiladigan o'q qattiq va mustahkam yog'ochdan maxsus asbob yordamida silliq va tekis qilib yasalgan, uning

⁵⁷ Огаҳий. Асарлар. V жилд. – Т.: "Ф. Ғулом", 1978. – Б. 83.

dum qismiga qush pati yopishtirilgan. Ovozli va ovozsiz o'qlar ishlab chiqarilgan. *Po'lak, yung va dunbola*, ya'ni qush pati bilan yasalgan ovozli o'qlar g'animni sarosima va qo'rquvga solish, ovozsiz o'qlar esa yovga qo'qqisdan, kutilmagan zarba berish, o'qlarning qayerdan uchayotganligini sezdirmaslik uchun mo'l-jallangan. Yoy o'qiga aksariyat uchlik temir – *bashoq, paykon* o'rnatilgan. Yoy otishda mergan qo'lga taqiladigan halqa – *zehgir*-dan foydalangan.

Tahlil qilinayotgan davr manbalarida yoy o'qi o'zbekcha *o'q*, forscha-tojikcha *novak, xadang* istilohlari bilan ifodalangan. Metalldan yasalgan o'q *tir*, yassi o'q *kaybur*, patsiz o'q esa *gaz* deb atalgan. O'qning metall uchi *boshog* istilohi yordamida anglashilavergan.

Yoy xaltasini ifodalash uchun asl o'zbek(turk)cha *qurbon* va mo'g'ul tilidan o'zlashgan *sadog'//sadoq'//sag'doq* istilohlari qo'llanilgan. E'tiborga molikligi shundaki, ushbu terminlar *kish* bilan birga "o'qdon" ma'nosini ham ifodalashda qatnashgan. Bu mulohazani Abulg'oziyning "Shajarayi turk" asaridan olingan ashyoviy misol ham dalillaydi: *Taqi sadoqindin bir o'q chiqarib sindurdi*. Yoyning ipi-girish Qoraxoniylar davridagidek *kirish* istilohi yordamida nomlanishda davom etgan. Girishlarning simdan yasalgan turi forscha-tojikcha *zeh // zih* deb yuritilgan.

Yaqin masofada kechadigan to'qnashuvlarda yog'och va temirdan yasalgan to'qmoq hamda gurzilardan ham foydalanilgan. Tut, o'rik, chinor, qarag'ay singari qattiq va mustahkam yog'ochlardan yasalgan *to'qmoq* va *to'puzlar* nafaqat insonlarga zahm yetkazish, balki qalqonlarni ham parcha-parcha qilish xususiyatiga ega bo'lgan. Temirdan yasalgan cho'qmor forscha-tojikcha *gurz, piyoziy* va *govsar*, turk(o'zbek)cha *cho'qmor, bulav* (rus tiliga *bulava* shaklida o'zlashgan), *cho'muq, mayti*, arabcha *amud* singari terminlar bilan atalgan. Gurzining olti qirrali turi



ham mavjud bo'lib, forscha-tojikcha *shashpar* va *kistan* o'zlashmalari yordamida anglashilgan. Gurzining uzun sopli turi ham qo'llanishda bo'lib, *bolqa* deb nomlangan. Ulkan gurzi *laxti ko'hiy* nomi bilan yuritilgan. Yuqorida keltirilgan aslaha bilan jangchilarning XV–XVI asrlarda qurollanganini "Boburnoma"-dagi misol tasdiqlaydi: *Der edikim, shashpar va piyoziy va kistan va tabarzin va boltukim, tegsa bir yeri korgardur. Agar qilich tegsa, boshdin ayoq korgardur, kesar*⁵⁸. Ushbu jumlada ishlatilgan *tabarzin* forscha-tojikcha o'zlashmalardan biri bo'lib, qadimgi urush asbobi oyboltani ifodalamoqda. Xiva xonligi qo'shinida qo'llangan oybolta bu istilohning *tabar* (ruscha *tapor*) shakli bilan ifodalangan.

Oybolta ma'nosi o'zbekcha *boltu//bolta, boltachog* so'zlari bilan ham anglashilgan. Shu o'rinda, bolta nafaqat yovning askarlari bilan sodir bo'ladigan yaqin janglarda, shuningdek, qal'a va qo'rg'onlarning devorlarini buzish, burj hamda borularini yiqitishda ham qo'l kelganini ta'kidlash kerak. Daraxtlardan kema, sol, ko'prik, sarko'b yasovchi yordamchi qismlar bolta, qirka qatori, tesha, arra, iskana, temir ilgak, zanjir va h.k. bilan ta'minlangan. Kirka ma'nosini anglashda *matin* va *kirka* istilohlaridan foydalanilgan. Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, Hindistonga qilingan yurish kunlaridan birida Burhon o'g'lon va Rustam mirzo boshchiligidagi movarounnahrliklar pistirmada turgan *siyohpo'shlar* hamlasiga uchragan va to'zib ketgan. Siyohpo'shlar qochayotgan jangchilarning askariyatini bolta va *matin* bilan shahid etishgan⁵⁹.

1400-yilning qish faslida Gurjiston tomon qo'shin tortgan Amir Temur Xamsha nomli darada o'tib bo'lmas jangalga duch keladi. Sohibqiron hukmiga binoan cherig ahli o'n kun davomi-

⁵⁸ Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: 1960. – Б. 160.

⁵⁹ Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: А.Аҳмедов, Ҳ.Бобобеков. – Т.: 1997. – Б. 194.

da jangaldagi daraxtlarni boltu, damra va arra bilan kesib, enlik yo'l yasagan⁶⁰.

Harbiy qurol-aslahalar ichida harbiy-musiqiy cholg'u asboblarning ham o'rni, ahamiyati sezilarli bo'lgan. Zotan, Ko'k turk xoqonligi tarixiga doir manbalardan tortib, to uchxonliklarga oid obidalarda yurish chog'ida qo'shin tarkibida harbiy-musiqachilar guruhining ishtirok etishi xususida yetarlicha ma'lumotlar keltirilgan. Harbiy-musiqachilardan nafaqat askarlarni yov bilan yuz beradigan to'qnashuvda ruhlantirish, ularni jasorat va qahramonlikka yo'llash, balki harbiy mahoratni takomillashtirish maqsadida uyushtiriladigan ko'rik hamda ov – *charga* paytida ham keng foydalanilgan. Vaqt o'tishi bilan harbiy cholg'u asboblarning turlari ham kengayib, ular yangi istilohlar bilan ifodalangan. Ayni chog'da, qadimdan qo'llanishda bo'lgan istilohlarning ayrimlari o'z ahamiyatini saqlab qolgan. Ko'k turklar va Qoraxoniylar davrida “nog'ora” ma'nosida ishlatilgan *kuvrug* va *tug'* istilohlari o'z ahamiyatini yo'qotgan. Birinchi istilohning *kavurga* // *kaburka* // *ko'raka* shakllari Temuriylar va O'rta Osiyo xonliklari davrida nog'orani nomlashda ishlatilgan. Nog'oraning katta turi, ya'ni dovul arabcha *tabl* istilohi bilan anglashilgan. Bunday nog'ora sadosi qo'shinning biror harakati, ya'ni lashkargohdan ko'chishi yoki belgilangan *yurt* – manzilda to'xtashi yoxud dushman qorasi ko'ringani haqida xabar bergan. “Boburnoma”da *tabl* istilohi anglatgan ma'noda *tablboz* terminining ham qo'llangani kuzatiladi: *Kechaning uch paxri bo'lg'ay edi, boyakbar tablboz uni va suron chiqdi*⁶¹. Nog'oraning hajman katta turi do'mbiraning boshqa bir forscha-tojikcha *ko's* o'zlashmasini ham bildirgan. *Ko'si rahil* birikmasi ko'chish, jo'nash, o'tlanish oldidan chalinadigan katta

⁶⁰ *Шарафуддин Али Йаздий*. Зафарнома. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: А.Аҳмедов, Ҳ.Бобобеков. – Т.: 1997. – Б. 227.

⁶¹ *Заҳриддин Муҳаммад Бобур*. Бобурнома. – Т.: 1960. – Б. 162.

nog'orani anglatgan. Nog'oraning bunday turini chaluvchi sozanda *ko'szan* deb yuritilgan. Ogahiyning Xorazm xonlari tarixiga bag'ishlangan asarlarida *ko's* so'zining aks etganligi, ushbu istiloh va u anglatgan cholg'u asbobining XIX asrda ham muomalada qolganligini dalillaydi.

Rus tilidagi litavra ma'nosiga mos keluvchi *naqora* istilohi XIV–XV asrlarda arab tilidan o'zbek (turkiy) tiliga kirib kelgan. Nog'ora yasovchi usta *naqorachi*, nog'ora chalinadigan maxsus joy esa *naqoraxona* istilohlari bilan ifodalangan.

O'zbek tilidagi “karnay”, rus tilidagi “rog, truba” ma'nosini ifodalashda sof o'zbek(turk)cha *burg'u* termini qatori, forscha-tojikcha *karnay* hamda *nafir* o'zlashmalaridan foydalanilgan. Karnay, nafir va *burg'u* aksariyat nog'ora, ya'ni *kavurga*, *tabl*, *ko's*, *naqora* jo'rligida chalingan: *Temurbeg hamul dam burg'u chaldurub, kavurga urub, o'tlanib, Sayxun yoqasiga yetdi*⁶². Rus tilidagi “svirel” ma'nosi forscha-tojikcha *sur* va *surnay* terminlari bilan anglashilgan. Surnayning boshqa harbiy cholg'u asboblari kabi sadosi yovni qo'rquv, sarosimaga tushirgan, uning ba'zan jangdan yuz o'girishiga bois bo'lgan: *Yovning karnayin va surnayin ovozini eshitdi-da, o'tlanib, inisi Elbars Sulton qatina bordi*⁶³. Yuqorida nomlari qayd etilgan cholg'u asboblari bilan but qilingan sozandalar qo'shinning markazidan, tepalikda turli rangdagi jangovar bayroqlar ostida oliy bosh qo'mondon bilan birgalikda o'rin egallashgan. Jangdan oldin harbiy cholg'uchilar guruhi (orkestr) janggohda yasol tortib turgan askarlarning yerni larzaga keltiruvchi *suroniga* hamohang turfa kuy(marsh) larni chalib turgan. Jangovar kuylar jang paytida askarlarning takbir va suroni, to'p va miltiqlarning sadosi jo'rligida yangrash-

⁶² *Таварихи гузида*. Нусрат-наме. Исследование, критический текст, аннотация, оглавление и таблица сводных оглавлений к.ф.н. А. Акрамова. – Ташкент, 1967. – С. 13963.

⁶³ *Абулғозий*. Шажарайи турк. – Т.: 1992. – Б. 167а.



da davom etgan. Qal'a va qo'rg'onlar qamali, ov (*charga, shikor*) va ko'rik paytida ham ushbu usuldan unumli foydalanilgan. Jumladan, 1391-yilning 18-iyun kuni Qunduzchada Sohibqiron bilan To'xtamishxon o'rtasida yuz bergan jangdan oldin Amir Temur tomonidan qo'shinning qurol-aslahasi, jangovar holatini nazardan o'tkazish maqsadida uyushtirilgan va ikki kun davom etgan *ko'ruk* (parad) nog'oralar va nafirlar chalish hamda suron solish bilan yakunlangan.

1402-yilning 20-iyulida Anqara bo'sag'asida bir-biriga ro'para kelgan Amir Temur va Yildirim Boyazid boshliq qo'shinlar saflar tortgach, ikki tarafdin nog'ora va nafirlar chalinib, suron solingan.

Ta'kidlash joizki, Amir Temur, Temuriylar, Shayboniylar davrida yurish yoki jangdan oldin qo'shinni ko'rikdan o'tkazib, uning jangovar ruhi va tayyorgarligini aniqlash an'ana tusiga kirgan. Ko'rik qo'shinning bo'lajak jangga shayligini nazardan o'tkazish qatori, unda qatnashayotgan chet el elchilari yuragida vahima va qo'rquv paydo qilish singari taktik vazifani ham bajargan. Ko'rikdan asosiy jangovar qismlar qatori, ularning ortidan boruvchi og'ir karvon *o'qruq // o'ruq* (oboz) ham o'tkazilgan. O'g'ruqda olib yuriladigan jangchilarning ko'rpa-to'shagi *partol* istilohi bilan nomlangan. O'g'ruqda qassoblar, bakovullar, qovurilgan va pishirilgan go'sht bilan savdo qiluvchilar, arpa va meva sotuvchilar, nonvoylar ko'chib yurgan. Turli-tuman kosiblar, hunarmandlar, hatto, ko'chma hammomlar jangchilarga xizmat ko'rsatgan. Abdurazzoq Samarqandiy 1405-yilning apreli-da Umar mirzo g'olning besh ming kishidan iborat o'g'ruqidan tashqari, har biri 500 yuz otliqdan tashkil topgan 47 ta mukammal qo'shinni ko'rikdan o'tkazganini qayd etgan⁶⁴.

⁶⁴ *Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II жилд. 1405-1429 йиллар воқеалари. - Т.: "O'zbekiston", 2008. - В. 59.*



Harbiy yurishga saltanatning ramzlaridan biri – jangovar bayroqlarni ko'targan holda o'tlanish qadimdan odat tusini olgan. Ko'k turk xoqonligi va Qoraxoniylar qo'shinida qo'llangan asl *bayroq* va *tug'* istilohlari keyingi sulolalar qurolli kuchlari terminlari tizimida bir nechta arabcha va forscha-tojikcha o'zlashmalar bilan yonma-yon ishlatilib, o'ziga xos ma'nodoshlik qatorini shakllantirgan. Temuriylar harbiy yurishlari aks etgan tarixiy manbalarda *bayroqqa* nisbatan *tug'* so'zining faol iste'mol qilingani kuzatiladi. Bu kezlarda *tug'*, shuningdek, ot dumi yoki shoyi mato bog'langan yog'ochni ham anglatavergan. *Tug'*ning ushbu ma'nosi forscha-tojikcha *parcham* o'zlashmasi bilan ham ifodalangan. "Bayroq" ma'nosini bildirishda arabcha *alam, royat, livo* va o'zbekcha *yalov* so'zlariga murojaat qilingan. *Yalov* istilohi dubulg'aning tepasiga bog'lanadigan parcha gazmol (bantik)ni ham anglatishda qo'l kelgan. Ushbu ma'no arabcha *shuqqa* o'zlashmasi bilan ham ifodalangan. Sohibqiron lashkarboshilari kiygan dubulg'alarning yalovi ular ko'targan bayroqlari, kiygan kiyimlari, hatto, otlarining tuslari singari qizil, yashil, sariq, oq, qora rangda bo'lgan. Bayroq va tug'lar bog'langan yog'ochning uchiga o'rnatilgan oltin yoki kumush yarim oy shakli *mahcha // mohcha, mahchai tug'* istilohlari bilan atalgan.

Ogahiyning "Riyoz ud-davla" asarida Olloqulixon tomonidan Sadvar to'qayi yaqinida o'rnatilgan bayroqni qo'lga kiritish poygasi (otchopar) o'tkazilgani, g'oliblarga katta miqdordagi mablag' in'om qilingani tasvirlangan⁶⁵. Ogahiy Muhammadaminxon hukmronlik qilgan davr (1856-1865)ga bag'ishlangan "Jome ul-voqeoti Sultoniy" asarida e'tirof etishicha, xonlikda yuqori lavozim va mansab egalari – ma'murlarga ularning egallab turgan martabasi ramzi sifatida *tug', livo, royat* va *alam* berilishi odat tusini olgan. Xizmatda sustkashlik va noqobillikka yo'l qo'ygan

⁶⁵ *Огаҳий. Асарлар. V жилд. - Т.: 1978. - Б. 168.*



amaldorlar lavozimidan bo'shatilishi bilan birga bayrog'idan ham ayrilgan. Masalan, Avazxoja shayxulislomning tug'i amir Muhammad Solih otaliqqa, Ernazar inoqning livosi amir To'ra Murod otaliqqa, Qorli yuzboshining royati Bekish xalifaga, Yaxshimurod yuzboshining alami Ahmadbekka inoyat qilingan⁶⁶. Tarixiy ma'lumotlar uch xonliklar, xususan, Xiva xonligi qo'shida *tug'* yirik, *bayroq* nisbatan kichik harbiy qismlarga berilgani e'tirof etiladi. Bayoniyning yozishicha, 1848–1849-yilda harbiy yurishga otlangan Muhammad Rahimxon qo'shini oldida beshta *tug'* olib yurilgan. Bu *tug'*larning ortidan yigirma beshta uruqqa tegishli *tug'*lar hilpirab turgan. XIX asrning boshlarida Buxoro amirligida *pansodboshi* rahbarligida besh yuz askardan iborat qism jangga *bayroq* istilohi bilan ifodalangan kichikroq *tug'*, mingboshi esa *tug'* termini bilan nomlangan katta bayroq ko'targan holda kirgan⁶⁷.

XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida rus tilidan o'zbek tiliga *snaryad*, *bomba*, *to'p*, *granata*, *tank*, *aeroplan*, *mina*, *artilleriya* singari qurol-yarog'larni ifodalovchi terminlar kirib keldi: *Yapun askarlari to'rt taqsimga bo'linib, sakkiz yuz adad bomba, ya'ni ichig'a nihoyati mayda o'q soling'an katta o'qni otadurlar* (TVG, 1904, 35-son). Shu davrda ruscha termin birikmalarni ham to'liq kalkalash yo'lga qo'yildi. Chunonchi, rus tilidagi *skostroelnaya pushka* termini o'zbek tiliga *tez otar to'p* shaklida kalkalashtirildi: *Aytibdularki, bizning hozirgi tezotar to'plarimiz taxminan 5 chaqirim joydin uradur* (TVG, 1908, 2-son).

Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan sobiq sho'rolar hududida yangi qurollar ishlab chiqarishga kirishildi. Shu munosabat bilan o'zbek harbiy terminlar tizimida qurol-aslahalar nomini ifodalovchi o'ziga xos qatlam yuzaga keldi. Bunda, birin-

⁶⁶ Огаҳий. Асарлар VI жилд. – Т.: “Ф. Ғулом”, 1980. – Б. 23.

⁶⁷ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М.: “Наука”, 1975 – С. 139.



chidan, o'zbek tilida qadimdan mavjud bo'lgan terminlarning qo'llanilishda davom etgani, ikkinchidan, yangi terminlarning paydo bo'lish holatlarini e'tiborga olish maqsadga muvofiq.

Urush yillarida o'qsochar qurolning yangi turlarining qurolanishga kirishi bois ularni ifodalovchi terminlar ham tilda o'z aksini topdi. Xususan, *avtomat* (pistolet-pulemyot) urush yillarida ko'p qo'llangan harbiy terminlar sirasidandir.

Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, o'zbek harbiy terminologiyasida qurol-yarog' nomlarini ifodalovchi istilohlar quyidagicha shakllandi:

a) qurol-aslahalar nomlari aynan, ya'ni ruscha shaklida o'zlash-tirildi: *vintovka*, *pulemyot*, *avtomat*, *pistolet*, *granat(a)*, *bomba*, *minomyot*, *snaryad*, *mina*, *granatomyot*, *zenitka*, *tank* va h.k.

b) o'zbek tilida mavjud muqobillari bilan ifodalandi: *to'pponcha*, *miltiq*, *beshotar* va h.k.

v) birikma terminlar o'zbek tili grammatik qoidalari moslashtirildi: *stanokli pulemyot*, *Dektyarev pulemyoti*, *tankotar granata* (tankka qarshi granata deb ham qo'llandi), *qo'l granatasi*, *o'zi yurar to'p*, *oltiotar minomyot* va h.k.

Minomyotlarning turlarini ifoda qiluvchi *51 mm li rota minomyoti*, *82 mm li batalon minomyoti*, *120 mm li polk minomyoti*, *6 stvulli minomyot* (ba'zan oltiotar minomyot deb ham yuritilgan) kabilar ham o'zbek harbiy terminologiyasining tarkibiy qismiga aylandi.

Birinchi jahon urushi yillarida *aeroplan* termini ishlatilgan bo'lsa, keyingi davrlarda u o'z o'rnini *samolyot* terminiga bo'shatib berdi. Shu bilan birga, kalka yo'li bilan hosil qilingan termin birikmalar leksikondan mustahkam o'rin oldi.

Bu davrda *snaryad*, *mina* so'zlari o'rnida o'q so'zining ishlatilganligini ko'ramiz: *Tankotar to'plardan otilgan o'qlar dushman tanklarini majaqlay boshladi* (“Qizil Armiya” gazetasi, 1945, 12-may). *Shu to'rt soat ichida Bryukovning yaqiniga tushib*

portlagan minomyot o'qlari uni bir necha marta tuproqqa ko'mdi ("Suvorov natiski" gazetasi, 1945, 4-mart).

O'zbek tili harbiy leksikoni urush yillarida snaryadning quyidagi turlarini ifoda qiluvchi iboralar bilan boyidi: *bronteshar snaryad, radar snaryadi* va h.k.

Urushning so'nggi yillaridan e'tiboran *atom bombasi, vodorod bombasi, bakteriologik (biologik) qurol* iboralari keng ishlatildi.

Urush davrida *o'ziyurar to'p, tankotar to'p* terminlari *o'zi yuradigan to'p, tankka qarshi otadigan to'p* shaklida ham uchraydi. So'nggi davrlarda bu xil terminlarning ixcham variantlari keng qo'llanmoqda.

Hozirgi o'zbek terminologiyasi tarkibi qurol turlari nomlarini anglatuvchi istilohlar hisobiga kengayib bormoqda. Chunonchi, o'qotar qurol, mina, torpeda va raketali qurol, reaktiv qurol, yadro quroli, kimyoviy qurol, bakteriologik (biologik) qurol, sovuq qurol, talafot etkazish xususiyatlariga ko'ra: ommaviy qirg'in quroli; shikast yetkazuvchi oddiy qurol; bajaradigan jangovar vazifalarning miqyosiga ko'ra, strategik; operativ-taktik; taktik qurol; qo'llanish maqsadiga ko'ra: bir maqsadli – samolyotga qarshi, tankka qarshi, suv osti kemasiga qarshi, ko'p maqsadli, majmuy qurol; xizmat ko'rsatadigan insonlar soniga ko'ra: shaxsiy qurol, guruh quroli; o't ochish jarayonining avtomatlashtirilganlik darajasiga ko'ra: avtomat(ik), yarim avtomat(ik), avtomatlashtirilmagan; bevosita shikast yetkazuvchi vositalarning nishon tomon harakati mobaynidagi trayektoriyani o'zgartirish imkoniyati mavjudligiga ko'ra: boshqariladigan, boshqarilmaydigan singari terminlar shular jumlasidan hisoblanadi.

Bugun o'zbek harbiy terminologiyasi tizimidan keyingi yillarda rivojlangan davlatlar, xususan, Rossiyada ishlab chiqilgan zamonaviy qurollarni ifodalovchi "Armata", "Avangard", "BASTION-P", "Bulava", "ISKANDER", "Tsirkon", S-400 "Triumf", "SARMAT" kabi nomlar ham joy olmoqda.



Savol va topshiriqlar

1. Ko'k turk xoqonligi cherigida "qurol-yarog' aslaha" ma'nosi qaysi istiloh bilan ifodalangan?
2. Qoraxoniylar davrida qurol-yarog'ning qanday turlari bo'lgan?
3. Qadimdan qaysi shaharlarda o'q-yoy ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan?
4. Askarlar merganlik ko'nikmasini qanday hosil qilgan?
5. Harbiy musiqa asboblarning turlari xususida so'z yuriting.
6. Himoya qurollari qanday materiallardan yasalgan?
7. Sovutning turlari xususida fikr bildiring.
8. O'tsochar qurolning ilk namunasi qachon Movarounnahr-ga kirib kelgan?
9. Sanchish quollarining turlari borasida mulohaza yuriting.
10. To'pning turlari "Boburnoma"da qanday istilohlar bilan ifodalangan?
11. Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida qo'lingan qurol-yarog' nomlarini ifodalovchi istilohlarni belgilang va izohlang:

*Alar javshani borcha qalqonduruq,
Sinon qo'llarida nechukkim, so'ruq (savag'ich).
Vale bodpolarg'a (tulpor) solg'an kejim
Saqarlotu borcha yovurqon kejim.
Dovulg'a bo'lub to'ppi yanglig' bari,*

*O'tag'a bosh uzra sariq qush pari.
Kiyib barchasi javshani zangsoz,
Yoruq ko'zgudek zangdin beniyoz.
Yana xo'dlar misli javshan kelib,
Qaro tunda xurshedi ravshan kelib.
O'tag'a temur birla shahpar misol,
Quyosh uzra sanchib nechukkim, hilol.
Kejim barchag'a sheru babru palang,
Jiba uzra xafton dag'i ushbu rang.*



Asosiy tushunchalar so'zligi

Ashuq – askar yoki sarkardaning bosh qismini o'q, qilich, nayza, to'qmoq yoki gurzidan himoya qilish maqsadida temirdan yasalgan dubulg'a.

Avtomat – avtomatik otish qurolining bir turi.

Bargustvon – jangchilar, jangovar otlar hamda fillarning temirdan tayyorlangan maxsus yopinchi'gi.

Bashqiyon – tuyalarga ortib yuriladigan kichik hajmli to'p, zambarak.

Farangi – XVI asr boshlarida Yevropadan O'rta Osiyoga kirib kelgan kichik hajmli zambarak turi.

Granata – dushmanning jonli kuchi va harbiy texnikasini yaqin masofalarda yakson etish uchun mo'ljallangan o'q-dori turi.

Javshan – simdan to'qilgan sovut.

Jiba – metalldan tayyorlangan sovut turi.

Minomyot – minani tikka otib, dushman ustiga yuqoridan yog'dirish uchun mo'ljallangan, metall taxtaga tayanadigan artilleriya quroli.

Omoch – o'q otish, nayza sanchish, qilich chopish uchun belgilangan nishon.

O'pchin – teri hamda temirdan tayyorlangan sovut turi. Askarlar qatori jangovar otlar ham ushbu sovut bilan ta'minlangan.

Pulemyot – quruqlik, havo va suv yuzasidagi nishonlarni yakson qilish uchun mo'ljallangan avtomatik qurol.

Qilich qamchi – uch qismiga qilich o'rnatilgan qamchi. Qoraxoniylar qo'shinida qo'llanishda bo'lgan.



Quyaq – o'tda toblangan temir parcha (plastinka)lardan yasalgan sovut turi.

Qumbura – portlatuvchi yoki yondiruvchi snaryad, bomba.

Snaryad– artilleriya qurollaridan otiladigan o'q turi.

Sungu – sanchish uchun mo'ljallangan hujum quroli, nayza.

Tabl – harbiy-musiqaviy cholg'u asbob turi, katta nog'ora, dovul.

Tank– zanjirli, zirhlangan, to'p va pulemyotlar bilan qurollangan, murakkab yo'llarda yura oladigan jangovar mashina.

Tanuq – muhoraba paytida jangovar belgi sifatida ko'tarib yuriladigan shoyi yoki kiyik dumidan tayyorlanga kambar bayroqcha (vimpel).

Ya bag'ri – o'q-yoyning o'rta qismi.

Yatan – o'q-yoyning qo'ndoqli turi.

**Test:**

1. Qoraxoniylar, Temuriylar va Shayboniylar qo'shinida o'q-don qanday nomlangan?

- A. kesh // kish
- B. sadoq
- C. girish
- D. sovut

2. Askarning ko'krak qismini saqlovchi sovut turi qanday atalgan?

- A. tura
- B. ashuq
- C. boshuq
- D. bo'ri

3. Yoyning ipini ifodalashda qaysi termindan foydalanilgan?

- A. kirish
- B. ya bag'ri
- C. yatan
- D. boshuq

4. Kertikli bolta ma'nosini ifodalovchi istilohni aniqlang.

- A. saqolli bolta
- B. xalqali bolta
- C. oybolta
- D. tabar



5. Otish o'rne, ya'ni mashq maydoni qanday nomlangan?

- A. omochliq yer
- B. omoch
- C. mashq maydoni
- D. qaboq

6. "Nog'ora, dovul" ma'nosini ifodalagan *tabl* istilohi qaysi tildan o'zlashgan?

- A. fors-tojik
- B. arab
- C. mo'g'ul
- D. rus

7. Jang paytida ko'tarib yuriladigan vimpel-qambar bayroqcha qanday nomlangan?

- A. tanuq
- B. tug'
- C. alam
- D. royat

8. *Jiba* istelohi qachon qo'llanishga kirgan?

- A. mo'g'ul istilosidan keyin
- B. arab istilosidan keyin
- C. rus istilosidan keyin
- D. fors istilosidan keyin

9. *O'pchin* istilohi bilan yuritilgan sovut qanday materialdan tayyorlangan?

- A. teri va temir
- B. teri va qamish
- C. teri va yog'och
- D. temir va yog'och

10. Peshonaga bog'lanadigan maxsus himoya moslamasi qanday nomlangan?

- A. manglayliq
- B. zanuband
- C. tizlik
- D. butluq



Adabiyot:

1. Абулғозий. Шажарайи турк. – Т.: 1992.
2. Алишер Навоий. Хамса. Садди Искандарий. Ўн беш томлик. Ўнинчи том. – Т.: 1965.
3. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. I. М.: – Л.: 1950.
4. Гумилев Л.Н. Статуэтки воинов из Туюк– Мазара. Музей антропологии и этнографии. – М.: – Л.: 1949.
5. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: 1960.
6. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. III том. – Т.: 1963.
7. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару...
8. Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома. Нашрга тайёрловчи Н. Даврон. – Т.: “Фан”, 1961.
9. Огаҳий. Асарлар. V жилд. – Т.: “Ғ. Ғулом”, 1978.
10. Огаҳий. Асарлар. VI жилд. – Т.: “Ғ. Ғулом”, 1980.
11. Распопова В.И. Согдийский город и кочевая степь в VII – VIII вв. КСИА. Вып. 122. – М.: 1970.
12. Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимуру (1403–1406). Перевод со староиспанского. – М.: “Наука”, 1990.




O'rta asrlarda simdan to'qilgan sovut-javshan.



a) Otlıq va piyoda askarlarning teri(charm)dan tikilgan sovuti-o'pchin); b) o'q-yoy (kamon), o'qdon(kesh) va o'q (novak); c) temirdan tayyorlangan jang qurollari: kirka, bolta, shashpar (olti qirrali gurzi), gurzi.



a) Sarkardalarning oltin kamarli qilichi va qini; b) Temuriylar qo'shinida qurollanishda bo'lgan yoy turi-taxsh; c) Jezdan yasalgan qubballi qalqon.



a) Jang qurol-yarog'lari: tug'li nayzalar, egik qilich qini bilan, ikki tig'li(dudama) yassi qilich qini bilan, qubbali qalqon; b) og'ir qurolli otliq askar; c) yoy o'qi uchiga o'rnatiladigan o'q (boshqoq, paykon) turlari; d) sadoq va o'qdon(kish).



Harbiy-musiqa asboblari: karnay, surnay, childirma (doira), nog'ora cho'pi bilan, dovul (tabl).



Oliy bosh qo'mondonning safar chodiri.



O'rta Osiyo xonliklari qo'shinida qo'llangan to'p turi.



BESHINCHI BO'LIM





MUDOFAA VA MUHANDISLIK INSHOOTLARI NOMLARINI ANGLATUVCHI TERMINLAR

Reja:

1. Saltanat xavfsizligida mudofaa istehkomlarining o'rnini.
2. Mudofaa inshootlarini ifodalovchi istilohlar tizimi.
3. Muhandislik inshootlarining rivojlanish omillari.

Asosiy tushunchalar: *blindaj, boru, burj, kungura, ko'chaband, mo'ljar, naqb, nag'am, okop, sarko'b, tikan, transheya, ukak, chaqar, chopar, o'rg'arim, qarag'u, qishloq, qo'rg'on, qal'a, hisor.*

Markaziy Osiyoda mudofaa inshootlari va istehkomlarining harbiy ish va harbiy san'at tarkibida qaror topishi eradan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalariga borib taqaladi. Harbiy mudofaa inshootlarini barpo etish bir necha asrlik tarixga ega bo'lib, chegara hududlar (*uch*) da muhofazalangan qo'nimgohlar, turmush kechirish uchun qo'rg'on, qal'a va hisorlar qurilgan. Chorvachilik bilan shug'ullanuvchi saltanatlarning paydo bo'lishi mudofaa inshootlari ahamiyatining oshishida muayyan rol o'ynadi. Tabiiy, bu davrlardagi istehkomlar hajman katta bo'lmagan, ularda aholi muqim yashamagan, urush chog'ida zaxira ombori hamda mudofaa uchun joy vazifasini bajargan⁶⁸.

⁶⁸ Худяков Ю.С. Древние и средневековые фортификационные сооружения в Южной Сибири и Центральной Азии. Военное дело и средневековая археология Центральной Азии. – Кемерово, 1995. – С. 67.

Ko'k turk xoqonligida saltanatning chegaralari va xavfsizligini ta'minlash maqsadida turli hududlarga harbiy inshootlar va istehkomlar qurish, ularda askarlarni joylashtirish masalasiga alohida diqqat qaratilgan. Bu maqsadda qurolli kuchlarga mo'ljallangan maxsus qarorgohlar barpo etilgan. Xoqonlik tarixiga tegishli bitig'larga harbiy-muhandislik muvziy guruhiga doir istilohlar oz bo'lsa-da, qayd etilgan. Jumladan, xoqonning *o'rd*u istilohi bilan atalgan qarorgohi har tomondan muhofazalangan. Ushbu termin "lashkargoh, askargoh" ma'nosini ham anglatgan. Mazkur sof turkcha terminning qayd etilgan ma'nolarni ifodalashi keyingi davrda ham saqlanib qolgan. Strategik masalalarni hal etish yo'lida qurilgan mudofaa inshootlaridan biri *qo'rg'an* istilohi yordamida anglashilgan bo'lib, unda qo'shin qishni o'tkazgan, yog'ining hujumidan himoyalangan. Qo'rg'onning atrofi handaqli devor to'siq bilan ihota qilingan.

Qoraxoniylar va Xorazmshohlar davrida "istehkom, mudofaa inshooti" ma'nosi asl turkcha *qo'rg'on* qatori, arab tilidan o'zlashgan *qal'a* va *hisor* istilohlari bilan ham ifodalangan. *Qal'a* tevarak-atrofi baland, mustahkam devor va imoratlarga ega shaharning qismi, qo'rg'on yoki butun bir shaharni ham anglatgan. Bu davr harbiy terminologiyasida asl turkcha *tura* istilohining ham "istehkom, qo'rg'on" ma'nosida qo'llangani ko'zga tashlanadi. *Qal'a*, qo'rg'on, tura va hisor u yerda saqlanayotgan askariy kuchlar tomonidan qo'riqlangan. Qo'rg'on va qal'alar nafaqat harbiy maqsadlarga mo'ljallangan, balki vaziyat taqozo etgan kezda ma'lum muddat hukmdorning turar joyi ham sanalgan. Harbiy harakatlar vaqtida, ayniqsa, dushman yurt hududiga bostirib kirgan paytda ularning atrofida kun kechirayotgan tinch aholi uchun boshpana va himoya vazifasini o'tagan.

Mudofaa tizimida devor muhim ahamiyat kasb etib, nafaqat g'ov, balki jangovar harakatlar olib boriladigan o'rin ham edi. Xorazm harbiy me'morchiligiga xos jihat oraliqda



otish yo'lagi bo'lgan qo'shdevorning mavjudligidadir. Mudofaa devorlarining balandligi 10-20 m., qalinligi 5-15 m. gacha yetgan. Tashqi devorning eni 1, 3-3, 5 m., ichki devor esa 1-3m. qalinlikda qurilgan. Qo'rg'on va qal'a devorlarida burj hamda borular yasalgan, burjlar o'z navbatida, kunguralar bilan tugallangan. Burj, ya'ni minora mudofaa inshootining o'ta ahamiyatili elementi sanalib, devor parametri bo'ylab, devordan balandroq, tashqariga turtib chiqqan tarzda, to'g'ri to'rtburchak, kvadrat va tuxumsimon shaklida 9-15m. oraliqda barpo etilgan. Tuzilishiga ko'ra ochiq va yopiq burjlar otish yo'laklarini bog'lagan, devor burchaklarini muhofaza qilgan. Burjlar orasidagi masofa yoy o'qining qancha uzoqlikka yetishi bilan bog'liq bo'lgan⁶⁹. Bunday mustahkam qal'alarni zabt etish o'ta qiyin kechgan. Xususan, 1219-yilda Alouddin Muhammad Xorazmshoh saltanatiga bostirib kirgan Chingizxon boshliq mo'g'ullar 1220-yilning 28-dekabr–26-yanvar oralig'ida Urganch (hozirgi Ko'hna Urganch)ni qamal qilishga kirishgan. Poytaxtni osonlik bilan qo'lga kiritishning iloji yo'qligini yaxshi payqagan O'ktoy va Chig'atoy shaharni muhosara qilish taraddudini boshlashgan. *Manjaniq, mataris* – toshbaqa shaklli mudofaa devori, g'altakli ko'chma minora – *dabboba* va devorteshar moslama – *jamolunot* kabi qamal qurollari tayyorlangan. Xorazmda manjaniqlar uchun toshning yo'qligi bois mo'g'ullar qalin tutzorlardan kesib keltirilgan tutlarni dumaloq bo'laklarga bo'lib, suvga bo'ktirishgan. Og'irlashgan va toshqotgan kundalar manjaniqlarga o'rnatilib, Urganch devorlaridan rahna ochish uchun otilgan. Ushbu qamal jarayoni yetti oydan ortiq muddatga cho'zilgan⁷⁰.

⁶⁹ Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан. Қадимги даврдан ҳозиргача. – Т.: “Sharq”, 2012. – Б. 35-36.

⁷⁰ *Шихаб ад-Дин Муҳаммад ан-Насави. Жизне описани султана Джалал ад-дина Манкбурны.* – Баку: “Элм”, 1973, – С. 349.

Qoraxoniylar qo'shinida “burj” ma'nosi asl turkcha *ukak* istilohi bilan anglashilgan. Dushmanning kelishidan xabar berishga mo'ljallangan soqchilar minorasi *qarag'u* // *qarg'o'y* deb nomlangan. *Qaramoq* fe'lidan yasalgan bunday soqchilar turadigan minora keyingi davrlarda ham ahamiyatini saqlab qolgan. Abdurazzoq Samarqandiy 1419-yilda Shohrux mirzoning Xitoyga yo'l olgan elchilari safiga Boysung'ur mirzo tomonidan qo'shilgan G'iyosuddin Naqqosh xotiralariga suyanib, Xonbaliq va boshqa shaharlarda mavjud *yom* (pochta)lar o'rtasida bir qancha *qarag'u* – soqchilar minorasi borligi, uning balandligi 60 gaz kelishi, unda doim 10 ta askar xizmat qilishi, bu soqchi minorasidan boshqa qarag'u ko'rinib turishi, agar biror voqea-hodisa yuz bersa, masalan, yot lashkarning qorasi ko'ringudek bo'lsa, qarag'udagi soqchilar o'sha onda o't yoqishi, tutun va olovni ko'rgan boshqa qarag'uda ham o't yoqilgani, shu tartibda o't yoqish davom ettirilgani jonli tasvirlangan⁷¹. Qal'a va qo'rg'onlarga katta-kichikligidan kelib chiqib, darvoza – *qopular* o'rnatilgan, kechqurun ko'tarilib, erta sahar tushiriladigan *ko'pruklar* qo'yilgan. Mudofaa inshooti ichidagi aholi yovdan omon qolish maqsadida yerosti yo'llari va yerto'lalar qazishgan. Biroq bunday ehtiyoj choralari har doim ham qo'l kelavermagan. 1222-yilning fevralida Chingizxon Nishopurni 200 ta manjaniqdan o'qqa tutib, uni uch kunda egallagach, asirlarga shaharni bellar yordamida tep-tekis qilishni buyurgan. Oqibatda, yerosti yo'llari va yerto'lalarga yashiringan aholining katta qismi tuproq ostida qolib, halok bo'lgan⁷².

Amir Temur, Temuriylar, Shayboniylar va uch xonliklar davriga doir obidalarda qal'a ichidagi harbiy inshootni anglatuvchi

⁷¹ *Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва матлаи баҳрайн. II жилд, биринчи қисм. 1405–1429 йиллар воқеалари.* – Т.: 2008.

⁷² *Шихаб ад-Дин Муҳаммад ан-Насави. Жизнеописани Султана Джалал ад-дина Манкбурны.* – Баку: “Элм”, 1973, – С. 99.

arabcha *ark* istilohining faol qo'llanganini kuzatish mumkin. Hukmdorning o'rda (qarorgoh)ida joylashgan ark tabiiy tepa yoki sun'iy barpo etilgan do'nglik ustiga qurilib, baland devor bilan o'ralgan, bitta, ba'zan ikkita darvozasi bo'lgan. Ark ichida hukmdordan tashqari, arkoni davlat, sarkardalarning uylari, devonxona, zarbxona, masjid, sardoba va h.k. binolar joylashgan. *Buxoro arki, Qo'qon xoni o'rdasi, Ko'hna ark* shular jumlasidanidir. Samarqandda Amir Temur qurdirgan *Arki Oliy* qoldiqlari XIX asrda Chorizm askarlari tomonidan buzib tashlangan⁷³. Qal'a, qo'rg'on tashqarisida qurilgan mudofaa istehkomi *chaqar* termini bilan yuritilgan. O'ziga xos tashqi qo'rg'on vazifasini o'tagan chaqar qal'a yoki qo'rg'onni egallashga qasd qilgan yovning oldidagi dastlabki g'ov hisoblangan. Tog'li hududlar yoxud chegarada bunyod etilgan mudofaa istehkomlari forscha-tojikcha *darband* istilohi yordamida anglashilgan. Darbandlar o'ta mustahkam qurilgan, ularning tevarak-atrofi tog'lar, jarliklar va daryolar bilan ihotalangan. Bunday mudofaa istehkomini zabt etish oson bo'lmagan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tekislikda qurilgan qal'a, hisor va qo'rg'onlar istisnosiz xandaqlar bilan ta'minlangan. Turkiy tillarga arab tilida juda erta kirib kelgan bu o'zlashma hozir ham ruscha "transheya" ma'nosini ifodalashda davom etmoqda. Mudofaa inshootlari, chunonchi, qal'a, qo'rg'on va shaharni suv to'ldirilgan xandaqlar bilan himoya qilish an'ana tusini olgan. O'ratepa, Xiva, Xozarasp, Jizzax, Qarshi, Termiz singari shaharlar mahkam devor, keng va chuqur xandaqlar bilan mustahkamlangani bois ularni ishg'ol qilishning o'zi bo'lmagan.

Ma'lumki, 1403-yilning 29-sentabrida Kur daryosidan o'tgan Amir Temur qachonlardir mo'g'ullar yakson etgan Baylaqon shahrini qayta tiklashga amr qilgan. Dastavval shaharning devor aylanasi 1296 m.dan iborat qal'asi barpo etilgan.

⁷³ Ўзбекистон миллий энциклопедияси I. – Тошкент: ЎМЭ, 2000. – Б. 410.



Qal'a devorining eni 5, 94 m., balandligi 8, 1m.dan iborat bo'lgan va atrofida eni 16.2 m., chuqurligi 10.8 metrlik xandaq qazilgan. Baylaqonga Aras daryosidan suv keltirish maqsadida uzunligi 6 yog'och (48 km.), eni 15 gaz (8.1m.)lik kanal qazilgan. Bu ishlar bir oyda yakunlangan⁷⁴.

Kezi kelganda, xandaq nafaqat shahar, qal'a, qo'rg'on, balki yurish chog'ida qo'shin to'xtaydigan manzil atrofida ham qazilganini ta'kidlash zarur. Lashkar ahli tomonidan qazilgan xandaq tegrasi odam bo'yi barobar qalqon-turalar bilan tomdek berkitilgan, ichiga sanchiqsimon tikanlar o'rnatilgan. Qo'shinning qishki qarorgohi – *qishloq* ham, albatta, xandaqlar bilan ehtiyot qilingan.

Istehkomga ega lashkargoh ba'zan mo'g'ul tilidan o'zlashgan *kuran* termini bilan ham atalgan. XIV asrda qo'llanishga kirgan *kuran* istilohi, shuningdek, to'da, guruhni ham bildirgan.

Hozirgi kundagi "transheya" ma'nosini anglatishda xandaq o'zlashmasidan tashqari forscha-tojikcha *chib // jib* va o'zbekcha *mo'rjar* terminlari ham ishlatilgan: *Arab Muhammad xon oldig'a borib, o'r qazdi chib qo'ydi*⁷⁵.

Qal'a va qo'rg'onlar atrofida qaziladigan okoplarni ifodalashda bu kezlarda o'zbekcha *o'r, o'rg'arim* hamda forscha-tojikcha *choh* istilohlari qo'l kelgan: *Qo'shning toshidin ot yugura olmastay to'rt o'r qazdurd*⁷⁶. Mudofaa janglari yoxud dam olish manzillari atrofida kovlangan *xandaq, chib, o'r, o'rg'arimlar*, turalar qatori maxsus qalqon-*chopar* bilan mustahkamlangan, xandaq va okoplar brustveri-*mo'ljarga* nayzasimon moslama *mo'ndu* yoki *tikan* (yoj) o'rnatilgan: *Yana xandaq olida mo'ndu*

⁷⁴ *Шарафуддин Али Йаздий*. Зафарнома. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: А.Аҳмедов, Ҳ.Бобобеков. – Т.: 1997. – Б. 278.

⁷⁵ *Абулғозий*. Шажарайи турк. – Т.: 1992. – Б. 274.

⁷⁶ *Абулғозий*. Шажарайи турк. – Т.: 1992. – Б. 96.



tikib, *Qalin nayshakardekki hindu tikib*⁷⁷. 1398-yil 17-dekabr kuni Dehli ostonasida Amir Temur va Sulton Mahmudxon o'rtasida kechgan jang boshlanishda hindlarning 120 ta jangovar fillariga qarshi Sohibqiron ajoyib tadbirni qo'llamoqchi bo'lgan. Ya'ni hindlar qo'shini ro'parasida yog'och va qamishdan to'siq yasash, uning ortidan xandaqlar qazib, ularning yoqasiga gov-meshlarni turg'izish, temirdan tayyorlangan tikanlarni piyodalalar, fillar keladigan yo'llarga sochishni rejalashtirib qo'ygan edi. Sharafuddin Ali Yazdiy qudrati haddan darajada ortiq Sohibqironning ushbu to'qnashuvda bunday taktik amaliyotga ehtiyoji bo'lmaganini ta'kidlaydi⁷⁸. Mustahkam mudofaa istehkomlari (qal'a, qo'rg'on, hisor) devorlari ostidan qaziladigan lahm arabcha *naqb* va *nag'am* istilohlari bilan yuritilgan.

1400-yilning avgust-sentabrida Amir Temur Saljuqiy Alouddin Kayqubod (1219–1237) tomonidan qurilgan Sivos qal'asi yaqinida to'xtagan. Yettita darvozali qal'a o'ta mustahkam bo'lib, tomlari yirik toshlardan ko'tarilgan, devorining balandligi 9.86 m., qalinligi taxminan besh yarim metrni tashkil qilgan. Shimol va janub tomonida juda chuqur xandaq borligi bois lahm qazishning imkoni yo'q edi. Faqat qal'aning g'arbida lahm solish imkoni mavjudligini ko'rgan Sohibqiron *nag'amchi* – lahm qazuvchilarga shu yerda ishga kirishishni buyurgan. O'n sakkiz kundan keyin lahmlar tayyor bo'lgach, ularning ichi o'tin bilan to'ldirilgan va o't qo'yilgan. Haroratning balandligidan tosh devorlar va burjlar birin-ketin yiqila boshlagan⁷⁹. Tuproq devor (val), xandaq, choh hamda mo'ljarlar tayyorlash vazifa-

⁷⁷ Алишер Навоий. Сади Искандарий. Хамса. Ўн беш томлик. Ўнинчи том. – Т.: 1965. – Б. 218.

⁷⁸ Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: А.Аҳмедов, Ҳ.Бобобеков. – Т.: 1997 – Б. 207.

⁷⁹ Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: “Ўзбекистон”, 1996. – Б. 285–286; Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома. – Т.: “Шарқ”, 1997. – Б. 233.



si forsha-tojikcha *beldor* hamda arabcha *muhassil* terminlari bilan nomlangan mutaxassislar zimmasiga yuklatilgan: *Ustod Aliquli va Mustafog'a zarbzhan va qazon qurmoqqa, mo'ljar qo'parib, yer yasamoq uchun qalin beldorlar va qahorg'a muhassillar tayin qilindi*⁸⁰. Mustahkam qal'a, hisor, qo'rg'onlarni taslim qilishda, aksariyat, ularning yonida barpo etiladigan sun'iy inshoot – *sarko'b*ning ahamiyati salmoqli bo'lgan. Istehkomni hujum yoki hamla bilan egallashning imkoni bo'lmagan vaziyatlarda uning to'rt tarafida *sarko'b* tiklashga kirishilgan. Askarlar atrof-dan daraxt, shox-shabba yig'ib, uning ustidan tuproq va toshlarni bostirib, baland *sarko'b* bunyod etishgan. Qad rostlagan *sarko'b*ga chiqqan jangchilar oyog'i ostida qal'a ahli namoyon bo'lgan. Uzun daraxtlardan yasalgan va qal'a devoriga yetadigan narvon-ko'priklar tayyorlangan. *Sarko'b*ga chiqqan askarlar turli qurol-yarog'lar, hatto, to'plardan mudofaachilarni o'qqa tutishgan. Mudofaa janglari paytida shahar, qal'a, qo'rg'on va hisor ko'chalarida bunyod etiladigan g'ov, to'siq (barrikada)lar *ko'chaband* deb nomlangan. Qal'a devori *boru // bora* hamda arabcha *fasil* istilohlari bilan yuritilgan.

Bu davrlarda qal'a va qo'rg'onda soqchilar uchun mo'ljallangan maxsus joy *manor*, soqchilik minorasi esa *burj* deb nomlanishda davom etavergan. Mudofaa inshootlari devorlarining yuqori qavatida dushman jangchilarini o'q-yoy, tufang, miltiq va h.k. qurollardan o'qqa tutish uchun taxminan har uch metrda ochilgan shinak *kungura* termini bilan ifodalangan. Qal'a yoki qo'rg'onlarga hujum uyushtirish amaliyotida *kamand-sirtmoq*, halqa, *shotu* va *nardbon* (narvon)lardan keng istifoda etilgan.

XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida rus tilidan o'zbek tiliga harbiy muhandislik ishiga oid *okop*, *transheya*, *blindaj*, *barer* terminlari aynan o'zlashganligini yozma manbalar tas-

⁸⁰ Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: 1960. – Б. 440.



diqlaydi: 1. Nemis *aqop*larinda ashula, xursandlik, muziqa ham (ura) sadolari eshitilur ekan (Turon, 1917, 1-son).

Birorta jangni mudofaa inshootlarisiz olib borish mumkin emas. Bunday inshootlarning vazifasi, ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi davrida alohida ahamiyatga molik bo'ldi. Mana shu asnoda o'zbek tilining urush davridagi harbiy leksikasida qadimdan qo'llanib kelgan ko'plab istilohlar ishlatila boshladi yoxud muhandislik inshootlarining yangi turlarini ifodalovchi terminlar yuzaga keldi:

Okop, voronka, zemlyanka, Brustver, yacheyka, transheya, blindaj, ambrazura, barer, simto'siq, tankka qarshi to'siq, bombapana, uzoq muddatli o't ochish nuqtasi (DOT-dolgovremennaya ognevaya tochka), yog'och va tuproqdan qilingan o't ochish nuqtasi (DZOT-derevyanno-zemlyanaya ognevaya tochka), o't ochish nuqtasi (OT-ognevaya tochka), o't ochish pozitsiyasi (OP-ognevaya pozitsiya), kuzatish punkti (NP-nablyudatelniy punkt), komanda punkti (KP-komandniy punkt), pulemyot nuqtasi (PT-pulemyotnaya tochka), minomyot nuqtasi (MT-minomyotnaya tochka), minalashtirilgan maydon, mudofaa inshooti shular jumlasidandir.

Ikkinchi jahon urushidan oldin *okop, transheya* terminlari ma'no jihatdan farq qilinmasdan tilimizda faol qo'llanishda bo'lgan *xandaq* istilohi bilan ifoda qilingan bo'lsa, urush yillaridan boshlab, har ikki termin ma'no nuqtai nazaridan bir-birlaridan farq qilina boshladi: *Biz ochiq transheyaga tushib oldik. Qisqa okoplarda ba'zan to'xtalib, bo'y cho'zib borar ekanmiz, dushmaning o'qlari boshimiz ustidan viz-viz hushtak chalib o'tardi.*

Transheya termini aslida fransuzcha (tgapshee) bo'lib, "mudofaa pozitsiyasining barcha o't ochish nuqtalarini birlashtiradigan, ensiz chuqur xandaq, snaryad va bombalardan himoya qiladigan xandaq" ma'nosida o'zbek tiliga Ikkinchi jahon urushidan oldin o'zlashtirilgan. Mazkur termin hozirgi kunda



ham o'zbek tilining harbiy terminologiyasidan mustahkam o'rin olgan. 1981-yilda nashr etilgan "Ruscha-o'zbekcha harbiy terminlar lug'ati" va "Russko-uzbekskiy slovar"da *zovur* terminini *transheya* istilohining muqobili tarzida qo'llash holatini to'g'ri deyish noto'g'ri.

Transheya, xandaq terminlari sinonimiyasi haqida shunday deyish mumkin. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *xandaq* terminining "biror narsani asrash, saqlash va shu kabi maqsadda kovlangan chuqurlik, o'ra" asl ma'nosi negadir, ikkinchi planga chiqarilgan. Bu lug'at maqolaning «dushman o'ta olmasligi uchun qazilgan katta chuqurlik» ma'nosi esa birinchi planga chiqarilgan. Aslida, *xandaq* termini arabcha bo'lib, "o'ra" ma'nosini ifodalaydi. Uning harbiy terminologiyada "okop" ma'nosida qo'llanishi maqsadga muvofiq emas.

Ikkinchi jahon urushi yillarida rus tilidan o'zlashgan *barer* termini o'zbek tilida *g'ov, to'siq* muqobillari bilan ifodalangan, hozirgi harbiy terminologiyadan faqat *to'siq* mustahkam joy olgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyin davr taqozosi bilan o'zbek tili harbiy terminologiyasi tizimida ko'plab yangi terminlar paydo bo'ldi. Masalan, urush davrida, aniqrog'i, uning so'ngi yillarda *atom bombasi* termini ishlatilgan bo'lsa, keyingi yillarda *atom artilleriyasi, atom urushi, atom suv osti kemasi, atomli raketa, atom energiyali avianos, atom snaryadi, vodorod bomba, vodorod quroli, bakteriologik qurol, qanotli raketa* singari terminlar muomalada o'zining mustahkam o'rniga ega bo'ldi. Xullas, katta miqdordagi ikki va undan ortiq tarkibli termin birikmalarining komponentlarini o'zbekcha so'zlar bilan berishga harakat qilingan.



Savol va topshiriqlar

1. O'zbek harbiy terminologiyasida ruscha-baynalmilal terminlar salmog'ining kattaligini nima bilan izohlaysiz?
2. Harbiy muhandislik ishiga oid terminlar haqida ma'lumot bering.
3. Harbiy doktrina haqida mulohaza yuriting.
4. Ko'k turk xoqonligining qarorgohi qanday himoyalangan?
5. Qoraxoniylar va Xorazmshohlar davrida "istehkom, mudofaa inshooti" ma'nosi qaysi istiloh bilan ifodalangan?
6. Mo'g'ullar Xorazmda manjaniqlar uchun tosh o'rniga nima foydalangan?
7. Dushmanning kelishidan xabar berish uchun turkiylar qanday usuldan foydalangan?
8. Temuriylar, Shayboniylar, uch xonliklar davrida mudofaa inshootlarining qanday turlari mavjud edi?
9. Xonliklar davrida tog'li hududlarda qanday istehkomlar barpo etilgan?
10. Qal'a va qo'rg'on atrofida qurilgan mudofaa devorining balandligi, eni va kengligi haqida fikr yuriting.
11. Quyida "Boburnoma"dan keltirilgan matn parchasida mudofaa istehkomlarini ifodalagan istilohlarni tavsiflang:
Janubiy tarafidagi qasabalar bir Andijondurkim, Movarounnahrda Samarqand va Kesh qo'rg'onidin so'ngra mundin ulug'roq qo'rg'on yo'qtur. Uch darvozasi bor. Arki janub tarafida voqi' bo'lubtur. Qal'aning girdo-girdi xandaqning tosh yoni sangrezalik shohroh tushubtur. Qal'aning girdo-girdi tamom mahal-lottur. Bu mahalla bila qal'ag'a fasila ushbu xandaq yoqasidagi



shohrohtur. Sayhun suyining shimoli tarafidagi qasabalar: bir Axsidur. Umarshayx mirzo muni poytaxt qilib edi. Sayhun dar-yosi qo'rg'onning ostidin oqar. Qo'rg'oni balad jar ustida voqi' bo'lubtur. Xandaqning o'rnida amiq jarlar. Umarshayx...bir-ikki marta tashqariroqdin yana jarlar soldi. Farg'onada muncha berk qo'rg'on yo'qtur (62).



Asosiy tushunchalar so'zligi

Blindaj – urush maydonida yerni qazib, yo'g'on xodalar ko'mib, beton va tuproq bilan mustahkamlangan harbiy istehkom.

Boru // bora – qal'a, qo'rg'on, hisor devori; *fasila* deb ham yuritilgan.

Burj – qal'a, qo'rg'on va hisorlardagi soqchilik minorasi, *ukak* deb ham nomlangan.

Darband – tog'li hudud yoxud chegarada bunyod etilgan mudofaa istehkomi.

Kungura – o'q-yoy, tufang, miltiq va h.k. qurollardan o'q tush uchun taxminan har uch metrda ochilgan shinak.

Ko'chaband – mudofaa janglari paytida shahar, qal'a, qo'rg'on va hisor ko'chalarida bunyod etiladigan g'ov, to'siq (barrikada).

Mo'ljar – xandaq va okop Brustveri.

Naqb – qal'a, qo'rg'on devorlari ostidan qaziladigan lahm.

Okop – shaxsiy tarkib va jangovar texnika uchun o't ochish marrasi va oddiy panoh sifatida xizmat qiluvchi ochiq turdagi mudofaa istehkomi.

Sarko'b – mustahkam qal'a, hisor, qo'rg'onlarni taslim qilishda ularning yonida barpo etiladigan sun'iy inshoot, tuproq uyumi.

Tikan – xandaq va okoplar Brustveri – mo'ljarga o'rnatiladigan nayzasimon moslama (yoy).

Transheya – mudofaa o'rnining barcha o't ochish nuqtalarini birlashtiradigan, o'q, snaryad va bombalardan himoya qiladigan ensiz, chuqur xandaq.



Xandaq – dushmanning ma'lum joydan o'ta olishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida maxsus qazilgan va suv bilan to'ldirilgan keng chuqurlik.

Chaqar – qal'a, qo'rg'on, shahar tashqarisida qurilgan mudofaa istehkomi.

Chopar – xandaq Brustveri-mo'ljali oldida o'rnatiladigan yirik qalqon.

O'r – jang oldidan qaziladigan okop.

O'rg'arim – qal'a va qo'rg'on atrofida qaziladigan okoplar, transheya.

Qal'a – tevarak-atrofi baland, mustahkam devor va imoratlarga ega shaharning qismi, qo'rg'on yoki butun bir shahar.

Qarag'u – dushmanning kelishidan xabar berishga mo'ljalangan soqchilar minorasi.

Qishloq – qo'shinning qish mavsumini o'tkazishi uchun maxsus tayyorlangan qo'nimgoh.

Hisor – tog'li hududlarda barpo etilgan mudofaa istehkomi.



Test:

1. Qaysi qatorda faqat harbiy terminlar berilgan?
A) trasheya, pistirma, dozor
B) falak, qism, samolyot
C) urush, tinchlik, asir
D) okop, blindaj, zovur
2. Harbiy injenerlik ishiga oid terminlar berilgan qatorni toping.
A) transheya, xandaq
B) zovur, blindaj
C) yerto'la, okop
D) ambrazura, to'siq
3. "Istehkom, mudofaa inshooti" ma'nosi qanday arabcha o'zlashmalar bilan ifodalangan?
A) qal'a, hisor
B) qo'rg'on, qal'a
C) hisor, qo'rg'on
D) qo'rg'on, sarko'b
4. G'altakli ko'chma minora qanday nomlangan?
A) dabboda
B) manjaniq
C) tiri charx
D) jamolumot



5. Dushmanning kelishidan xabar berish uchun mo'ljallangan soqchilar minorasi qanday nomlangan?
A) qarag'u // qarg'o'y
B) ukak
C) boru
D) mataris
6. 1222-yilning fevralida Chingizxon Nishopurni nechta manjaniqdan o'qqa tutgan?
A) 200
B) 250
C) 120
D) 100
7. Tog'li hudud yoki chegarada bunyod etilgan mudofaa istehkomlari qanday atalgan?
A) darband
B) qo'rg'on
C) qarshi
D) ark
8. Qo'shinning qishki qarorgohi qaysi isteloh bilan anglashilgan?
A) qishloq
B) yozloq
C) yoyloq
D) qumloq
9. Qarorgoh atrofi qanday maxsus moslama bilan ehtiyot qilingan?
A) chopar
B) mo'ndu



- C) tikan
D) sanchiq

10. Tarixiy manbalarda qayd etilgan *naqbchi* va *nag'amchi* istelohlari qanday ma'noni ifodalagan?

- A) lahmchi
B) ko'prikchi
C) yo'lchi
D) beldor

11. Harbiy muhandislikka oid terminlar berilgan qatorni to'ping.

- A) transheya, xandaq
B) zovur, blindaj
C) erto'la, okop
D) ambrazura, to'siq



Adabiyot:

1. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II- жилд, биринчи қисм. 1405-1429 йиллар воқеалари. – Т.: 2008.
2. Абулғозий. Шажарайи турк. – Т.: 1992.
3. Алишер Навоий. Садди Искандарий. Хамса. Ўн беш томлик. Ўнинчи том. – Т.: 1965.
4. Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н. Проблемы лексики старо-узбекского языка. – Т.: “Фан”, 1990.
5. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. O'quv qo'llanma. – Т.: “Nodirabegim”, 2020.
6. Ёдгоров Ҳ. Ўзбек тили ҳарбий терминологиясининг синхроник тадқиқи. Филол. фан.номз.дисс. – Т.: 1996.
7. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: 1960.
8. Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: “Ўзбекистон”, 1996.
9. Расулов И. Улуғ Ватан уруши йилларида ўзбек тили лексикаси. – Т.: 1977.
10. Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимуру (1403–1406). Перевод со староиспанского. – М.: “Наука”, 1990.
11. Худяков Ю.С. Древние и средневековые фортификационные сооружения в Южной Сибири и Центральной Азии. Военное дело и средневековая археология Центральной Азии. – Кемерова, 1995.
12. Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: А.Аҳмедов, Ҳ.Бобобеков. – Т.: 1997.



13. Шихаб ад-Дин Муҳаммад ан-Насави. Жизнеописани Султана Джалал ад-дина Манкбурны. – Баку: “Элм”, 1973.

14. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан. Қадимги даврдан ҳозиргача. – Т.: “Sharq”, 2012.

15. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. I. – Т.: ЎзМЭ, 2000.

16. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т.I-II. – М.: “Русский язык”. 1981.

17. Harbiy atamalarning yangi izohli lug'ati. – Т.: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020.



Mustahkam qal'ani qamal qilish sahnasi.



Tog'li hududlarda qurilgan mudofaa inshooti-hisor.



Asosiy tushunchalar izohi

Ajzchi – yurish chog'ida qo'shinni notanish va qiyin yerlardan olib o'tuvchi yo'lchi, yo'l ko'rsatuvchi, qulavuz.

Amon moli (moli amoniy) – zabt etilgan mamlakatlar aholisidan ularga omonlik berilgani evaziga olinadigan soliq, kontributsiya.

Amud – temirdan yasalgan gurzi. Xiva xonligida XIX asrning oxiriga qadar qurollanishda bo'lgan.

Arroda – qamal chog'ida mudofaa inshooti devorini buzishda qo'llanilgan, g'ildirak ustiga o'rnatilgan, katta hajmli toshlarni irg'itishga mo'ljallangan maxsus moslama.

Asas – hukmdor saroyida xizmat qiluvchi tungi soqchi, qorovul, posbon.

Baxshi – harbiy harakatlar boshlanishi yoki yakunlanishida askarlar sonini aniqlovchi mirza.

Bahodurboshi // Boturboshi – 1. Amir Temur qo'shinida bahodurlar boshlig'i; 2. Qo'qon xonligida otliq askarlar boshlig'i.

Bechkam – Qoraxoniylar davrida ipakli mato yoki yovvoyi sigirning quyrug'idan tayyorlangan belgi, nishon. Botir jangchilar tomonidan urush kunlari jangovarlik belgisi sifatida taqilgan. Rossiyadagi Georgiy lenta(tasma)siga mos tushadi.

Bulg'avul – ayg'oqchilik bilan shug'ullanuvchi otliq bo'linma, ayg'oqchi guruh.

Buna // Bunah safar asbob-anjomi, askarlarning ko'rupa-to'shagi, olib yuradigan yuki.

Buqavul – 1. pistirmada joylashgan askarlar guruhi; 2. chegaradan o'tuvchilardan boj undiruvchi, chegarachi.

Bo'y – hukmdorning qarindosh-urug'i a'zolaridan shakllantirilgan xos gvardiya, soqchi guruh.

Bo'ljor – qo'shinning yurishga chiqishidan avval kelishilgan va'da, ahdga binoan yig'ilish o'rni.

Chapar – 1. dushmandan saqlanish maqsadida shox-shabalardan tiklangan to'siq, g'ov; 2. xandaq oldiga o'rnatilgan katta qalqon.

Chapovul – 1. g'anim yurtini g'orat qilish, buzish; 2. dushman hududini buzish, g'orat qilishga mo'ljallangan tezkor otliq guruh; 3. Amir Temur qo'shini qanoti(barang'ar, juvang'ar)ning o'ng bo'lagi.

Charga – 1. ov chog'ida jonvorlarni quvlab, ma'lum yerga to'plash uchun askarlar tomonidan tuzilgan saf, doira; 2. qo'shin safi, qo'shin doirasi.

Chopqun – otliq askarlar tomonidan amalga oshiriladigan shiddatli hujum, g'orat, tor-mor.

Chuhra – amaldorning zodagonlar farzandlaridan shakllantirilgan xos soqchisi.

Govsipar – ho'kiz terisidan tikilgan katta hajmdagi qalqon.

Gulo'la // go'la – to'p va zambarakdan otiladigan o'q, snaryad.

Go'shagir – yoy o'qini otishda barmoqqa taqiladigan maxsus moslama.

Dashna – xanjarning kalta uchli turi.

Dah // Daha – o'nta jangchidan iborat bo'lim, o'nlik. Amir Temur va keyingi sulolalar hukmronligi davrida cherig tuman, hazora, sada va dahadan iborat bo'lgan.

Dahboshi // Dahaboshi – Buxoro amirligi va Qo'qon xonligida o'nta piyoda jangchidan iborat bo'lim boshlig'i.

Durbosh – nayzaning ikki shoxli turi.

Egirmishi – jang chog'ida dushman atrofida doira yasab aylanish.

Eshik og'asi – 1. Shayboniylar davrida xonni qo'riqlash maqsadida o'zbek urug'larining o'ng qanotidan safarbar qilingan ishonchli tansoqchi; 2. eshik sarkori, darvoza soqchilari boshlig'i.

Favj – lashkar bo'linmasi, guruh, otryad.

Fasil – qal'a, qo'rg'on va boshqa mudofaa inshootlari devorlari oldidan qurilgan yana bir tashqari devor, oraliq joy.

Fo'ta – sovut ostidan belga o'raladigan belbog'.

Govsipar – ho'kiz terisidan tikilgan katta hajmdagi qalqon.

Gulo'la // go'la – to'p va zambarakdan otiladigan o'q, snaryad.

Go'shagir – yoy o'qini otishda barmoqqa taqiladigan maxsus moslama.

Harba – nayzaning qisqa turi.

Hashar – tobe yurt aholisidan majburan yig'ilgan lashkar.

Ichki – saroyda xizmat o'tovchi bek. Hukmdorning ishonchli xos navkari.

Jaldu // Juldu – bahodir jangchilarga jang-u jadallarda ko'rsatgan qahramonligi, mardligi uchun beriladigan in'om, mukofot, sovg'a.

Janoh – qo'shinning o'ng va so'l qanoti.

Kapanak – otliq va piyoda askarlarning qishki yopinchi, yomg'irpo'sh.

Kechamishi – jangovar harakatlarda o'zini ko'rsatib, boshqalarga o'rnak bo'lish.

Ko'z – dushmanning otliq askarlari hamlasiga qarshi qazilgan chuqur, okop.

Mavojib – harbiylarga belgilangan maosh, xizmat haqi.

Mashk – teridan tayyorlangan, suv, yog' va boshqa suyuq moddalar saqlanadigan mesh, xalta. Kechigsiz chuqur va keng daryolardan o'tish, ko'prik (panton) qurishda ham qo'llanilgan.



Mil – metallardan tayyorlangan juvoldizga o'xshash asbob; jazolash usullaridan biri sifatida ko'zni ko'r qilishda qo'llangan. O'tda qattiq qizdirilib, so'ng ko'zga tortilgan.

Mig'far – lashkar boshilarning jang vaqtida kiyadigan dubulg'asi.

Muqaddima – qo'shinning oldida harakat qiluvchi qism, avang'or. Mo'g'ulcha *mang'lay* hamda *hiravul // iravul* o'zlashmalarining ma'nodoshi.

Muhassil – askariy qismlarning belgilangan vazifani bajarishga o'tlanishi va uning qay darajada ado etilganini nazorat qiluvchi mansabdor; tobe yoxud mag'lub yurtlardan xiroj va soliq undiruvchi, omil.

Muhosara – g'anim qo'shini yoki mudofaa istehkomlarini qurshovga olish; qamal, qurshov.

Nikomish – biror joyni ayg'oqchilik maqsadida ko'zdan kechirish; g'orat, chopqin qilish.

Nikovul – 1. jang maydonini tashlab qochgan dushmanni ta'qib qiluvchi otliq askarlar; 2. biror joyni ayg'oqchilik maqsadida ko'zdan kechiruvchi otliq guruh.

Olomon – talon-toroj, g'orat, buzg'unchilik bilan shug'ullanuvchi otliqlar to'dasi.

Oriz – 1. jangchilar va sarkardalarga maosh ulashish ishlari nazorat qiluvchi shaxs; 2. xazinachi.

Otashboz – turli o'tsochar qurollardan o'q otuvchi mergan, mohir o'qchi.

Oy bitigi – Qoraxoniylar cherigida askarning nomi va oziq-ovqati qayd etiladigan daftar (reestr).

Parvonachi – hukmdor farmonlari, buyruqlarini mahalliy hokimlarga yetkazuvchi amaldor.

Partol – askarlarning o'g'ruq(obox)da olib yuriladigan ko'rpa-to'shagi.

Qaytul – qo'shinning qarorgohi, manzilgoh, lashkargoh.

Qamurg'a – ovda qatnashayotgan cherig tomonidan hayvonlarni belgilangan maydonga quvib kiritish uchun tuzilgan tobora torayib boruvchi doira.

Qacharchi // G'ajarchi – harbiy yurish chog'ida qo'shinga yo'l ko'rsatuvchi, yo'l boshlovchi shaxs, qulavuz.

Qiblanoma – yerning to'rt tarafini aniqlashda ishlatiladigan maxsus moslama, kompas.

Qorura – ichiga yonuvchan modda, neft solingan shisha idish (Molotov kokteyli).

Qumbura – zambarak, to'p o'qi (snaryad). Granata va bombani ham anglatgan.

Qushchi – hukmdorning ov qushlarini boquvchi; ovni uyushtiruvchi va uni bo'zuvchi amaldor.

Rikobdor – hukmdor saroyida xizmat qiluvchi zobit; hukmdor otga minayotgan kezda uzangini tutib turuvchi jilovdor.

Sada umarosi – yuzta askardan tashkil topgan bo'linma, yuzlik qo'mondonlari.

Sarboz – Buxoro amirligi va Qo'qon xonligida biror yumush bilan mashg'ul bo'lmagan yoshlardan yollanma asosida shakllantirilgan muntazam qo'shin askari.

Sarhad begi – saltanat chegaralarini qo'riqlovchi harbiy qism qo'mondoni.

Singir – tog'li hududlarda bunyod etilgan mustahkam mudofaa istehkomi, qal'a.

Solg'ut – harbiy harakatlar boshlanishi munosabati bilan aholidan olinadigan soliq.

Sultoniy jang – qo'mondon tomonidan asosiy kuchlar jangogha tashlanadigan hal qiluvchi jang.

Sursat – qo'shin ta'minoti uchun aholi tomonidan tayyorlanadigan ovqat, askar yemishi. Yovdan tortib olingan mol, o'lja.

Shaqovul – Amir Temur qo'shini qanoti(barang'ar, juvang'ar)ning so'l bo'lagi.



Shogirpesha – viloyat hokimi yoki yirik amaldorning turli xizmatlarini bajaruvchi shaxslar. Ayni chog'da harbiy qism yumushlari bilan ham band bo'lishgan. Kezi kelganda bunday kishilar harbiy harakatlarga jalb etilgan. Sidqidildan qilingan xizmat evaziga amaldorlar yoxud sipohiylar safiga o'tkazilgan.

Tag'or – qo'shin uchun safardan oldin tayyorlanadigan oziq-ovqat; aholidan yig'iladigan g'alla.

Tapovul – g'anim yurtidan o'lja keltiruvchi otliqlar guruhi.

Tarxon – saltanat oldidagi buyuk xizmatlari evaziga yer-mulk soliqlaridan ozod qilingan, shuningdek, boshqa bir qancha imtiyozlarga ega, chunonchi, hukmdor huzuriga erkin kira oladigan, to'qqiz martagacha gunohi kechiriladigan, o'ljasi taqsimlanmaydigan, ba'zan avlodlari ham soliqdan ozod qilinadigan bek, amir.

Tatovul – otliq askarlar tomonidan amalga oshiriladigan bosqin, talon-toroj, g'orat.

Tavochi – O'rta asrlarda qo'shin noziri; cherigni to'plash, sonini olish, jang vaqtida dushmanning to'xtash o'rnini aniqlash, oliy bosh qo'mondan buyruqlarini harbiy qismlarga yetkazish, lashkarni ko'rikka tayyorlash, xavf-xatar tug'ilgan kezda aholini qal'a, qo'rg'onga ko'chirish, mudofaa istehkomlari qurilishi, jazo choralarining amalga oshirilishini nazorat qilish singari vazifalarni bajaruvchi shaxs, adyutant.

Tiri charx – aylangan holda o'zi o'q otuvchi harbiy qurilma; metallardan yasalgan snaryad shakldagi o'q; ichiga solingan doru – porox yoqilgach, g'anim tomon otilgan; ba'zan ichi neft bilan to'ldirilib, o't qo'yilib, irg'itilgan.

Tug'chi – yurish yoxud jang chog'ida qo'shinning bayrog'ini ko'tarib yuruvchi, bayroqdor, alamdor.

Tuman aqosi – o'n ming askardan iborat qism, ya'ni tuman qo'mondoni.



Tunbak – ikki tomonidan barmoqlar bilan urib chalinadigan do'mbira.

Tunqotar – hukmdor qarorgohini qo'riqlovchi tungi soqchilar, tungi qorovul.

Turg'aq // Turqaq – hukmdorning saroyi, qarorgohini qo'riqlovchi soqchilar.

To'qmor– uchiga temir qalpoqcha kiygizilgan yoy o'qi.

Uchan – 1. kema; 2. Ruslarning par bilan harakatga keladigan kemasi, paroxod, *o't uchan* deb ham atalgan.

Ukalko – Temuriylar davrida jangchilarga pul in'om qilish; mukofot, sovg'a berish.

Ulun – yoyning patsiz o'qi.

Xabargir – Temuriylar qo'shinida yovning yurtiga jo'natiladigan ayg'oqchi, razvedkachi.

Xirgoh – qo'shinning to'xtash uchun mo'ljallangan yurtida o'rnatiladigan katta chodir.

Yasov – qo'shinning jangovar tartibi, saf, yasol.

Yasovulboshi – 1. yasovullar boshlig'i; 2. Xiva xonligida qo'shinda qurol-yarog' va tartib-intizomni nazorat qiluvchi amaldor.

Yurtchi – qo'shinning to'xtash o'rnini belgilovchi; askariy qismlarni yurtda joylashtiruvchi va oziq-ovqat bilan ta'minlovchi harbiy amaldor.

Yovloq – g'anim joylashgan qarorgoh, dushman lageri.

Yorg'u – hukm chiqarish, taftish, ajrim qilish, sud.

Yorg'uchi – yorg'u, hukmni amalga oshiruvchi; taftish ishlarini amalga tatbiq etuvchi, hukmni ijro etuvchi; sudya.

Zarrodxona – qurol-yarog', aslaha-anjom saqlanadigan ombor.

Zirih – jang chog'ida inson tanasini har xil qurol-yarog'lar zahmidan himoya qilish uchun simdan to'qilgan sovut, urush kiyimi.

Zobit – qo'shinning turli qismlariga qo'mondonlik qiluvchi harbiylarning umumiy nomi, ofitser.



Qisqa o'zbekcha-ruscha lug'at

Avang'or – авангард

Ayg'oq – разведка

Ayg'oqchi – разведчик

Askargoh – лагерь

Askarxona – казарма

Bandargoh – порт

Belgi – петлицца

Boshadmiral – главнокомандующий военно-морскими силами

Bosh yazak – головной дозор

Burchako'lchagich – угломер

Bo'lakboshi(Bo'lukboshi) – командир полка

Bo'ljor – место сбора, сборный пункт

Bo'lma –каюта

Chavush – сержант

Choh – ров

Dasta – батальон

Dastaboshi – командир батальона, комбат

Doru // dori – порох

Ellikboshi– командир взвода

Gazotar – газомёт

Granataotar – гранатамёт

Granataotuvchi – гранатамётчик

G'ildirak – шасси

G'oya (ta'limot) – доктрина


Harbiy mashq – маневр



Harbiy mahkama – военный трибунал
Havo shari – дирижабль
Itqitkichi – катапульта
Josuslik xizmati – агентурно-разведывательная служба
Josuslikka qarshi xizmat – контрразведка
Kamar – портупея
Kapanak – плащ-накидка
Kechik – брод, переправа
Kuzatuvnoma – журнал наблюдения
Kungura – бойница
Ko'lam – масштаб
Ko'rik – парад
Maydon – участок
Minaotar – миномёт
Minaotuvchi – миномётчик
Mingboshi – бригадный командир
Muhandislik istehkomi(inshooti) – фортификация
Mo'ljallagich – прицел
Nizom – устав
Nuqta – пункт
Otish yeri (maydoni) – полигон
Og'iz – дула
Og'izlik – надульник (пулемёта)
O'nboshi – командир отделения
O'r – окоп
O'ron – пароль
O'to'chirgich – огнетушитель
O'qdon – патронташ, магазин
O'qsochar – пулемёт
O'q tasmasi – патронная лента
O'g'ruq (partol) – обоз
Pilta – запал




Qiblanoma – компас
Qorqoq – люк
Qorura – Коктейл Молотова
Qo'shimboshi – командующий армией, командарм
Qo'sho'r – парный окоп
Qumbura – бомба
Qumburaotar // Qumburaig'itar – бомбамёт
Qumburapana – бомбаубежище
Soat – хронометр
Soqa(ort) – арьергард
Soqchi – патруль
Soqchi kema – патрульное судно, патрульный корабль
Shatakchi kema – буксир
Tartib – режим
Tartiblashtirish – эшелонирование
Tezkor – оператив
Tikan – “ёж”
Tikuchar // Tikkauchur – вертолёт
To'pxona – артиллерийский парк
To'lg'ama – обходящий отряд
To'r – трал
To'rva – ранец
Tumanboshi – командующий дивизией, комдив
Tungi mo'ljal – ночной прицель
Yazak – дозор
Yazak kema – дозорное судно
Yuzboshi – командир роты
Zaxira – резерв
Zaxira qo'shinlar – запасные войска
Zenit mo'ljali – зенитный прицель
Zirhli kema – броненос
Zirhteshar o'q – бронебойный патрон




MILODIY VI-VII-ASRLAR SOSONIYLAR, SO'G'D VA ILK TURK XOQONLIGI



XI-ASR BOSHLARI: G'AZNAVIYLAR, QORAXONIYLAR VA SALJUQIYLAR




XII-ASR IKKINCHI YARMI: QORAXONIYLAR, XORAZM-SHOHLAR, QORAXITOYLAR VA UYG'URLAR



XVIII-ASR IKKINCHI YARMI: BUXORO, XORAZM, QO'QON, QOZOQLAR VA JUNG'ORLAR







AMIR TEMUR SALTANATI



BOBURUYLAR DAVLATI



QO'QON XONLIGI



XIX-ASR O'RTALARIDA BUXORO AMIRLIGI



XIX-ARS O'RTALARIDA XIVA XONLIGI



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz. I tom. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. II tom. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, ha-yoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3 tom. – T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. Халқ сўзи. 2019 йил, 22 октябрь.
7. Абдульманова А.К. Военная иноязычная лексика исторической повести “Казанский летописец”. Уч. зап. Бийского педагогического института. Вып. 2. 1958.
8. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II жилд. Биринчи қисм, 1405-1429 йиллар воқеалари. – Т.: “O‘zbekiston”, 2008.
9. Абулғозий. Шажарайи турк. – Т.: 1992.
10. Алишер Навоий. Садди Искандарий. Хамса. Ўн беш томлик. Ўнинчи том. – Т.: 1965.



11. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. Т.1.Ч.1. – М.: 1963.
12. Бартольд В.В. Улугбек и его время. Соч. Т.II. Ч. 2. – М.: 1964.
13. Березин Н.И. Ханские ярлыки. Тарханные ярлыки Тохтамышша, Темир-Кутлука и Саадет Гирея. – Казань, 1851.
14. Буниятов З.М. Государство Хорезмшахов-Ануштегиннов (1097-1231). – М.: “Наука”, 1986.
15. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. I. М. – Л.: 1950.
16. Владимирцов Б.Я. Общественный строй монголов. Монгольский кочевой феодализм. – Л.: 1934.
17. Гийасаддин Али. Дневник похода Тимура в Индию. – М.: 1958.
18. Гордлевский В.А. Государство Сельджукидов Малой Азии. Изб. соч. Т.1. – М.: 1960.
19. Греков Б.Д., Якубовский А.Ю. Золотая Орда и ее падение. – М. – Л.: 1950.
20. Гумилев Л.Н. Статуэтки воинов из Туюк – Мазара. Музей антропологии и этнографии. – М. – Л.: 1949.
21. Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н. Проблемы лексики староузбекского языка. – Т.: “Фан”, 1990.
22. Дадабоев Ҳ. Тарихий ҳарбий терминлар луғати. – Т.: “Университет”, 2007.
23. Дадабоев Ҳ. Аждодларимизнинг ҳарбий маҳорати. – Т.: “Akademnashr”, 2016.
24. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. – Т.: “Nodirabegim”, 2020.
25. Дадабоев Ҳ. Соҳибқирон саркардалари. – Т.: “Nodirabegim”, 2020.
26. Doerfer G. Turkische und mongolische Elemente im Neupersischen. Bd.I-IV. – Wiesbaden, 1963–1975.



27. Ёдгоров Ҳ. Ўзбек тили ҳарбий терминологиясининг синхроник тадқиқи. Филол. фан.номз.дисс. – Т.: 1996.
28. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: 1960.
29. Исмоилов М., Шаропов А. Тарих атамалари луғати. – Т.: “Akademnashr”, 2013.
30. История ат -Табари. – Т.: “Фан”, 1987.
31. Материалы по истории туркмен и Турмении. Т. 1. VII-XV вв. – М. – Л.: 1939.
32. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I-III. – Т.: 1960–1963.
33. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М.: “Наука”, 1975.
34. Менгес К.Г. Восточные элементы в “Слове о полку Игореве”. – Л.: 1979.
35. Мир Мухаммад Амин-и Бухари. Убайдулла-наме. Перевод с таджикского с примечаниями член-корр. АН Уз ССР проф. А.А.Семенова. – Т.: АН Уз ССР, 1957.
36. Мирза Бади-Диван. Маджма ал-аркам («Предписания фиска») (Приемы документации в Бухаре XVIII в.). Факсимиле рукописи. Введение, перевод, примечания и приложения А.Б.Вильдановой. – М.: “Наука”, 1981.
37. Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. – Т.: “Чўлпон”, 1994.
38. Муқимов З. Шайбонийлар давлати ва ҳуқуқи. – Т.: Адолат, 2007. 36. Муҳаммад Солиҳ, Шайбонийнома. Нашрга тайёрловчи Н. Даврон. – Т.: “Фан”, 1961.
39. Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: “Ўзбекистон”, 1996.
40. Огаҳий. Асарлар. V жилд. – Т.: “Ғ. Ғулом”, 1978.
41. Огаҳий. Асарлар. VI жилд. – Т.: “Ғ. Ғулом”, 1980.
42. Огаҳий. Шоҳиду-л-иқбол (Иқбол шаҳодати). Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Н.Шодмонов). – Т.: “Муҳаррир”, 2009.



43. Распопова В.И. Согдийский город и кочевая степь в VII–VIII вв. КСИА. Вып. 122. – М.: 1970.
44. Расулов И. Улуғ Ватан уруши йилларида ўзбек тили лексикаси. – Т.: 1977.
45. Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимуру (1403-1406). Перевод со староспанского. – М.: “Наука”, 1990.
46. Самаров Р.С. Ҳарбий таълим ва фаннинг интеграциялашуви: мудофаани таъминлаш амалиёти контекстида // Ҳарбий таълим ва фанда инновациялар, 2019. №3 (5). 3-9 бетлар.
47. Самаров Р.С. Ҳарбий-сиёсий жараёнларни тадқиқ этиш методологияси: концептуал ёндашув O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi xabarlarini № 1(33), Noyabr, 2020 yil. – Т.: “O'R QK Akademiyasi nashri”, 2020. – 35–40 betlar.
48. Семенов А.А. Бухарский трактат о чинах и званиях и обязанностях носителей их в средневековой Бухаре // Советское востоковедение. 1948, №5.
49. Таварихи гузида. Нусрат-наме. Исследование, критический текст, аннотация, оглавление и таблица сводных оглавлений к.ф.н. А. Акрамова. – Т.: 1967.
50. Темур тузуклари. Тахрир ҳайъати: Б.Абдуҳалимов ва бошқалар. Форсча матндан А.Соғуний ва Ҳ.Кароматов таржимаси. – Т.: “O'zbekiston”, 2011.
51. Тизенгаузен В.Г. Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды. Т.2. Извлеч. из персидских соч. – М. – Л.: 1941.
52. Троицкая А.Л. Военное дело в Бухаре в первой половине XIX в. Сборник статей истории и филологии народов Средней Азии. Посвященная 80-летию со дня рождения А.А.Семенова. – Сталинабад, 1953.



53. Троицкая А.Л. Каталог архива Кокандских ханов XIX века. – М.: 1968.
54. Турецко-русский словарь. 48000 слов. – М.: “Русский язык”. 1977.
55. Уложение Тимура. – Т.: “Фан”, 1968.
56. Ходжа Самандар Термези. Дастур ал-мулук (Назидание государям). Факсимиле старейшей рукописи. Перевод с персидского, предисловие, примечания и указатели М.А. Салахетдиновой. – М.: “Наука”, 1971.
57. Худяков Ю.С. Древние и средневековые фортификационные сооружения в Южной Сибири и Центральной Азии. Военное дело и средневековая археология Центральной Азии. – Кемерово, 1995.
58. Чориев З. Тарих атамаларининг қисқача изоҳли луғати. – Т.: “Шарқ”, 2002.
59. Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: А.Аҳмедов, Ҳ. Бобобеков. – Т.: 1997.
60. Шермухамедов Я., Умаров А. Русча – ўзбекча ҳарбий терминлар луғати. – Т.: “Фан”, 1981.
61. Шихаб ад-Дин Мухаммад ан-Насави. Жизнеописание Султана Джалал ад-Дина Манкбурни. Перевод с арабского, предисловие, комментарии, примечания и указатели З.М.Буниятова. – Баку: “Элм”, 1973.
62. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Саодатга йўлловчи билим). Нашрга тайёрловчи филология фанлари кандидати Қ. Каримов. – Т.: “Фан”, 1972.
63. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан. Қадимги даврдан ҳозиргача. – Т.: “Sharq”, 2012.
64. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. I. – Т.: ЎЗМЭ, 2000.
65. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т.I–II. – М.: “Русский язык”. 1981.



66. Ўразбоев А. Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси. Филол.фан.д-ри. дисс. – Т.: 2018.

67. Harbiy atamalarning yangi izohli lug'ati / R.S. Samarov va boshqalar. – Т.: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020. – 384 b.

68. Ҳожи Нурҳожи. Қадимги уйғурлар ва қорахонийлар. – Урумчи, 2001.

69. Ҳофиз Таниш Ал-Бухорий. Абдулланом. Форс тилидан С. Мирзаев таржимаси, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Б. Аҳмедов. – Т.: “Шарқ”, 1999.

70. An historical atlas of central asia by Yuri Bregel. Brill – Leiden. – Boston 2003.

Qaydlar uchun



Qaydlar uchun

Qaydlar uchun



MUNDARIJA

KIRISH	3
Birinchi bo'lim	
Harbiy mansab, lavozim va unvonlarni ifodalovchi terminlar	8
Ikkinchi bo'lim	
Qo'shin turlari va askariy qism nomlarini anglatuvchi terminlar	58
Uchinchi bo'lim	
Jangovar harakat va taktik amaliyotlarni ifodalovchi terminlar	108
To'rtinchi bo'lim	
Qurol-yarog', aslaha-anjomlarni ifodalovchi terminlar	128
Beshinchi bo'lim	
Mudofaa va muhandislik inshootlari nomlarini anglatuvchi terminlar	166
Foydalanilgan adabiyotlar	183
Asosiy tushunchalar izohi	186
O'zbekcha-ruscha lug'at	193

Ilmiy-uslubiy nashr

Hamidulla DADABOYEV, Hamid YODGOROV

O'ZBEK HARBIY TERMINOLOGIYASI

Ilmiy-uslubiy qo'llanma

Muharrir: *Sobir O'narov*

Badiiy muharrir: *Akbarali Mamasoliyev*

Texnik muharrir: *Rustam Isoqulov*

Musahhah: *Ozoda Axmedova*

Sahifalovchi: *Davronbek Mamasoliyev*

Suratlarni tanlashda yaqindan ko'mak bergan Xalqaro Amir Temur xayriya jamoat fondi ilmiy xodimi Abdulhamid Mutaliyevga minnatdorlik bildiramiz.



316.334.3(038)

60.56-3 66

H 27

H. Dadaboyev [va boshq.]
H 27 O'zbek harbiy terminologiyasi [Matn]: *O'quv qo'llanma /*
H. Dadaboyev, H. Yodgorov. – Toshkent: "SAHHOF" nashriyoti, 2021. – 216 b.

ISBN 978-9943-6666-3-4

UO'K: 316.334.3(038)

КБК: 60.56-3 66



"SAHHOF" nashriёti
100129. Toshkent shahri,
Navoiy kўchasi, 30
☎: +99899 111-94-62
✉: +99894 659-94-62



Босишга 2021 йил 26 мартда рухсат этилди.
Бичими 60x90 ¹/₁₆. Офсет босма. "PF Agora Serif Pro UZ" гарнитураси.
Шартли босма табоғи 16,25. Адади 1000 дона. Буюртма № 000